

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

KINOLOGIYADA NASLCHILIK ISHLARI

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari-
larining 3640100 — «Veterinariya» tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha
3640102 — «Kinolog» kasbi o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti
Toshkent — 2013

UO‘K: 636.759

KBK: 46.73

K-46 Kinologiyada naslchilik ishlari: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. Tuzuvchilar: R.M. Tashtemirov, B.D. Narziyev. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. — 128 b.

«Kinologiyada naslchilik ishlari» fani bo‘yicha kasb-hunar kollejlari-ning 3640100 — «Veterinariya» tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha 3640102 — «Kinolog» kasbi, «Veterinariya, zootexniya va qorako‘lchilik» fakulteti-ning 5A440109 — «Kinologiya» mutaxassisligi magistr-lari, fakultet talabalari, Bojxona hamda Chegara qo‘shinlari tarkibidagi kinologlar tayyorlash maktablari va kinolog inspektorlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 636.759

KBK: 46.73ya722

Taqrizchilar:

Q.N. Norboyev — «Hayvonlar kasalliklari va parazitologiya» kafedrası professori, v.f.d.,

U.U. Norqulov — Samarqand viloyati IIB Kinologiya xizmati boshlig‘i, mayor.

KIRISH

1. Itchilikning ahamiyati, itchilikning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Insoniyatning evolutsion jarayoni va uning qadimi yashash manzillarini arxeologik o'rganishda arxeologlar tomonidan topilgan qazilmalardagi hayvonlar va shu jumladan itlarning qoldiqlariga asoslanib aytish mumkin-ki, insonlar azaldan g'orlarda yashab, ovchilik bilan shug'ullangan vaqtlardayoq, alohida toifadagi hayvonlarni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qilgan.

Odamzod taxminan 15 ming yil ilgari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagan. Bu davr sivilizatsiya taraqqiyotining boshlanishi hisoblangan va ayni shu davrda yovvoyi tabiatni chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga kelgan. Hozirgi kunda esa hammaga ma'lum va keng tarqalgan hayvonlarni xonakilashtirishga erishildi. Bunday hayvonlardan bizga eng yaqini itlar hisoblanadi.

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, uyida it nobud bo'lgan misrliklar chuqur qayg'uga botib, motam tutganlar. Hattoki ular nobud bo'lgan jonivorlarga bag'ishlab maxsus Kinopolis — itlar shahrini ham qurishgan.

Itlarning tez yugurishi, o'ziga xos hid bilish xususiyati, eshish, kechasi yaxshi ko'rish qobiliyati, har qanday joyda yengil harakatlana olishi, nihoyatda chidamliligi kabi sifatleri harbiy mutaxassislar tomonidan yuqori baholanadi.

Olimlar itning sezish va ajratish xususiyatini o'rganib chiqib, u 500 minggaacha bo'lgan turli hidlarni sezish qobiliyatiga ega ekanligini aniqlaganlar. U hattoki, damlangan choyga aralashirilgan ammiak qorishmasi hidini ham seza olar ekan.

Itlar odam sog'ligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Chunonchi, olimlar tomonidan ularning foydali xususiyatlari tadqiqot qilinganda, uyida umuman hech qanday hayvon asramagan, yurak xastaligiga chalingan 39 nafar bemordan bir yil davomida 11 tasi vafot etgan. Lekin, uyida it yoki mushugi bo'lgan xuddi shunday 53 ta bemordan faqat 3 tasigina vafot etgan, xolos. Shu bois asab kasalliklariga chalingan bemorlarga shifokorlar ba'zan profilaktika maqsadida uyda it boqishni tavsiya etadilar.

Mutaxassislar asrlar davomida zotdor itlarni yetishtirish, ularning tuzilishi, xatti-harakatini o'rganish va ularni to'g'ri oziqlantirish yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borganlar. Shu asosda itlarni o'rganuvchi fan — «Kinologiya» vujudga kelgan.

«Kinologiya» so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, «ki-nos» — it va «logos» — fan degan ma'noni anglatadi.

Shunday qilib, «Kinologiya» itlarning vujudga kelish tarixi, zotlari, tuzilishi, xatti-harakatlari, oliy asab tizimi, eksteryeri, konstitutsiyasi, anatomiyasi, fiziologiyasi, ularni saqlash, parvarishlash va oziqlantirishni o'rganuvchi fandir. Shuning uchun u Hayvonlar anatomiyasi, Hayvonlar fiziologiyasi, Genetika, Hayvonlarni oziqlantirish, Itlar jarrohlik kasalliklarining nazariy va amaliy asoslari, Itlarni o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari, Itlarning umumiy va maxsus dressirovkasi, Ichki yuqumsiz kasalliklar kabi fanlar bilan tig'iz bog'langan.

Itchilikda bosh sonini ko'paytirish va naslli, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega hayvonlarni ko'paytirish uchun hayvonlarni urchitish fanini batafsil o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Itchilikning rivojlanishiga ulkan hissasi bor mamlakatlar, olimlar. Polshada faoliyat ko'rsatadigan Kinologiya Federatsiyasi-ning a'zosi A. Kerskining ma'lumoti bo'yicha FCI — Federation Cynologique Internationale — Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi dunyoning 34 kinologik tashkilotlarini birlashtiradi. Ular 4 geografik mintaqalar bo'yicha guruhlanadi:

1. Yevropa: Avstriya, Belgiya, Chexiya, Slovakiya, Daniya, Ispaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yugoslaviya, Monako, Norvegiya, Finlandiya, Lyuksemburg, Portugaliya, Polsha, Germaniya, Ruminiya, Italiya, Shvetsiya, Vengriya, Shveysariya.

2. Amerika va Karib orollari, Argentina, Braziliya, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Chili, Ekvador, Meksika, Panama, Urugvay, Venesuela, Paragvay.

3. Osiyo: Isroil, Yaponiya.

4. Afrika: Morokko.

Boshqa guruh davlatlari ham mavjud — Angliya, Islandiya, Puerto—Riko, Baxreyn, Gonkong, Filippino, Singapur, Nepal va JAR. Ular federatsiyaga kirmasa ham beradigan it shaja-

ralari federatsiya tomonidan tan olinadi. Shuning uchun bunday shajaralarga ega naslli itlarni qo'llashda hech qanday muammolar bo'lmaydi.

FCI prezidenti har yili birlashma syezdida saylanadi, bir zotga mansub yoki bir nechta qarindoshligi mavjud zotlarni birlashtiradigan itlarni urchitadigan klublar har ikki yilda bir marotaba yig'iladilar.

Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasida itchilikning rivojlanishi bilan ilmiy asosda shug'ullanib keladigan olimlar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar: Poyarkov A.D. — Hayvonlarning evolutsion morfologiyasi va ekologiyasi instituti xodimi; Varlakov V.S. — TFA ga qarashli Normal fiziologiya institutining xodimi; Grajdankina A.N. — Moskva Zooparkining ilmiy xodimi; Ovsyannikov N.G. — FA ga qarashli IEMEJ ilmiy xodimi; Bogoslovskaya L.S. — FA ga qarashli IEMEJ yetakchi ilmiy xodimi va boshqalar.

Itchilikning respublikamizda rivojlanishini tahlil qiladigan bo'lsak diqqat-e'tiborni avvalambor chorva mollari boqiladigan yaylovlardagi «cho'pon» itlarga, shuningdek, 1899-yilda «Krasnovodsk — Toshkent» va 1905-yilda «Orenburg — Toshkent» yo'nalishida temiryo'l qatnovi yo'lga qo'yilganidan so'ng, ya'ni hududimizga itlarni olib kelish imkoniyati yaratilganiga qaratmog'imiz lozim.

Turkistonga dastlab «setter» va «pointer»lar olib kelingan. Toshkentlik keksalar va tarixga qiziquvchi katta yoshli kishilarning so'zlariga qaraganda, ular asosan ingliz va irland «setter»laridir. Chiroyli «pointer»lar esa Toshkent tipografiyasi boshlig'i A.O. Por-sevga tegishli bo'lib, 1908-yilda Turkistonda u dastlabki Ovchilar jamiyatini tashkil etgan.

1911-yilda Toshkentda birinchi itlar ko'rgazmasida 50 dan ortiq itlar qatnashgan. Asosiy «Kinologiya» markazlari Toshkent va Samarqand shaharlarida bo'lgan.

O'sha vaqtlarda Turkistonda naslli itlarni ko'paytirish bo'yicha alohida ishlar olib borilmagan. Bunday tadbirlar 1927-yildan yo'lga qo'yila boshlandi.

1929-yilning may oyida Toshkentda II Umumo'zbek ov itlari ko'rgazmasi o'tkazildi. To'rt yil o'tgach esa mazkur shaharda «Осоавиахим» huzurida xizmat itlari klubi tashkil etilib, xizmat va uy itlari bilan shug'ullanishga kirishilgan. 1968-yilda

Toshkent tabiatni muhofaza qilish jamiyati qoshida uy itlari bilan qiziquvchilar seksiyasi tashkil etildi. U ancha kengayganligi bois, 1982-yilda Toshkent uy itlariga qiziquvchilar jamiyatiga aylantirildi. 1991-yilda «Тошгорохотриболосоюз» va «Toshkent itshunoslar jamiyati»dagi ovchi itshunoslar bo'limi negizida «O'zbekiston Kinologiya Federatsiyasi» tashkil topdi. Uning Nizomi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan. Federatsiyaning asosiy vazifalaridan biri bu, «O'rta Osiyo ovcharkasi» va «Tozi» zotli itlarni asrab qolish va Respublika Xalqaro Kinologiya Federatsiyasiga a'zo (FCI) etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Federatsiyaning ushbu tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Vazirlar Mahkamasi-ning 1993-yil 18-martdagi 143-sonli qarori bilan O'zbekiston Kinologiya Federatsiyasiga Respublika hududida kinologiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi yetakchi tashkilot maqomi berildi. Hozirgi kunda esa u Xalqaro Kinologiya Federatsiyasiga a'zodir. Shu bilan birga mamlakatimizda itlar bilan shug'ullanuvchi klublar va tashkilotlar, ya'ni «Vatanparvar», «TOLS» (Toshkent itlarga qiziquvchilar jamiyati) tashkil topib, ayni paytda ular o'z faoliyatlarini olib borishmoqda.

Bizning yurtimizda ham itlarning o'ziga xos zotlari mavjud. Ulardan biri «Tozi» deb ataluvchi ovchi itlardir. Ovchilar bir mavsumda shunday zotli itlar yordamida 400 ga yaqin tulki va quyon ovlashlari mumkin. Chunki, ular juda chidamli va harakatchan. Bundan tashqari respublikamizda «Taygan» va «O'rta Osiyo ovcharkasi» zotlari ham yaratilgan.

«O'rta Osiyo ovcharkasi» to'g'risida so'z ochilganda, shuni aytib o'tish kerak-ki, O'rta Osiyoda shunday zotli itlar bor edi-ki, ular katta qo'y podalarini yovvoyi hayvonlardan himoya qildirdi. 1933-yilda «Осоавиахим» ekspeditsiyasi tarkibiga kirgan kinolog-mutaxassislar mazkur itlarni o'rganib, O'rta Osiyodagi cho'pon zotdor itlarining eng yaxshi sifatlarini birlashtiruvchi «O'rta Osiyo ovcharka»larining yagona standart zotini yaratish to'g'risidagi fikrni ilgari surdilar.

Hozirgi paytda Respublikamiz hududida itlarning 50 ga yaqin zoti mavjud bo'lib, ular havaskorlar va davlat tashkilotlari qaramog'idadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 24-oktabrdagi 364-sonli qaroriga asosan bojxona va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining kinologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish maqsadida Milliy kinologiya markazi tashkil etildi va uning vazifalari belgilab olindi.

3. Itchilikda naslchilik ishlarini tashkil etish omillari. Naslchilik ishidagi eng muhim vazifalardan biri mavjud zotlarni yaxshilash, yangi zotlar, xillar, tizimlar yaratish dasturini ishlab chiqish va uni bajarish yo'llarini axtarishdir.

Chunki, mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoki islohotlar yangi mulkchilik shakllarini keltirib chiqardi. Davlat va nodavlat xo'jaliklar — it pitomniklari, zot bo'yicha klublar, kinologiya markazlari kabilar paydo bo'ldi.

Bu xo'jaliklarni naslli hayvonlar bilan ta'minlash uchun zamonaviy talabga javob beradigan it zotlaridan foydalanish, yangi zotlarni yaratish lozim.

Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuqori nasldor guruhlar, tizimlar va oilalarni yaratish;
- nasldor erkak hayvonlarni yetishtirish, ularni jinsiy ko'rsatkichlari bo'yicha baholash va tanlash, avlodlarning sifatiga qarab baholash, yaxshilovchi deb baholangan naslli erkak hayvonlardan keng miqyosli seleksiya ishlarida samarali foydalanish, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega, iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan yangi zotlar, xillar va guruhlarini yaratish, naslchilik xo'jaliklari uchun tanlash, juftlash va urchitishning samarali tizimini ishlab chiqish va tadbqiq qilish;
- zot bo'yicha seleksiya-naslchilik ishining istiqbolli rejasini ishlab chiqish;
- naslchilik zaxiralarini joylashtirish va zotni takomillashtirishda foydalanish;
- nasldor yosh hayvonlarni tarbiyalashning qulay usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish va boshqalar.

Naslchilik ishi deb hayvonlarning sonini ko'paytirish, xizmat itlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish va yaxshilash yuzasidan amalga oshiriladigan zootexnik va tashkiliy tadbirlar tizimiga aytiladi.

Bu tadbirlar davlat va xo'jaliklar tomonidan olib boriladi. Naslchilik ishini asosan zootexnik seleksionerlar olib boradi. Ularning ish vazifalari quyidagilardan iborat.

- chorva hayvonlarining naslini yaxshilash;
- xizmat itlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish va naslli yosh hayvonlar yetishtirish bo'yicha paychilik va zootexnik ishlarini bajarish.

Zotlarning sifatini yaxshilash uchun hayvonlarni tanlash va juftlash bilan shug'ullanadi. Seleksiya-naslchilik rejasining bajarilishi, bosh sonini qayta to'ldirish va nasldor hayvonlarni sotishni yo'lga qo'yadi. Hayvonlarni saralaydi, guruhlarga ajratadi, naslchilik ishining yillik va istiqbolli rejalarini tuzadi. Veterinariya-sanitariya rejalarini va profilaktik tadbirlarini tuzishda va ularni bajarilishini nazorat qilishda qatnashadi. Chorvachilikni jadallashtirish, podani qayta to'ldirish, yosh hayvonlar olishni ko'paytirishni ilg'or fan va tajriba yutuqlari asosida tashkil qilish tadbirlarini ishlab chiqadi. Naslchilik hujjatlarini yuritishda hisobotlar tayyorlaydi, davlat naslchilik kitobiga kiritish uchun hujjatlar tayyorlaydi. Chorva xodimlari malakasini oshirish ishlarini olib boradi. Lekin shuni aytib o'tish joiz-ki, kelgusida bu ta'limot oldida muhim vazifalar turibdi.

1-MAVZU. ITLARNING KELIB CHIQISHI VA EVOLUTSIYASI

1.1. Itlarning yovvoyi ajdodlari

Itlarning uzoq ajdodlari bo'lib yovvoyi bo'ri va shaqal (chiyabo'ri)lar hisoblanadi. Buni bir nechta belgilar isbotlaydi: birinchidan — ayrim zotlar sun'iy tanlash ta'sirida kam o'zgarganlar va ko'p xislatlari bilan bo'rilarni eslatadilar (Yenisey, Chukotka, Kolima va Kanada shimolining laykalari hamda nemis ovcharkasi); ikkinchidan — serpushtlik va itni bo'ri yoki shaqal bilan chatishtirishdan hosil bo'lgan va normal rivojlanadigan duragaylar; uchinchidan — layka va boshqa it zotlarining skeleti shaqalnikiga o'xshashligi; to'rtinchidan — hozir ham bo'ri, pesets yoki tulkini osonlikcha qo'lga o'rgatish mumkin, shu bilan birga it odamning qarovidan qolsa tezda yovvoyilashib ketadi. Ammo itlarga faqat bo'ri va shaqallar yaqin bo'ladi. Giyena, pesets, tulki va brazil itlari uy itlariga o'xshashliklariga qaramasdan, ularning ajdodlari bo'lib hisoblanmaydi, chunki ularni it bilan chatishtirganda avlod bermaydi.

Arxeologik qazishlar natijalari Osiyo va Yevropa hududlarida qadim zamonda uch tipdagi itlar yashaganligini ko'rsatadi:

1-tip — torf iti. Uning skeleti faqat torf ichidan topilganligi sababli shunday ataladi. Torf itining bosh chanog'i shaqalnikiga o'xshaydi. Bunday itlarning bosh chanog'i zamonaviy pincher va teryerlarnikini eslatadi. Torf itining avlodlari: russ-fin, nemis va boshqa laykalar hamda pincher, teryer, chau-chau va shpitslar.

2-tip — «Inostransev iti» — professor D.P. Akuchin tomonidan taklif qilingan. Bu itning suyaklari Krasnoyarsk, Amur qirg'oqlari, g'arbiy Qozog'iston, Qrim, Smolensk, Abakan atrof-larida topilgan. Inostransev iti torf itidan kattaroq bo'lib, u 20—30 ming yil avval qo'lga o'rgatilgan. Inostransev itining avlodlari: mo'g'ul, kavkaz, o'rta osiyo, tibet ovcharkalari, nyufaundlend, senbernar, dog, mastif, shimoliy sharq laykalari.

3-tip — «Putyatin iti» — birgina ekzemplari Novgorod guberniyasi atrofidan topilgan. Bu itlar Inostransev itiga juda yaqin bo'lib faqat bosh chanog'i biroz kalta, tumshug'i esa uzunroq.

Putyatin itining avlodlari: sharqiy itlar — pariyalar (turli zot metislari), zamonaviy dingo va ayrim laykalar.

Bronza asrida itlarning yangi tipi — bronza iti paydo bo'lgan. Bunday itlarning bosh skeleti janubda va Sibirda topilgan. Shunisi qiziqarli-ki aynan shu davrda yangi, tamomila boshqacha qo'ylar zoti paydo bo'lgan. Bu esa itlardan shu vaqtdan boshlab podani qo'riqlash uchun foydalanganligini ko'rsatadi. Bronza itining bosh suyagi hamda Hindiston va Eronda yashagan Hindiston bo'risining bosh suyagi orasida anatomik o'xshashlik mavjud.

Bronza itining avlodlari: Yevropadan kelib chiqqan nemis, belgiya, fransuz ovcharkalari, kolli va ayrim laykalar.

Bronza asrining ikkinchi tipi ham bor — kul iti. Uning suyaklari sadaqa gulxanlarining kulidan topilgan. Bu hol ularning ovchi it bo'lganligidan dalolat beradi, chunki ov yaxshi bo'lishi uchun sadaqaga faqat qimmatli narsa keltirilgan. Avlodlari: tozi, iskovuch itlar, taksa va spaniyel.

Tozi itlarning ajdodlari hanuzgacha aniq emas. Ammo tozilarning vatani Afrika ekanligi hech shubha tug'dirmaydi, chunki u yerdan ularning ko'p sonli tasvirlari topilgan.

Laykalar keltirilgan beshta tiplarga kirmaydi. Ularning nomi lay (ruscha) — hurish so'zidan kelib chiqqan. Laykalarning bosh suyak tuzilishi har xil tiplarga o'xshaydi. Barcha laykalarni o'xshash fe'l-atvori birlashtiradi.

Janubiy Osiyo va Shimoliy Amerikada pariy itlar guruhi mavjud: bu itlar turli zotlarni chatishtirilishidan kelib chiqqan.

Xonakilashtirish va sun'iy tanlash ta'sirida, yillar davomida, itlarning skeleti va muskulaturasi, tana shakli va oliy asab tizimsi yangicha rivojlangan. Tana massasi kattalashgan yoki kichraygan, skeleti mustahkamlashgan yoki aksincha, kuchsizlangan. Shunga qaramasdan bu yagona biologik tur — *Canis lupus f.familiaris*.

1.2. Itlarni xonakilashtirish vaqti, joyi, bosqichlari, yuz bergan o'zgarishlar

Birinchi xonaki itlar qachon paydo bo'lgan?

Odamlar hali chorvachilik va dehqonchilik nimaligini bil-maganida, hamda ularning yashashi uchun birdan-bir chora ov bo'lganida it odam qo'lga o'rgatgan uy hayvonlaridan birin-

chisi edi. Bu paleolitda, to'g'rirog'i tosh asrida, qachonki odam olovdan foydalanishni hamda toshdan va suyakdan birinchi mahsulotlarni yasashni boshlaganda vujudga kelgan. Shundan buyon, mana 30—40 ming yildirki it odam bilan birga.

Uy hayvonlari ibtidoiy odamning hayotini va mehnatini yengillashtirgan, o'z tomonidan, odam ham faqat unga foydali bo'lgan turlarni urchitgan va takomillashtirgan. Chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanish, yangi uy hayvonlarining paydo bo'lishi (ot, qo'y, qoramol) itni «takomillashtirdi», chunki u ovda ishlatilishidan tashqari podani va egasining uyini qo'riqlaydigan bo'ldi.

Yevropada haqiqiy itlarning eng qadimiy suyaklari «Daniya oshxonasi» deb ataladigan joyda va S'yexalmendagi Shved preneolitik to'xtash joyidan topilgan. Ularning yoshi kamida 10—12 ming yil bo'lib hisoblanadi. Angliyada topilgan it qoldiqlari miloddan avval 7200—7900 yillarga to'g'ri keladi. Eronda chamasi 11,5 ming yil avval yashagan itning qoldiqlari topilgan. Aydxoda joylashgan Biverxed g'orida 9,5—8,3 ming yillik it suyaklari topilgan. It qoldiqlari Germaniyaning Bonn shahri atrofidan topilgan. Ularning yoshi 14 ming yil bo'lib, mezolit davriga taalluqlidir.

Konrad Lorens ham itlar 12 ming yil avval xonakilashtira boshlangan deb hisoblaydi.

Amalda xonakilashtirish jarayoni qanday kechgan? Bu savolga javob berish qiyin. K. Lorens o'zining 1971-yilda chiqqan «Человек находит друга» kitobida qiziq gipotezani keltiradi. Uning fikricha odam dushmanlaridan va yirtqich hayvonlardan ogoh bo'lish uchun birinchi bo'lib shaqalni o'ziga yaqinlashtirgan. Ammo ov va qo'riqlash uchun shaqaldan kuchliroq va atrofidagi hayvonlarga, shu jumladan odamga «bog'lanish» xususiyatiga ega qandaydir boshqa hayvon masalan, bo'ri birinchi bo'lib xonakilashtirilgan bo'lishi kerak. Ya'ni bu hayvon to'dada yashaydiganlar sirasiga kirishi lozim. Bunga bo'ri shaqalga nisbatan ko'proq to'g'ri keladi.

Xonakilashtirish boshida odamga nisbatan agressiyasi yo'q hayvonlar tanlab olingan. Akademik D.K. Belyayev maktabining izdoshlari aynan shu omilni eng muhim deb hisoblaydilar. Yovvoyi turga bunday tanlash qanday ta'sir qilar ekan? D.K. Belyayev

rahbarligida Sibir filialining eksperimental markazida quyidagi tajriba o'tkazildi.

Kumush-qora tulkilar orasida 20 yil mobaynida odamga nisbatan eng kam agressivlikka tajribalar o'tkazildi. Natijada tulklilarda yovvoyi ajdodlariga xos bo'lmagan belgilar: osilgan quloqlar, qayrilgan dumlar, dog'li rang paydo bo'ldi, serpushtlik oshdi, ko'payishning mavsumiyligi yo'qoldi. Tulkilarning odamga nisbatan munosabati o'zgardi, ularda odamga «bog'lanish» hissi paydo bo'ldi. Bularning barchasi aynan itlarga xos xususiyatlardir. Bunday tanlanish destabilizatsiyalash deb ataladi. Bunday tanlanishda hayvon fiziologiyasi va biokimyosi o'zgaradi. Shunday qilib, ko'rinib turibdi-ki pasaytirilgan agressivlikka yo'naltirilgan tanlash xonakilashtiriladigan turga sezilarli ta'sir qilar ekan. Bunda xonakilashtirilgan tulki va itlar boshqa-boshqa urug'larga mansub bo'lsa ham (tulki — *Vulpes*, it — *Canis*) ularning orasida parallelar paydo bo'ladi.

A.D. Poyarkov va boshqalarning (1981) ta'kidlashicha odamga nisbatan agressivlikni pasaytirish asosida qo'llanilgan tanlash ko'pchilik it zotlarini paydo bo'lishiga xizmat qilgan. Xonaki itlar destabilizatsiyalovchi tanlashning yaqqol belgilarini o'zlarida mujassam etgan bo'lib, o'lcham va konstitutsiya bo'yicha juda o'zgaruvchan. Mualliflarning fikricha odamga o'rgatish jara-yonida duragaylashtirish ham katta rol o'ynagan. Agar shunday bo'lsa itlar polifinetik guruhga kiradi, ya'ni ular bir nechta ajdodlardan kelib chiqadi.

1.3. Itlarning taraqqiyotida tabiiy va sun'iy tanlashning ahamiyati

1859-yilda Ch. Darvin tabiiy va sun'iy tanlanishlar ta'limotini yaratdi.

Tabiatda har doim bir turga oid individlar yashab keta oladigan va ozuqani topa oladiganlarga nisbatan keragidan ko'proq tug'iladi. Bu hayvonlar avlodining bir qismi albatta halok bo'ladi, ya'ni tabiiy tanlanish amalga oshiriladi. Agarda bir turga oid individlarning hammasi tirik qolganda, ular tez vaqtda yer shari-dagi boshqa hayvonlarni siqib chiqargan bo'lar edilar. Buning natijasida hayvonlar orasida yashash uchun kurash kechadi, ya'ni

ozuqa va yaxshiroq yashash sharoiti uchun konkurensiya kecha-di. Shuning uchun *tabiiy tanlanish* eng chiroylilarni emas, balki o'zgarib turadigan sharoitlarga tezroq moslashadiganlarni tanlab oladi, moslasha olmaydiganlar — «yomonlari» avlod qoldirmasdan o'ladilar, ya'ni tabiiy tanlanish vujudga keladi (masalan, eskimos laykasidan tug'ilgan kalta junli bolasi Alyaskaning og'ir sharoitida yashay olmaydi).

Aftidan, bu kurashga chiday olmagan hozirgi itlarning ajdodi avval odamning uyiga, keyinchalik esa o'ziga ham yaqinlashdi.

Sun'iy tanlanishni odamning o'zi amalga oshiradi. Bu tizimli ravishda odam uchun kerakli belgilar va xossalari mavjud individlarni saqlab qolish yo'li bilan yangi hayvon zotlari va o'simlik navlarini yaratish jarayonidir. Faqat oxirgi 2—3 yuz yilliklarda-gina tanlash maqsadli va doimiy bo'ldi.

Itchilikda tabiiy tanlanish (mahalliy it zotlarini — layka, mahalliy tozi, quvar itlarni urchitish) bilan birgalikda sun'iy tanlanish katta ahamiyat kasb etadi. Sun'iy tanlanish natijasida 400 dan ziyod it zotlari yaratilgan. Ammo oxirgi yillarda, ko'p avlodlar mobaynida anatomiyasi va fiziologiyasi aniq sharoitlarga moslashib kelgan ko'pchilik it zotlari shaharda yashaganligi sababli ularning tuzilishi va konstitutsiyasi ancha kuchsiz bo'lib qolgan.

1-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat

Itlar taraqqiyotida tabiiy va sun'iy tanlanishning ahamiyati

Mashg'ulot maqsadi: Itlar taraqqiyotidagi tabiiy va sun'iy tanlanishning ahamiyatini o'rganish.

Turli zotlarga mansub hamda har xil eksteryer va konstitutsiyaga ega itlarning tana tuzilishi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda itlarda oddiydan murakkabga o'zgarishlarni, odamlarga kerakli fazilatlar (xizmat yo'nalishi) ishlab chiqilganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Uslubiy ko'rsatmalar: Mashg'ulot o'quv xonada olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlarning, yovvoyi itsimon hayvonlarning rasmlari bo'lishi lozim.

Keyinchalik mashg'ulot it pitomnigi sharoitida davom ettiriladi. Bunda turli xizmat yo'nalishidagi — iskovuch (rus ovchi

spaniyeli), qo'riqlash («Sharqiy Yevropa ovcharkasi»), qorovullik («O'rta Osiyo ovcharkasi») xizmatida qo'llanadigan itlarning xususiyatlari va bir-biridan farqi batafsil yoziladi va baholanadi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli zotlarga va xizmat yo'nalishiga mansub itlar va yovvoyi itsimonlarning fotorasmlari va mulyajlar, videotasvirlar, video-proyektor, kompyuter, tarqatma materiallar.

Topshiriq: Har xil zotdagi va xizmat yo'nalishidagi itlar hamda itsimonlar misolida tabiiy va sun'iy tanlanishni aniqlash hamda tabiiy va sun'iy ishlab chiqilgan belgilarni farqlash.

Tabiatda har doim bir turga oid individlar, yashab keta oladigan va ozuqani topa oladiganlarga nisbatan keragidan ko'proq tug'iladi. Bu hayvonlar avlodining bir qismi albatta halok bo'ladi, ya'ni tabiiy tanlanish amalga oshiriladi. Agarda bir turga oid individlarning hammasi tirik qolganda, ular tez vaqtda yer sharidagi boshqa hayvonlarni siqib chiqargan bo'lar edilar. Buning natijasida hayvonlar orasida yashash uchun kurash kechadi, ya'ni ozuqa va yaxshiroq yashash sharoiti uchun konkurensiya kechadi. Shuning uchun *tabiiy tanlanish* eng chiroylilarni emas, balki o'zgarib turadigan sharoitlarga tezroq moslashadiganlarni tanlab oladi, moslasha olmaydiganlar — «yomonlari» avlod qoldirmasdan o'ladilar, ya'ni tabiiy tanlanish vujudga keladi (masalan, eskimos laykasidan tug'ilgan kalta junli bolasi Alyaskaning og'ir sharoitida yashay olmaydi).

Aftidan, bu kurashga chiday olmagan hozirgi itlarning ajdodi avval odam uyiga, keyinchalik esa o'ziga ham yaqinlashdi.

Sun'iy tanlanishni odamning o'zi amalga oshiradi. Bu tizimli ravishda odam uchun kerakli belgilar va hossalari mavjud individlarni saqlab qolish yo'li bilan yangi hayvon zotlari va o'simlik navlarini yaratish jarayonidir. Faqat oxirgi 2—3 yuz yilliklarda gina tanlash maqsadli va doimiy bo'ldi.

Itchilikda tabiiy tanlanish (mahalliy it zotlarini — layka, mahalliy tozi, quvar itlarni urchitish) bilan birgalikda sun'iy tanlanish katta ahamiyat kasb etadi. Sun'iy tanlanish natijasida 400 dan ziyod it zotlari yaratilgan. Ammo oxirgi yillarda, ko'p avlodlar mobaynida anatomiyasi va fiziologiyasi aniq sharoitlarga moslashib kelgan ko'pchilik it zotlari shaharda yashaganligi

sababli, ularning tuzilishi va konstitutsiyasi ancha kuchsiz bo'lib qolgan.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o'tkaziladi. Talabalarda mavjud bo'lgan, bu sohaga tegishli nazariy va amaliy bilimlarning uzviy bog'liqligi aniqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Itlarning uzoq ajdodlari bo'lib qaysi hayvonlar hisoblanadi?
2. Qadim zamonda Osiyo va Yevropa hududlarida necha tipdagi itlar yashagan?
3. Torf itining avlodlari.
4. «Inostransev iti»ning avlodlari.
5. «Putyatin iti»ning avlodlari.
6. Bronza itiga tasnif berib, avlodlarini ayting.
7. Itlarning taraqqiyotida tabiiy va sun'iy tanlanishning ahamiyati.
8. Tabiiy tanlanish tushunchasiga ta'rif bering.
9. Sun'iy tanlanish tushunchasiga ta'rif bering.
10. Sun'iy tanlanish natijasida qanday xizmat it zotlari yaratilgan?
11. Turli xizmat yo'nalishidagi itlar bir-biridan qanday farqlanadi?

2-MAVZU. ZOT XAQIDA TA'LIMOT, IT ZOTLARI (2 SOAT)

2.1. Zot haqida tushuncha

Zot. Bu inson tomonidan yaratilgan, umumiy kelib chiqqan, xo'jalikka foydali, avloddan avlodga muntazam o'tadigan fiziologik va morfologik xususiyatlardan iborat uy hayvonlarining ko'p sonli guruhi. Zot yaxshi parvarish qilinsa, uni kerakli yo'nalish bo'yicha o'rgatish oson kechadi.

Yovvoyi hayvonlar zotlarga bo'linmaydi. Xonaki hayvonlar esa zotlarga bo'linadi. Uy hayvonlarining klassifikatsiyasida zot zootexniyaning tizimli asosi hisoblanadi. Turli-tuman hayvon zotlari insoniyat mehnatining mahsuli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yer sharida uy hayvonlarining 2400 ta zoti mavjud. Shundan 1000 ta qoramol, 203 ta cho'chqa, 160 ta qo'y, 20 ta echki, 250 ta ot, 232 ta parranda, 60 ta quyon, 400 ta it, 12 tasini bug'u zotlari tashkil qiladi. Birinchi marta zot haqida tushuncha XII asrda kishilar hayvonlarni chatishtirishga kirishgan paytida paydo bo'la boshlagan edi. Bu davrda ularning kelib chiqishining umumiylikiga katta e'tibor berilgan. Olimlar (Zettgasey, Vilkens, Kronaker, Kryuger va boshqalar) zot haqida har xil tushunchalarni keltirganlar. Masalan, Kryuger: «Zot bu barcha irsiy belgilar bo'yicha bir xil bo'lgan va irsiy toza hayvonlar guruhidir», – deb yozgan edi.

Ch.Darvin: «Zot bu inson mehnati natijasida hosil qilingan hayvon turi bo'lib, insonning ma'lum talabini qondirishi lozim», degan fikrni olg'a suradi.

Zot deb ma'lum sotsial-iqtisodiy sharoitda inson mehnati tufayli yaratilgan, kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi bo'yicha umumiy bo'lgan, bir-biridan xarakterli mahsuldorlik belgisi, tana tuzilishi bilan farq qiladigan va o'z xususiyatlarini avloddan avlodga mustaqil beroladigan butun bir hayvonlar guruhiga aytiladi.

Zotning xarakterli belgisi asosan quyidagilardan iborat:

- a) kelib chiqishi bo'yicha umumiylik;
- b) u yoki bu tabiiy sharoitda urchitishga moslashgan;
- d) ma'lum bir xo'jalik ishlarida foydali xususiyatga ega bo'lishlik;

- e) mustahkam irsiy belgiga ega bo'lishlik;
- f) ma'lum bir bosh songa ega bo'lish;
- g) ma'lum bir tarqalish darajasiga ega bo'lishi kerak.

P.N. Kuleshov: «Zot bo'lish uchun mahsuldorligi bo'yicha o'xshash bir tipli bir necha ming hayvon bo'lishi kerak va zotning mahsuldorligi yo'nalishini belgilashi lozim», — deydi.

A.S. Serebrovskiy: «Zot bo'lish uchun 20000 dan kam bosh songa ega bo'lmasligi kerak», — deydi. D.A. Kislovskiy zot uchun kamida 4500 bosh ona hayvon va 150 naslli erkak hayvon bo'lishi kerakligini uqtiradi. Uning ta'kidlashicha, shundagina qarindoshlararo urchitishga yo'l qo'ymaslik mumkin.

Hozirgi vaqtda yangi zotning bosh soni haqidagi masala maxsus qo'llanma asosida olib boriladi. Zotlar ahamiyatiga qarab har xil darajada tarqalgan. Tarqalish darajasiga qarab zotlar 4 ta tipga bo'linadi:

1. Keng tarqalgan zotlar. Bu tip o'n millionlab bosh songa ega bo'lib, jahonda keng tarqalgan.

2. Zonalararo tarqalgan zotlar. Bu tipga har xil tuproq iqlim sharoiti va iqtisodiy zonada tarqalgan zotlar kiradi. Bu tipga kiruvchi zotlarning bosh soni keng tarqalgan zotlarga nisbatan ancha kam bo'ladi.

3. Ma'lum zonalarga tarqalgan zotlar. Bunga ma'lum bir zonada tarqalgan zotlar kiradi.

4. Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan lokal zotlar. Bu zotlar bir viloyat yoki o'lka miqyosida tarqalgan bo'ladi. Lokal zotlar keng tarqalmagan va kam sonli bo'lsada mahalliy sharoitga juda yaxshi moslashgan bo'ladi.

Zot tarixiy kategoriya bo'lib u abadiy emasdir. Davr talabiga javob bera oladigan zotlar rivojlanadi va javob bera olmaganlari esa yo'qolib boradi.

Zotlarning paydo bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari tabiiy-geografik sharoit ham katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy-geografik omillardan eng asosiylari tuproq, iqlim, o'simliklar tarkibi, joyning relyefi hisoblanadi.

Shunday qilib, zotlar asosan sotsial-iqtisodiy sharoit ta'sirida vujudga keladi va takomillashadi, ammo bularning hammasi muayyan tabiiy-tarixiy sharoitda yuz beradi.

Zotning asosiy xususiyatlari

Zot uchun quyidagilar xarakterli xususiyatlar bo'lib hisoblanadi:

1. Kelib chiqishining umumiyligi.

Bir zotga mansub hayvonlar umumiy kelib chiqishga ham ega bo'ladi. Zot kelib chiqishining umumiyligini ta'minlaydigan sabablar quyidagilar hisoblanadi:

- a) tabiiy iqlim va tuproq sharoitining bir xilligi;
- b) oziqlantirish sharoitining bir xilligi;
- d) saqlash sharoitining o'xshashligi;
- e) o'xshash belgilar bo'yicha bo'g'inma-bo'g'in tanlash ishlari-ning olib borilishi;
- f) maqsadga muvofiq, ya'ni qo'yilgan talabga javob bergan avlodlarni nasl uchun qoldirish;
- g) maqsadga yoki talabga javob bermaydigan hayvonlarni hisobdan chiqarish.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar zotning kelib chiqishining umumiyligiga olib keladi.

2. Bir zotga mansub hayvonlarning o'xshash bo'lishi.

Bir zotga mansub hayvonlarning o'xshash bo'lishini quyidagi omillar ta'minlaydi:

- a) zot yashagan sharoitning yaqinligi, ya'ni deyarli bir xil sharoitda urchitilishi;
- b) kelib chiqishning umumiyligi;
- d) urchitish maqsadining bir xilligi;
- e) urchitish usulining bir xilligi;
- f) zotdagi hayvonlar bosh soni.

Hayvonlar soni ma'lum bosh soniga ega bo'lganda zot bo'lishi mumkin. Zotdagi hayvonlar bosh soni yetarli bo'lganda unda tanlash va juftlash ishlarini keng miqyosda olib borish imkoniyati yaratiladi.

Akademik M.F.Ivanov yangi zotda kamida 5–6 ta o'zaro qarindosh bo'lmagan liniyalar bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Har xil zotga mansub, turli yo'nalishdagi hayvon zotlari uchun bir xil bosh soni bo'lishini talab qilish mumkin emas. Chunki, zotdagi hayvonlar bosh soni birinchi navbatda shu zotning qimmatiga,

ma'lum bir zona sharoitiga moslashganligi, ona hayvonlarning pushtdorligiga, bo'g'im almashishi tezligiga, naslli erkak hayvonlarning sifatiga bog'liq bo'ladi. Zotdagi hayvonlar bosh soni shu zotning yoshiga, ya'ni eski yoki yangiligiga ham bog'liq. Yangi zotda, eski zotga qaraganda bosh sonining kam bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.

4. Zotning tarqalishi areali. Zotning yetarli maydonga tarqalishi zotning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Zotning keng tarqalishi uning har xil iqlim sharoitiga moslashishiga bog'liq bo'ladi.

5. Zotning o'zgaruvchanligi. Zotning o'zgaruvchanligi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Chunki, zot butun umri davomida talabga javob bera olmasligi ayon. Bu esa seleksiya ahamiyatiga ega.

6. Zotning konstantligi (belgilarni nasldan-naslga o'tishi va o'tkazish turg'unligi) naslchilik ishlari yordamida ta'minlanadi, chunki bu ishlar avloddan avlodga o'tgan sari hayvonlarning bir tipdagi sifatlarini to'play boradi, ayrim individlarning juda yuqori mahsuldorligini mustahkamlaydi va uni zotning xarakterli xususiyatiga aylantiradi. Zotning konstantligi eksteryer-konstitutsiya va mahsuldorlik belgilarini o'z ichiga oladi. Zotning konstantligi nisbiy xususiyat bo'lib tanlash va saralash vositasida saqlab turiladi.

7. Zotning plastikligi (seleksiya yo'nalishiga bog'liq ravishda o'zgaruvchanligi) unga turli sharoitga moslashish imkonini beradi va bundan keyingi rivojlanish omili xizmatini o'taydi. Zotning plastikligiga zot ichidagi tiplar sabab bo'ladi.

8. Organizmning tashqi sharoit omillari o'zgarishiga moslashishiga iqlimlashtirish deb ataladi. Iqlimlashish bu hayvonning yangi sharoitda normal ko'payish va yuqori mahsulot berish xususiyatidir.

Iqlimlashtirish uzoq jarayon bo'lib birinchi bo'g'ingacha cho'ziladi. Yangi sharoitda voyaga yetayotgan bo'g'inlar oldingilariga nisbatan iqlimlashishi ancha yengil kechadi. Bir necha bo'g'in davomida hayvonlarning sharoitga moslashib borishiga adaptatsiya deyiladi. Ayrim zotlarda akklimatizatsiya (iqlimlashish) xususiyati juda sekin kechadi. Ammo bunday zotlar ba'zan

bir necha bo'g'indan keyin o'zlari yashayotgan yangi tashqi muhit sharoitiga juda yaxshi moslashib ketishi mumkin. Nihoyat ba'zi hayvon zotlari o'z yashash sharoitidan boshqa joy tabiiy sharoitiga butunlay iqlimlashmaydi. Natijada biroz vaqtdan keyin zotning buzilishi kuzatiladi. Iqlimlashish juda murakkab jarayondir. Ammo bu jarayonning yengilroq kechishi uchun hayvonlarni to'yimli ozuqalar bilan normal oziqlantirish sharoitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Iqlimlashish xususiyati toza zotli hayvonlarda qiyinroq kechadi. Aksincha, duragay gibrid hayvonlarda bu jarayon ancha yengil o'tadi. Hayvon zotlarining iqlimlashishiga oziqlanish va saqlash sharoiti yaratilmagan zotning buzilishi, aynishi kuzatiladi. Bunda hayvon yangi, butunlay xos bo'lmagan iqlim sharoitiga tushgach paydo bo'la boshlaydi va hayvonlar mahsuldorligi yoki ishchanligi keskin kamayib, ular primitiv yoki mahalliy zotlarga o'xshab qoladi. Zotning aynishi konstitutsiyasining zaiflashuvida, mahsuldorligi, pushtdorlik ko'rsatkichlarining keskin pasayishida avlodda har xil kamchiliklarning paydo bo'lishi, jinsiy anomaliyalarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Zotning qashshoqlanishi hayvon organizmining biologik talabi bilan yashash sharoitining to'g'ri kelmasligi natijasida paydo bo'ladi. Bunda hayvon tanasi proporsionalligining buzilishi, eksteryer kamchiliklarining ko'payishi hodisalari paydo bo'ladi. Shunday qilib iqlimlashish davrida hayvon eksteryeri, interyerida, mahsuldorlik ko'rsatkichlarida keskin o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin.

Adaptatsiyaning ikki xil turi mavjud:

1) Genotipik adaptatsiya. Bu adaptatsiya ota-onadan irsiyat natijasida o'tadi.

2) Fenotipik adaptatsiya — bu organizmning ontogenez jarayoni davomida paydo bo'ladi.

To'liq yoshdagi hayvonlar yosh hayvonlarga nisbatan yangi sharoitga yomon iqlimlashadi. Shuningdek, janub sharoitida yashagan hayvonlar sovuq sharoitga (shimolga) yaxshi iqlimlashsa, shimoliy zona hayvonlari issiq iqlimga nisbatan yomon iqlimlashadi. Bundan tashqari har xil zotlarning iqlimlashish xususiyatlari har xil bo'ladi. Bu iqlimlashtirilayotgan hayvon zotining keltirib chiqarilgan zona tabiiy-geografik sharoitiga bog'liq bo'ladi.

2.2. It zotlarining kelib chiqish omillari, yo'nalishi, tarqalgan joylari, yaratilishi

Akademik S.I. Bogolubskiy barcha yo'qolib ketgan va mavjud it zotlarini 5 asosiy tiplarga bo'lgan. Bu klassifikatsiya hozir ham qo'llanadi.

Birinchi tip — *shpitsimonlar*. Qadimgi guruhlardan biri. Ularning shajarasi bo'ri va shaqallardan boshlangan. Shpitslarning skeletiga o'xshash qoldiqlar Sumatra va Madagaskarda topilgan. Qadimgi shpitslar Shveysariya, Rim imperiyasi, Sibir va Xitoyda ma'lum bo'lgan. Shpitslar bir nechta guruhlariga bo'linadi: haqiqiy shpitslar, laykalar va chana tortadigan itlar. Shimoliy Amerika va Grenlandiyaning chana tortadigan itlari Shimoliy Osiyo kelib chiqishiga ega bo'lib, laykalarga mansub. Zamonaviy avlodlari: shpits, pincher, teryerlar, shnautser.

Ikkinchi tip — *tozisimonlar* (*борзые, рысь*). Ular ikki guruhga — shimoliy (irland bo'ribosari va dirxaund) va janubiylarga bo'linadi. Bu itlar massiv bo'lib, ularning boshi keng, tumshug'i biroz kalta, quloqlari uzun va osilgan bo'ladi. Bu itlar Shimoliy Afrika (Misr) da xonakilashtirilgan bo'ri va shaqallardan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik Rim, Gretsiya va butun Yevropada tarqalgan. Ular chidamli, tez yuguradigan va yaxshi hid biladigan itlardir.

Uchinchi tip — *tozilar* (*зонные, рысь*) — eng chopqir itlar. Ularning suyaklari ingichka, tumshug'i uzun, oyoqlari ancha uzun bo'ladi. Ular mustaqil kelib chiqqan deb hisoblanadi. Ammo keller bo'yicha ular tozisimonlardan kelib chiqqan. Ayrim itshunoslarning fikricha ularda dogsimonlarning qoni mavjud (bladxaund it zoti).

Undan tashqari bu tipga alohida ajratilgan iskovuch itlar guruhi (*легавые, рысь*) ajratiladi. Ular tozilardan ancha yosh hisoblanadi. X asrdan Uelsda bu itlar to'g'risida ma'lumot bo'lgan. Haqiqiy iskovuch itlar XIV asrda Angliyada paydo bo'ldi. Iskovuch itlar guruhiga spaniyel, retriever, kontinental va angliya iskovuch itlari kiradi. Kontinental iskovuch itlar tozilardan kelib chiqqan, bu guruhdagi itlarning eng qadimiylari — turli brakkalar. Iskovuch itlarga undan tashqari poynter, boshqa iskovuch tozilar, setterlar va kalta oyoqli taksalar guruhi kiradi.

To'rtinchi tip — dogsimon itlar. Bu itlar eng yirik, kuchli hisoblanadi. Konstitutsiyasi xom va og'ir, lablari osilgan, muskulaturasi bo'sh. Jangovar it sifatida, bundan 15 ming yil avval qadimgi Misr, Assiriya, Vavilon, Eronda ma'lum bo'lgan. Karfa-genliklar bunday itlarga temir sovutlar kiygizib dushman suvoriy-lariga qarshi jangga chiqarganlar. Doglar to'g'risidagi eramizdan 2 ming yil avval yozilgan qo'lyozmalar Altaydan topilgan.

Bu tipga kiradigan itlar 3 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh — yirik cho'pon itlar: Kavkaz, O'rta Osiyo, janubiy russ, podgalan ovcharkalari hamda komondor, kuvach, maremma, pireney iti, anatoliy karabashi va shveysar ovcharka-si — zennenxund.

Ikkinchi guruh — haqiqiy doglar yoki jangovar itlar: mastif, mastino, bulmastif, bordoss dogi, bulldog, boksyor, nemis dogi (uning kelib chiqishida qadimgi bo'ribosarning qoni bor tozilar ham ishtirok etgan bo'lsa ham), rotveyler (shveysar cho'pon itla-riga yaqin).

Uchinchi guruh — uzun junli doglar, bu guruhga senbernar, nyufaundlend va Mo'g'iliston, Ispaniyaning mahalliy it zotlari kiradi. Ammo zotlarni alohida guruhga bo'lish hamma itshu-noslar tomonidan qabul qilinmaydi. Yevropaga dogsimon itlar-ni Aleksandr Makedonskiy olib kelgan. Rimda epir itlari ay-niqsa mashhur bo'lgan, chunki ulardan urchigan moloss doglari gladiatrlar jangida sher, leopard va ayiqqa qarshi qo'llangan. Molosslardan Yevropaning haqiqiy doglari va mastiflar kelib chiqqan.

Beshinchi tip — ovcharkalar. Bu itlar, bronza asrida, ko'chmanchi cho'ponlarga yordamchi sifatida paydo bo'lganlar. Olimlarning fikriga ko'ra ular mahalliy laykalarni dogsimon, ov itlari va hindiston bo'rilari bilan chatishtirish natijasida ke-lib chiqqanlar. Bu guruhga nemis, belgiya (grendal, tarvyuyeren, malinua va boshq.), fransuz (bosseron, briar), golland, shotland (kolli), venger (pumi va puli), angliya (bobgeyl, korgi), ukraina, shimoliy kavkaz ovcharkalari kiradi.

Ovcharkalar ham qadimgi zotlar sirasiga kiradi. Ularning qoldiqlari neolitning oxiriga to'g'ri keladi. Ovcharkalarga dogsi-monlar tipiga kiruvchi cho'pon itlarini ham kiritsa bo'ladi.

2.3. Zotli itlar, ularning genofonini saqlash masalalari

Yangi zotlar shakllanishi bosqichida turgan jonivorlar nasli zotdor nasl deyiladi.

Zotlarni yaxshilash jarayonida, urchitish yoʻli bilan standart yaratilgan, ish yakuni boʻyicha standartga ega zot begona qon qoʻshmasdan koʻpaytirilgan. Yaʼni, zotning *standarti* bu aniq va loʻnda bir zotga taalluqli itning tashqi tuzilishini taʼriflash.

Standartni xizmat itlarini tayyorlash jarayonida koʻproq qoʻllaniladigan «Nemis ovcharkasi», «Sharqiy Yevropa ovcharkasi» va «Rus ovchi spaniyel» zotlari misolida koʻrib chiqamiz.

«Nemis ovcharkasi» zotli itini mashhur va odam uchun kerakli qilib yaratishda germaniyalik harbiy rotmistr Maks Emil Frederik fon Shtefanits (1864–1936) katta hissa qoʻshgan. U oʻz hayotini har xil vazifalarni bajaradigan ishchi va xizmat itlarini yaratishga bagʻishlagan va u «Ovcharka — bu ishchi it va u shunday qolishi kerak!» degan shiorga amal qilgan. Maks fon Shtefanits itlarni koʻpaytirishda bir necha qoida asosida faoliyat koʻrsatgan va boshqargan. Uning «Oltin qoidalar» kitobidan ushbu qoidalarni qisqacha keltiramiz:

1. Zotni foyda uchun emas, unga mahr berish va rohatlanish uchun koʻpaytirish sababli foyda va ijoddagi omad bir-biri bilan kamdan kam yonma-yon yuradi.

2. Bir kunlik foydani emas, kelajakni oʻylang. Itlarning sogʻligʻi hisobidan mukammalikka intilish kerak emas.

3. Chempionni emas, ishchi qobiliyatlarini saqlash uchun sogʻlom va quvvatga ega itni koʻpaytiring.

4. Har bir «Nemis ovcharkasi» koʻpaytirishga loyiq emas. Tekshirilgan avloddan urgʻochisini tanlang, undan sogʻlom va ishchan, qobiliyatli avlod tugʻilishi kerak. Yuqoridagi asoslarga binoan ularni tanlangan erkak it bilan urchiting. Chunki, asosan erkak it zot turlarini beradi.

5. Quyidagi asosiy qoidalar boʻyicha juftlarni tanlang: yaqin «qarindosh»chiligi, sogʻligʻi, eksteryer, xulq-atvor, it tayyorgarligi va ish qobiliyati.

6. Imbriding bilan qiziqmang. Qarindoshligi 4–5 avlod bilan belgilanmaydi. Qarindoshlik aloqalari qanchalik yaqin boʻlsa, «koʻpaytiruvchi» shunchalik tajribali boʻlishi kerak.

Hozirda bu ovcharkaning standarti o'zgargan.

Nemis ovcharkasi — o'rta bo'yli, cho'zinchoq gavdali, suyak tuzilishi mustahkam, quvvatga to'la, rivojlangan muskullar tuzilishiga ega. Itning uzunligi gavdasining balandligidan 10—17 foiz oshiqroq bo'lishi kerak.

Fe'l-atvori: «Nemis ovcharkasi» mustahkam asab tizimiga ega, o'ziga ishonuvchan, tashqi muhitga diqqatli, bosiq (jahli chiqqan paytdan tashqari), yengil boshqaruvchan, begona shaxslardan qo'rqmaslik, o'zini himoya qila olish qobiliyati bo'lishi lozim.

Bo'yni: mustahkam va yaxshi rivojlangan muskullarga ega, quruq, o'rta uzunlikda, terisi yig'masiz bo'ladi. Bo'yin gavdaning boshlanish qismidan taxminan 45 gradus ko'rinishda bo'ladi.

Yag'rini: erkagida 60—65 sm; urg'ochisida 55—60 sm.

Og'irligi: erkagi 30—40 kg; urg'ochisi — 22—32 kg.

Bel: mustahkam rivojlangan muskulli, osilmagan tekis umurtqa pog'onasi keng va yaxshi rivojlangan.

Ko'zlari: o'rtacha, cho'ziqsimon, rangi to'q qora bo'lishi kerak.

Quloqlari: Nemis ovcharkasida quloqlar o'rtacha, ularning turishi bir xil balandlikda va tekis, cho'ziqroq ko'rinishda bo'ladi, boshning o'lchoviga mutanosib holda, uchlari yengil, oldinga qaratilgan.

Ko'krak qafasi: o'rta kenglikda va cho'ziqroq, ko'krakning chuqurligi 45—48 gradusni tashkil etadi.

Qorni: mustahkam, tortilmagan va osilmagan.

Oyoqlari: to'g'ri, kaftlari kalta, barmoqlari yig'ilgan, yostiqtchalari qalin va qattiq, baquvvat tirnoqlari qora rangda. Old oyoqlari parallel. Kurak va yelka bog'lanish burchagi 90 gradusdan 110 gradusgacha.

Dumi: o'rta kaltalikda, yengil, qilichsimon.

Boshi: tashqi ko'rinishi qoziqsimon ko'rinishda, mustahkam ammo qo'pol emas, tana o'lchoviga mutanosib holda, bosh suyagi kengligi va uzunligi taxminan bir xil. Boshning tepa va past jag' qismi yaxshi rivojlangan, mustahkam.

Tumshug'i: tumshuqning uzunligi o'rtacha, to'g'ri, uchli, cho'zinchoq.

Burun uchi: qora.

Labi: quruq, zichlashgan, qora rangda.

Chakagi: kuchli, tishlashi qaychisimon, chakakning tishlashi baquvvat, sog'lom va to'liq bo'lishi kerak.

Tishi: oq rangda, 42 dona. Yuqori jag'da 20 ta, pastki jag'da 22 ta. Ular sog'lom va mustahkam bo'lishi kerak.

Rangi (tusi): qora, qizg'ish aralash, ko'krak qismi oqish bo'lishi mumkin, asosan qoramtir sarg'ish rangda bo'ladi.

Jun qoplami: ustki tuki o'rta uzunlikda to'g'ri, zichlashgan, qattiq, bir-biriga ulangan, tag qismi tuklari ham bir-biriga zich ulangan. Bosh qismi, quloq, panjalarning ustki qismlarida kalta, bo'ynida uzunroq, zich joylashgan.

Harakati: erkin, yumshoq, keng (oqar suvga o'xshatsa bo'ladi).

Kamchiliklari: yuqorida ko'rsatib o'tilgan bandlardan tashqari bo'lgan kamchiliklar hisoblanadi.

Sobiq Sovet davrida «Nemis ovcharkasi» zoti asosida yaratilgan «Sharqiy yevropa ovcharkasi» zoti ham hozirgi kunda qo'llanilmoqda. Ushbu zotning standarti 1964-yil yanvar oyida tasdiqlangan.

Sharqiy yevropa ovcharkasi — o'rta bo'ydan baland, tanasi uzunchoq, kuchli, quvvatga to'la, mustahkam; quruq tuzilishga ega.

Tanasi: mustahkam, yaxshi rivojlangan muskullardan iborat, uzunligi yag'rindagi balandligidan 112—115 foizni tashkil qiladi.

Bo'yni: mustahkam, quruq, o'rta uzunlikda, bosh uzunligiga barobar, bel chizig'iga nisbatan 45 gradusga moslashgan. Terisi yig'masiz.

Yag'rini: erkagida 67—70 sm; urg'ochisida 62—66 sm.

Og'irligi: erkagi 28—34 kg; urg'ochisi 25—30 kg.

Beli: to'g'ri, osilmagan va bukrisimon emas, umurtqa pog'onasi keng, yaxshi rivojlangan va mustahkam.

Ko'krak qafasi: keng va chuqur.

Qorin: o'rta tortilgan.

Oyoqlari: to'g'ri kaftlari kalta, barmoqlari yig'ilgan, yostiqchalari qalin va qattiq, baquvvat tirnoqlari qora. Qo'shimcha barmoqlari olib tashlanadi.

Dumi: o'rta kaltalikda, past qo'yilgan, yengil, qilichsimon qayrilgan.

Boshi: uchli, mustahkam, ammo qo‘pol emas, tana o‘lchoviga mutanosib holda peshonadan tumshug‘iga o‘tishi bilinadi.

Tumshug‘i: peshona chizig‘iga parallel holda, uzunligi bosh uzunligining yarmiga teng, uchli, cho‘zinchoq.

Ko‘zi: cho‘ziqroq, o‘rta, bo‘rtib chiqmagan, rangi qoraroq.

Quloqlari: o‘rta kattalikda, uchlari yengil, o‘tkir, oldinga qaratilgan.

Burun uchi: katta va qora.

Labi: quruq, zichlashgan.

Chakagi: kuchli, tishlashi qaychisimon.

Rangi (tusi): har xil, asosan qoramtir.

Jun qoplami: ustki tuki o‘rta uzunlikda to‘g‘ri, zichlashgan, qattiq, bir-biriga ulangan, tag qismi tuklari ham bir-biriga zich ulangan.

Harakati: erkin, yumshoq, keng (oqar suvga o‘xshatsa bo‘ladi).

Rus ovchi spaniyeli — standarti 1949-yilda tasdiqlangan. U harakatchan, uzun junli, past bo‘yli, tana tuzilishi mustahkam, yaxshi qidirish xususiyatiga ega ovchi it.

Tanasi: mustahkam, quruq.

Bo‘yni: o‘rta uzun, nisbatan past joylashgan, cho‘ziq, baquvvat, yig‘masiz.

Yag‘rini: erkagida 38—44 sm; urg‘ochisida 36—42 sm.

Og‘irligi: erkagi 11—13 kg; urg‘ochisi 8—11 kg.

Beli: to‘g‘ri, mustahkam, keng, baquvvat, yengil bukri.

Ko‘krak qafasi: o‘rta kenglikda, chuqur va uzun.

Qorin: o‘rta tortilgan.

Oyoqlari: quruq, suyakdor, old va orqa oyoqlari to‘g‘ri va parallel, old oyoqlarining uzunligi tana balandligining yarmiga to‘g‘ri keladi.

Dumi: o‘sish joyidan qalin, harakatchan, bel chizig‘iga yaqin.

Boshi: quruq, o‘rta uzunlikda, bosh suyagi keng, oval shaklda, peshonasi yengil bukrisimon.

Tumshug‘i: uzun va keng.

Ko‘zlari: cho‘ziqroq, o‘rta kattalikda, rangi och jigarrang yoki to‘q jigarrang.

Quloqlar: osilgan, uzun, keng chakagiga jipslashgan, uchi yumaloq shaklda. Quloqlari burun uchigacha yetadi.

Burun uchi: keng, asosan qora, jigarrang bo'lishi mumkin.

Labi: quruq, qalin, osilmagan.

Chakagi: tishlashi qaychisimon.

Rangi: qora, jigarrang, sarg'ish; ikki rangli — qora oqishlari bilan, jigarrang oqishlari bilan, sarg'ish oqishlari bilan, ola-bula (чалый); uch rangli — oq dog'lari bilan, qora va jigarrang dog'lari bilan.

Jun qoplami: ustki tuklari uzun, yumshoq, yaltiroq, uzun yoki yengil to'qinsimon, jipslashgan.

Harakati: harakatchan, yumshoq (yugurganda uchayotgan qushga taqqoslash mumkin).

2.4. It zotlarini o'rganish, zotlarning kelib chiqishi, tarqalishi va yo'nalishini aniqlash

It zotlari

Hozirgi davrda ayrim xabarlarga ko'ra yer sharida taxminan 500 mln it hisobga olingan. Shulardan 100 mln itlar bezatki (декоратив) deb hisoblanadi.

Bu itlarning hammasi 400 zotdan ortiqni tashkil etadi. Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi (FCI) tartibi bo'yicha har bir zotga o'zining standarti mavjud.

Olti ming yil ilgari itlar xonakilashtirilgan, ushbu jarayon Shveysariyaning torf itlari xonakilashtirilishi bilan boshlanadi.

Qadimdan itlarning quyidagi asosiy guruhleri bo'lgan: cho'pon itlar — ovcharka, tozi itlar, tozisimon iskovuch itlar, taksalar, dogsimon — qadimgi assiriya dogi, mastif, pekines, yapon xin turidagi mayda itlar.

Hozirgi kunda Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi tomonidan itlarning zotlari 10 guruhga bo'linadi. Bular 1-guruh — cho'pon itlari; 2-guruh — molosslar; 3-guruh — teryerlar, 4-guruh — taksalar; 5-guruh — shpitslar; 6-guruh — quvar itlari; 7-guruh — tozisimon iskovuch itlar; 8-guruh — retriever, spaniyellar; 9-guruh — bezatki itlar; 10-guruh — tozilar. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki rus spaniyeli zoti Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi tomonidan tan olinmagan.


Itlarni foydalanuvchi guruhdan dekorativ guruhga o'tish misoli: 1870-yilda Shveysariya Alp tog'larida joylashgan Avliyo Bernar monastirida monaxlar tog'larda qor tagida qolib ketgan odamlarni topishda yordam beradigan kuchli itlarni yaratishdi. Monastirning nomidan bu itlar zotiga «Senbernar» degan nom berishdi. Havo buzilganda monarxlar itlarni odamlarni izlashga chiqarib yuborishar edi. Itlarning beliga ikkita issiq ko'rpa va idishda rom boylanar edi. Itlar tog' yo'laklarining har bir metrini hidlab, to'rt metr qorning tagida qolib ketgan odamni topib olishar edi. Kuchli oyoqlari bilan qorni kovlab, topilgan odamlarning yuzini tili bilan yalab, keyin shu odamning yoniga yotib uni o'z badani bilan isitar edi. Odam hushiga kelganidan keyin, it odamning yoniga shunday moslashar ediki, belidan ko'rpa va romni olishga qulaylik yaratar edi. Agarda odam shulardan ham foydalana olmasa it monastirga qaytib monaxlarni shu joyga olib kelar edi. Tarixda «Barri» laqabli «Senbernar» zotli itlari to'g'risida aytib beriladi. U o'zining umri mobaynida 40 ta odamning umrini asrab qolgan. Hozirgi davrda «Senbernar» zotli itlar xizmatda yo'q va yillar o'tib o'zining ish sifatlarini yo'qotishgan va shu bilan «Senbernar»lar dekorativ it guruhiga o'tkazildi. Xuddi shunday «Pudel» fransuz zotli iti o'zining ovchi sifatlarini yo'qotib, ovchi it guruhidan dekorativ itlar guruhiga o'tkazildi.



O'rta Osiyo ovcharkalari.



Kavkaz ovcharkalari.



Lobradorlar.



Nemis ovcharkasi.



Koker spaniyellar.

2-AMALIY MASHG‘ULOT — 2 soat

It zotlari va ularni yo‘nalishi bo‘yicha tanlash

Mashg‘ulot maqsadi: It zotlarini aniqlash va ularni xizmat doirasidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tanlash.

Har xil zotga mansub itlarning rasmlari asosida ularning tashqi ko‘rinishi bilan tanishtirish, turli zotlarga mansub hamda eksteryer va konstitutsiyaga ega itlarning tana tuzilishi xususiyatlarini o‘rganib, ularni xizmat yo‘nalishlari bo‘yicha tanlash.

Uslubiy ko‘rsatmalar: Mashg‘ulot o‘quv xonada olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlarning rasmlari va atlaslar bo‘lishi kerak.

Ishchi daftarlarda it zotlari, ularning xizmat yo‘nalishlari va xususiyatlari yoziladi.

Keyinchalik mashg‘ulot it pitomnigi sharoitida davom ettiriladi. Unda har xil zotga mansub bo‘lgan itlar ajratib olinadi va yo‘nalishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli it zotlari aks ettirilgan rasmlar, plakat, albomlar, mulyajlar, videotasvirlar, videoprojektor, kompyuter, tarqatma materiallar.

Topshiriq: Bir guruh itlar orasidan zotiga qarab hayvonni ajratish va xizmat doirasidagi yo‘nalishiga qarab tanlash.

Hozirgi davrda ayrim xabarlarga ko‘ra yer sharida taxminan 500 mln it hisobga olingan. Shulardan 100 mln itlar bezatki (декоратив) deb hisoblanadi.

Bu itlarning hammasi 400 zotdan ortiqni tashkil etadi. Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi (FCI) tartibi bo'yicha har bir zotga o'zining standarti mavjud.

Olti ming yil ilgari itlar xonakilashtirilgan, ushbu jarayon Shveysariyaning torf itlari xonakilashtirilishi bilan boshlanadi.

Qadimdan itlarning quyidagi asosiy guruhleri bo'lgan: cho'pon itlar — ovcharka, tozi itlar, tozisimon iskovuch itlar, taksalar, dogsimon — qadimgi assiriya dogi, mastif, pekines, yapon xin turidagi mayda itlar.

Hozirgi kunda Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi tomonidan itlarning zotlari 10 guruhga bo'linadi. Bular 1-guruh — cho'pon itlari; 2-guruh — molosslar; 3-guruh — teryerlar, 4-guruh — taksalar; 5-guruh — shpitslar; 6-guruh — quvar itlari; 7-guruh — tozisimon iskovuch itlar; 8-guruh — retriever, spaniyellar; 9-guruh — bezatki itlar; 10-guruh — tozilar. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki rus spaniyeli zoti Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi tomonidan tan olinmagan.

Nemis ovcharkasi — o'rta bo'yli, cho'zinchoq va gavgdali, suyak tuzilishi mustahkam, quvvatga to'la, rivojlangan muskullar tuzilishga ega. Itning uzunligi gavgdasining balandligidan 10—17 foiz oshiqroq bo'lishi kerak.

Fe'l-atvori: «Nemis ovcharkasi» mustahkam asab tizimiga ega, unda o'ziga ishonuvchan, tashqi muhitga diqqat, bosiq (jahli chiqqan paytdan tashqari), yengil boshqaruvchan, begona shaxslardan qo'rqmaslik, o'zini himoya qila olish qobiliyati bo'lishi lozim.

Bo'yni: mustahkam va yaxshi rivojlangan muskullarga ega, quruq, o'rta uzunlikda, terisi yig'masiz bo'ladi. Bo'yin gavgdaning boshlanish qismidan taxminan 45 gradus ko'rinishda bo'ladi.

Yag'rini: erkagida 60—65 sm; urg'ochisida 55—60 sm.

Og'irligi: erkagi 30—40 kg; urg'ochisi 22—32 kg.

Beli: mustahkam rivojlangan muskulli, osilmagan va bukrisimon emas, umurtqa pog'onasi keng va yaxshi rivojlangan.

Ko'zlari: o'rtacha, cho'ziqsimon, rangi to'q qora bo'lishi kerak.

Quloqlari: nemis ovcharkasida quloqlar o'rtacha, ularning turishi bir xil balandlikda va tekis, cho'ziqroq ko'rinishda, bosh-

ning o'lchoviga mutanosib holda, uchlari yengil, oldinga qaratilgan bo'ladi.

Ko'krak qafasi: o'rta kenglikda va cho'ziqroq, ko'krakning chuqurligi 45-48 gradusni tashkil etadi.

Qorni: mustahkam, tortilmagan va osilmagan.

Oyoqlari: to'g'ri, kaftlari kalta, barmoqlari yig'ilgan, yostiqchalari qalin va qattiq, baquvvat, tirnoqlari qora rangda. Old oyoqlari parallel. Kurak va yelka bog'lanish burchagi 90 gradusdan 110 gradusgacha.

Dumi: o'rta kaltalikda, yengil, qilichsimon.

Boshi: tashqi ko'rinishi qoziqsimon ko'rinishda, mustahkam ammo qo'pol emas, tana o'lchoviga mutanosib holda, bosh suyagi kengligi va uzunligi taxminan bir xil. Boshning tepa va past jag' qismi yaxshi rivojlangan, mustahkam.

Tumshug'i: tumshuqning uzunligi o'rtacha, to'g'ri, uchli, cho'zinchoq.

Burun uchi: qora.

Labi: quruq, zichlashgan, qora rangda.

Chakagi: kuchli, tishlashi qaychisimon, chakakning tishlashi baquvvat, sog'lom va to'liq bo'lishi kerak.

Tishi: oq rangda 42 dona. Yuqori jag'da 20 ta, pastki jag'da 22 ta. Ular sog'lom va mustahkam bo'lishi kerak.

Rangi (tusi): qora, qizg'ish aralash, ko'krak qismi oqish bo'lishi mumkin, asosan qoramtir-sarg'ish rangda bo'ladi.

Jun qoplami: ustki tuki o'rta uzunlikda to'g'ri, zichlashgan, qattiq, bir-biriga ulangan, tag qismi tuklari ham bir-biriga zich ulangan. Bosh qismi, quloq, panjalarning ustki qismlarida kalta, bo'ynida uzunroq, zich joylashgan.

Harakati: erkin, yumshoq, keng (oqar suvga o'xshatsa bo'ladi).

Kamchiliklari: yuqorida ko'rsatib o'tilgan bandlardan tashqari bo'lgan kamchiliklar hisoblanadi.

Rus ovchi spaniyeli — 1949 yilda standarti tasdiqlangan. U — harakatchan, uzun junli, past bo'yli, tana tuzilishi mustahkam, yaxshi qidirish xususiyatiga ega ovchi it.

Tanasi: mustahkam, quruq.

Bo'yni: o'rta uzun, nisbatan past joylashgan, cho'ziq, baquvvat, yig'masiz.

Yag'rini: erkagida 38—44 sm; urg'ochisida 36—42 sm.

Og'irligi: erkagi 11—13 kg; urg'ochisi 8—11 kg.

Beli: to'g'ri, mustahkam, keng, baquvvat, yengil bukri.

Ko'krak qafasi: o'rta kenglikda, chuqur va uzun.

Qorni: o'rta tortilgan.

Oyoqlari: quruq, suyakdor, old va orqa oyoqlari to'g'ri va parallel, old oyoqlarining uzunligi tana balandligining yarmiga to'g'ri keladi.

Dumi: o'sish joyidan qalin, harakatchan, bel chizig'iga yaqin.

Boshi: quruq, o'rta uzunlikda, bosh suyagi keng, oval shaklda, peshonasi yengil bukrisimon.

Tumshug'i: uzun va keng.

Ko'zlari: cho'ziqroq, o'rta kattalikda, rangi och jigarrang yoki to'q jigarrang.

Quloqlar: osilgan, uzun, keng, chakagiga jipslashgan, uchi yumaloq shaklda. Quloqlari burun uchigacha yetadi.

Burun uchi: keng, asosan qora, jigarrang bo'lishi mumkin.

Labi: quruq, qalin, osilmagan.

Chakagi: tishlashi qaychisimon.

Rangi: qora, jigarrang, sarg'ish; ikki rangli — qora oqishlari bilan, jigarrang oqishlari bilan, sarg'ish oqishlari bilan, ola-bula (чалый); uch rangli — oq dog'lari bilan, qora va jigarrang dog'lari bilan.

Jun qoplami: ustki tuklar uzun, yumshoq, yaltiroq, uzun yoki yengil to'liqinsimon, jipslashgan.

Harakati: harakatchan, yumshoq (yugurganda uchayotgan qushga taqqoslash mumkin).

Itlarni foydalanuvchi guruhidan dekorativ guruhga o'tish misoli: 1870-yilda Shveysariya Alp tog'larida joylashgan Avliyo Bernar monastirida monaxlar tog'larda qor tagida qolib ketgan odamlarni topishda yordam beradigan kuchli itlarni yaratishdi. Monastirning nomidan bu itlar zotiga «Senbernar» degan ism berishdi. Havo buzilganda monarxlar itlarni odamlarni izlashga chiqarib yuborishar edi. Itlarning beliga ikkita issiq ko'rpa va idishda rom boylanar edi. Itlar tog' yo'laklarining har bir metrini hidlab to'rt metr qorning tagida qolib ketgan odamni topib olishar edi. Kuchli oyoqlari bilan qorni kovlab, topilgan odamlarning yuzini

tili bilan yalab, keyin shu odamning yoniga yotib uni o'z badani bilan isitar edi. Odam hushiga kelganidan keyin, it odamning yoniga shunday moslashar ediki, belidan ko'rpa va romni olishga qulaylik yaratar edi. Agarda odam shulardan ham foydalana olmasa it monastirga qaytib monaxlarni shu joyga olib kelar edi. Tarixda «Barri» laqabli «Senbernar» zotli itlari to'g'risida aytib beriladi. U o'zining umri mobaynida 40 ta odamning umrini asrab qolgan. Hozirgi davrda «Senbernar» zotli itlar xizmatda yo'q va yillar o'tib o'zining ish sifatlarini yo'qotishgan va shu bilan «Senbernar»lar dekorativ it guruhiga o'tkazildi. Xuddi shunday «Pudel» fransuz zotli iti o'zining ovchi sifatlarini yo'qotib, ovchi it guruhidan dekorativ itlar guruhiga o'tkazildi.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o'tkaziladi. Talabalarda mavjud bo'lgan, bu sohaga tegishli nazariy va amaliy bilimlarning uzviy bog'liqligi aniqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Zot tushunchasiga ta'rif bering?
2. Yer sharida nechta it zotlari mavjud?
3. Zotning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
4. Tarqalish darajasiga qarab it zotlari qanday tiplarga bo'linadi?
5. Zot uchun iqlimlashish xususiyati nimada?
6. Nemis ovcharkasi it zotiga tavsif bering.
7. Rus ovchi spaniyeli it zotiga tavsif bering.
8. Xalqaro Kinologiya Federatsiyasi tomonidan itlarning zotlari nechta va qanday guruhlarga bo'linadi?
9. O'zbekistonda qanday it zotlari xizmat uchun qo'llanadi?
10. Iskovuchlik xizmati uchun tanlashda itning qanday xususiyatlariga e'tiborni qaratish kerak?
11. Qo'riqlash xizmati uchun tanlashda itning qanday xususiyatlariga e'tiborni qaratish kerak?
12. Qorovullik xizmati uchun tanlashda itning qanday xususiyatlariga e'tiborni qaratish kerak?

3-MAVZU. ITLARNING KONSTITUTSIYASI VA EKSTERYERI (2 SOAT)

3.1. Itlarning konstitutsiyasi haqida tushuncha

Tana tuzilishi (konstitutsiya) — organizmning nasl qoldiruvchanlik va individual rivojlanishiga sabab bo'ladigan anatomik va fiziologik xususiyatlarning yig'indisi **konstitutsiya** deb ataladi. Hayvonning tana tuzilishi uni parvarishlash, oziqlantirish va asrash sharoitlarining ta'siri natijasida tamomila shakllanadi va nasldan-naslga meros bo'lib qoladi. Shuningdek, iqlim sharoitlari, itlardan foydalanish xususiyatlari ham o'z navbatida hayvon tashqi tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, tog'larda tarqalgan kavkaz itlari aslida semiz va dag'al bo'lib tog'larga tushish bo'lgan dasht va cho'l hududlarida ancha ozg'in va bo'sh holatga o'zgargan. Bundan tashqari, har bir zot vakillari ichida yirik, xomsemiz, qo'pol jussali hamda epchil, bo'sh, oriqlik va nozik qomatli itlarni uchratish mumkin.

Itlarni ko'plab kuzatishlar asosida professorlar M.F. Ivanov va P.I. Kuleshov tomonidan hayvonlarning tana tuzilishi turlarining tasnifi ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: xomsemiz, dag'al, nozik, pishiq va mustahkam.

Xomsemiz tipli tana tuzilishi — hosil qiluvchi reflekslarning sustligi, tana muskullarining go'shtdorligi, yaxshi rivojlangan va namxush labli hamda keng va past boshlilik bilan tavsiflanadi. Ularning bo'yni ko'p hollarda salmoqdor, keng ko'krakli, qorni osilgan, harakatlari sust va sekin, terisi burmali, ya'ni silliq emas. Bunday itlar asosan semirishga moyil bo'ladi. Tananing tuklanishi dag'al jun va tivitlardan tashkil topgan. Oyoq bo'g'imlari bo'sh. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayoniga nisbatan ustun bo'ladi (senbernarlar — juni uzun, yirik va baquvvat itlar).

Dag'al tipli tana tuzilishi — tormozlanish jarayoni va qo'zg'alish jarayonlari o'zaro muvozanatlashgan bo'ladi. Bu tipdagi itlarning muskullari va suyaklari salmoqdor, boshi to'ymoq tumshuqli, lablari qalin va quruqlik, bo'yni kalta, ko'kragi keng, qorni sezilar-sezilmas tortilgan, oyoqlari kalta boldirli, terisi qalin va tarang tortilgan, bo'yin qismidagi terilari esa burmalangan. Tuk qoplami dag'al bo'lib, yaxshi rivojlangan jun va tig'iz tivitlardan iborat.

Dag'al tipli itlar chidamliligi va tez moslashuvchanligi bilan tavsiflanadi (Kavkaz, O'rta Osiyo ovcharkalari va Shimoliy Sharqning chanaga qo'shiluvchi layka itlari va boshqalar).

Mustahkam tipli tana tuzilishiga ega itlarning oliy nerv faoliyat turi vazmin va serharakat bo'ladi. Bunday itlarning suyaklari yaxshi rivojlangan, muskullari quruq va bo'rtib chiqqan bo'ladi. Hayvonning terisi o'rtacha qalinlikda, boshi ponasimon, cho'zinchoq, peshonasi yassi, lablari quruq, qoq bo'yin, chuqur ko'krakli, qorni ko'krak chizig'idan yuqoriroqda va tortilgan, oyoqlari uzun boldirli hamda sakrash bo'g'imining burchaklari aniq aks etgan bo'ladi. Tanasining jun qoplamida silliq va kalta tuklardan tortib, uzun va qattiq tuklarga turlanish kuzatiladi (tozilar, dog, Sharqiy Yevropa ovcharkalari, bokser va boshqalar).

Pishiq tipli tana tuzilishiga ega itlarning oliy nerv faoliyat turi tiyiqsiz harakatchan. Suyaklari biroz ingichkalashgan, ammo juda mustahkam, tananing muskullari ham yupqalashgan bo'ladi. Terisi mustahkam va elastik, boshi nisbatan ensiz bo'lib, sezilar-sezilmas holda tumshuqqa o'tganligi kuzatiladi. Itning lab-lunj-lari quruq, bo'yni tik tutilgan, ko'kragi chuqur, qorni ichkariga tortilgan, shuningdek jag'lari bir-biriga yaqin jipslashmaydigan hollari ham uchraydi. Itlar ko'pincha uzun oyoq yoki ba'zi hollarda esa to'rtburchaksimon ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Hayvonning sakrash bo'g'inlari aniq ifodalangan. Tanasining jun qoplami turli-tuman ravishda tuklangan (doberman, kolli, poynter va boshqalar).

Nozik tipli tana tuzilishli — itlar tez asabiylashish va yuqori darajadagi qo'zg'aluvchanlikka moyil bo'ladi. Sun'iy tanlash va nasl buzilishi bilan chambarchas bog'liq holda, aksariyat itlarda pakana bo'yilik va shunga o'xshash me'yordan chiqish hollari ham uchraydi. Itlarning boshi yumaloq, sharsimon tuzilishda, ko'zlari bo'rtib chiqqan, yuz suyaklari esa ayrim hollarda shu qadar kalta va zaif rivojlangan bo'ladiki, go'yo hayvonning pastki jag'i oldinga chiqib turganday tuyiladi. Itlarning terisi yupqa, tanasining jun qoplami uzun va jingalak (xonaki baroq it) tuklardan tortib, taqir (xonaki tozilar, meksikaning junsiz itlari) tuklilargacha turlanishi kuzatiladi. Yuqorida qayd etilgan itlarning tana tuzilishi tiplari har doim ham sof holda uchrayvermaydi.

Juda ko'p hollarda mazkur jonivorlar aralash tipli tuzilishga ega bo'lib, ular birinchi navbatda ustunroq tiplar, masalan: pishiqdag'al, dag'al-mustahkam, bo'sh-xomsemiz, xomsemiz-bo'sh kabi turlar ko'rinishida bo'ladi.

Zot turi tushunchasi deganda, hayvonga ilk nazar tashlaganda mazkur it zoti haqidagi mukammal tasavvurga qaysi darajada yaqinlashishi, ya'ni uning zot turi kuchli yoki kuchsiz darajada ifodalanishi bilan belgilanadi. Shuning bilan birgalikda tur jinsiy demorfizm, ya'ni hayvonning erkak it yoki urg'ochi it sifatida farqlanishini ham ifodalaydi. Erkak it — erkaklik turiga, urg'ochi it esa urg'ochilik turiga ajratilishi lozim. Jinsiy turga nomuvofiklik esa hayvonlarda kuzatiladigan nuqsonga kiradi.

Quvvatlilik — hayvon tanasidagi suyaklar va muskullarning kuchli rivojlanganligini ifodalaydi. Itlarning skeleti dag'al, mustahkam rivojlangan, zaif bo'lishi mumkin. Aynan shundan kelib chiqqan holda itlar vazmin, baquvvat, mustahkam va zaif sifatida tavsiflanadi. Agar it insonda vazminlik taassurotini qoldirsa, demak u vazmin hisoblanadi, aks holda esa u epchil itlar sirasiga kiritiladi.

Nasldorlik — it o'zining zot turi bilan umumiy taassurotini tavsiflaydi, qaysiki bu taassurotni bizning ongimizda itlar o'zlarining zot turlariga ko'ra shakllantiradi. Bu kabi belgilar orqali itlar zotdor, oddiy, haddan tashqari rivojlangan (odatda nozik skeletli) hamda dag'al turlarga bo'linadi.

3.2. Konstitutsiya tiplarining itlar xarakteri bilan bog'liqligi

Itlarning oliy asab faoliyati turlari ularning konstitutsiyasi, ya'ni hayvonning tana tuzilishi, uni parvarishlash, oziqlantirish va asrash sharoitlarining ta'siri natijasida tamomila shakllanadi va nasldan-naslga meros bo'lib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda itlarda quyidagi oliy asab faoliyati turlari farqlanadi.

Tinimsiz (xolerik) turi — bu tur o'zini-o'zi to'xtata olmaydigan, juda jahldor, nerv jarayoni harakatchan, kechayotgan hodisaga o'zini to'xtatib tura olmaydi. Hidni sezish qobiliyati past ammo sharpani tez sezadi, shuning uchun bunday itlardan qorovullik joylarida foydalansa bo'ladi. O'rgatishda bu turdagi itlar uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi, lekin yaxshi o'rgatilsa, bu itlar

ko'p harakatchan bo'lib, charchamaydigan, yaxshi xizmat qiladigan itlar turkumiga kiradi. Bu turkumdagi itlar o'ziga xos xarakterda bo'lgani uchun va asab tizimi yomonligi sababli ko'proq asab kasalligiga duchor bo'ladilar.

Harakatchan turi (sangvinik) — bu turdagi itlarning asab tizimlari kuchli, muvozanatli, tez harakatchan, atrof-muhit ta'sirlarini oddiy darajada sezadi, yaxshi muomalali, refleksi ijobiy, buyruqni bajarishga yaxshi o'rganadi, hid sezishi yaxshi. Bu turdagi itlarni o'rgatish oson.

Inertli (flegmatik) — asab tizimi kuchli, muvozanatli, lekin harakatsiz va yalqov itlar guruhidir. Ijobiy va tormoz reflekslari asta-sekin ishlab chiqiladi, ammo ko'p vaqt yo'qotmaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan itlardagidek ularning ham asab tizimi kuchli hisoblanadi, shu turga kiruvchi itlar kuchli, chidamli, asab tizimi va mehnatsevarligi bilan boshqalardan farq qiladi.

Ta'sirchan turkum (melanxolik) — asab tizimi kuchsiz, ayniqsa qo'zg'alishi, harakatga kelishi va muvozanatsizligi, shartli reflekslari kechikib ishlaydi, qisman atrof-muhitdan ta'sirlanishi tufayli tormozlanish hosil bo'ladi. Bu turdagi itlar ko'proq qo'rqqolikka duch keladi, bu hol itni yoshligida noto'g'ri tarbiyalanishidan kelib chiqadi. Asab tizimi kuchsiz bo'lgan itlarga biron narsani o'rgatish naf bermaydi. Ular tezda kasallik (nevroz)ka duchor bo'ladilar. Shartli tormozlanish reflekslarini yoki boshqa muhim buyruqlarni bajarish ko'nikmasini bunday itlarga juda ehtiyotkorlik bilan, pog'onama-pog'ona, asta-sekin ishlab chiqish kerak. Jumladan, narsani topish, iz yoki yukni, hid orqali odamni topish kabi mashqlar o'tkazib turilishi kerak.

Masalan, bir ko'nikmani o'rgatish uchun it har doim o'rgatuvchining chap oyog'i oldida, to o'rgatuvchi «Aport» degan buyruqni bergunga qadar turishi kerak. O'rgatuvchi biror-bir narsani irg'itsa, it shuni ko'rib buyruqqa asosan aynan shu narsani olib kelib, o'rgatuvchiga berishi kerak. Tajribasiz o'rgatuvchi bu turdagi itga nisbatan qo'pol xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

Masalan, o'rgatuvchi itga yo'qolgan narsani yoki izi orqali hidlab odamni topib kelishni buyuradi. It bir-ikki marta to'g'ri topib keladi. Lekin o'rgatuvchi yana uch-to'rt marta itga shu vazifani ketma-ket buyuraveradi. It keyingi safarda biroz xatoga yo'l

qo'ysa bu o'rgatuvchining xatosi bo'lishi mumkin. Itga birdaniga ko'p ish buyurish juda xato ish, asta-sekin, oz-ozdan, chegara-langanda holda ish tutish lozim.

Bosh miyadagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining orasidagi munosabatlar oliy asab faoliyati turlarining bo'linishiga asosdir (1-jadval).

1. Ushbu jarayonlarning kuchi.

2. Bosiqlik: $Q > T$; $Q \geq T$; $Q \leq T$; $Q < T$; $Q - T$ (Q — qo'zg'alish jarayoni, T — tormozlanish jarayoni).

3. Harakatchanlik (tezlik bilan yoki sekin bir jarayondan boshqa jarayonga o'tishi).

1-jadval.

OAF turi	Asab jarayonlarining kuchi	Bosiqlik	Harakatchanlik
Xolerik	Kuchli	Bosiq emas, $Q > T$	Tinimsiz
Sangvinik	Kuchli	Bosiq, $Q \geq T$	Harakatchan
Flegmatik	Kuchli	Bosiq, $Q \leq T$	Inertli
Melanxolik	Kuchsiz	Bosiq emas, $Q < T$	Harakatsiz

Tajribalar ko'rsatishicha, harakatchan itlar bilan ishlashda asta-sekin, bardoshlilik bilan itni o'rgatib borish kerak. Masalan, itga bir holatda turishni birinchi kunda 3—5 soniya o'rgatish kerak, bora-bora chidash tormoz refleksi vaqtini oz-ozdan oshirib, rejadagi chidash normasiga yetkazish kerak. Tez harakatchan itlarga o'z vaqtida va ko'proq kuchli mexanik usullarni qo'llash lozim bo'ladi, bu holda it keraksiz yomon qiliqlarini kamaytiradi va bora-bora yo'q qiladi. Masalan, «yonga yurish», «yurish tezligini susaytirish», «ozuqa yeyishdan bosh tortmoq» kabi buyruqlarni oddiy usulda ishlab chiqish qiyin, bu turkumdagi itlar ularni bajarasliklari mumkin. Bu vaqtlarda it bo'yniga bog'langan zanjirni qattiq tortib qo'yib yuborish kerak va o'rgatuvchi bu usulni ko'proq takrorlab, shu buyruqni it bajarishiga harakat qilishi kerak.

Bu turkumdagi itlar elektr toki ta'siri, yorug'lik nuri, qattiq ovoq va kutilmagan zarba kabi g'ashiga ta'sir etuvchi qo'zg'atgichlarga nisbatan chidamli bo'lib, ko'p vaqt mobaynida og'ir va qiyin vazifalarni bajarish qobiliyatiga egadir. Bunday itlarni o'rgatish jarayonida nihoyatda ehtiyotkorlik va qunt bilan ishlash lozim. Amaliy mashqlarda itga jiddiy, pog'onama-pog'ona, doimiy ravishda, individual va malakali yondashib ishlasa yoki uning holati o'rganib borilsa eng yaxshi kutilgan natijaga erishish mumkin. Agar o'rgatuvchi bu guruhdagi itlarning oliy asab faoliyatlarini nazarga olmasdan katta kuch berishni talab qilib, tormoz jarayoniga ta'sir etaversa ular asab (nevroz kasalligi) xastaligiga duchor bo'lib, hafta va oy davomida bu xastalik zo'rayib ketishi mumkin. Bunday itlar faqat qidiruv bo'limlarida ishlatishga tavsiya etiladi.

Haddan tashqari harakatchan itlarni esa qidiruv xizmatiga ham o'rgatib bo'lmaydi.

Asab tizimsi juda kuchli, harakatchan turdagi itlar yaxshi va tez o'rganuvchan, ijobiy shartli reflekslarga ega bo'ladi. Tormoz reflekslari tez ishlab chiqiladi va shu holatda mustahkam saqlanadi.

Bu turdagi itlar o'rgatilgan vaqtda hech qanday qiyinchiliksiz ko'nikma hosil qiladi va har qanday ko'ngilsiz, noo'rin qiliqlarini tezda yo'qotadilar. Bular chidamli, hidni sezuvchan, ammo o'rgatish jarayonida umumiy qoidalar buzilganda yoki bosqichmabosqich o'rganish jarayonida qiyinchiliklar yuz berganda itning ishlash sifati pasayadi va asab tizimida xastalik paydo bo'ladi.

Itlarning tashqi xulq-atvori, turlari (kamharakatchan, xotirjam, qo'zg'aluvchi, passiv-qo'rqqoq)

Kamharakatchan itlarni o'rgatishda ularning individual xususiyatlarini kam harakatchanligini, asab tizimi aktivligi ko'tarilib va pasayib turishini, keskinlik bilan teskari harakat sezgirliги va shu kabi omillarni nazarga olgan holda bu turkum itlarga individual yondashib o'rgatish kerak.

Masalan, bunday xarakterdagi itlarga buyruq berishda oradagi vaqt intervali (muddati) ko'proq bo'lishi shart. «Fu» buyrug'idan keyin birdaniga «Fass» buyrug'i yoki teskarisiga berilganda, chunki bu buyruqlar bir-biriga teskari bo'lgani sababli it ularni tezda tushunib olmaydi. Yoki ikkinchi holatda

«O'tir» so'ngra birdaniga «Yot» yoki teskariga berilgan buyruqlarni it bajara olmasligi mumkin. Ya'ni ikki xil buyruqlar orasida yetarlicha vaqt berilish lozim. It buyruqni sekin bajarganligi yoki boshqa kamchiliklari uchun uni jazolamasdan yaxshi munosabatda bo'lish, itga baqirmaslik, o'rgatuvchi asabini buzmasdan o'zini oddiy holatda tutishi kerak. Bu turkumdagi itlar buyruqni juda sekin bajarganliklari uchun o'rgatuvchi va uning shogirdi tomonidan tazyiqqa uchrab, badaniga urishlar og'ir shikast yetkazadi. Natijada it qo'rqqoq va passiv bo'lib qoladi, o'rgatuvchilarga g'azablanib qaraydi. Bunday itlarning hid sezish qobiliyati boshida past bo'ladi. Bora-bora ular hidni yaxshi seza boshlagach shartli reflekslari aniq va xatosiz ishlaydi.

Flegmatik turdagi itlarni tarbiyalash va o'qitish uchun epchil, chaqqon, yaxshi malakali o'rgatuvchilarga berish kerak, shundagina itlar yaxshi o'zlashtirib, o'z vazifalarini tez va xatosiz bajarishni mukammal o'rganadi.

Asab tizimi kuchli, kam harakatli, kuchiz, sezgisi past itlarni uchratish mumkin. Bu turdagi itlarni o'rgatish haddan tashqari qiyin. Bunday itlar himoyalash, qidiruv xizmatlari, chegara bo'limlari va qorovul postlarida ishlash uchun noloyiq hisoblanadi.

Ma'lumki, qidiruv (izidan va hididan izlab topish) va qorovullik xizmatlari uchun malakasi yaxshi itlarni o'rgatish maqsadida maktablarda aniq o'quv uslublari va o'rgatish qoidalari bo'lishi shart. 10—12 ta itlardan tashkil qilingan kichik bir guruhda ham har xil turdagi itlar uchraydi. Bular oliy asab faoliyati reaksiyasi va boshqa bir qancha xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Ularning yoshlari har xil bo'lganligi sababli o'rgatish ham ancha qiyin kechadi, yosh itlarning asab tizimi yetarli taraqqiy etmagan, qo'rqqoq bo'lishi sababli o'rgatishga ko'proq 1—2 yoshli itlar olinadi. Ba'zan yosh va katta yoshdagi itlar ham o'rgatishga tanlab olinadi. Har xil yoshdagi itlarga individual yondashish, mexanik harakatlarni esa juda ham ehtiyotkorlik bilan ishlatish zarur. Badanini og'ritib qo'zg'atuvchi mexanik ta'sirlar itlarni passiv himoya reaksiyasiga o'tishga majbur qiladi. Yosh itlar taqlidiy uslubga tez o'rganadilar. Shuning uchun (to'siqdan o'tish, jahl-

dorlikni rivojlantirish, apportirovka va boshqalar) kabi uslublarni o'rgatish mumkin. Ayniqsa, yosh itlarning harakatchanligiga ko'proq e'tibor berish lozim. Yosh itlarni chidamlilikga o'rgatish va malakasini oshirishga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. 2 yoshdan oshgan itlarni o'rgatishda bir necha xususiyatlarni hisobga olish kerak: bunday itlarda yomon, keraksiz, yoqimsiz reflekslar mavjudligi ma'lum bir ko'nikmalarga o'rgatishda qiyinchiliklar keltirishi mumkin.

3.3. Itlarning eksteryeri, har xil zot va yo'nalishdagi itlarda eksteryer tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari


Tashqi tuzilish (eksteryer) deb hayvonning tashqi qiyofasi, ya'ni itning sirtqi ko'rinishi bo'yicha aniqlanadigan tuzilishga aytiladi. Kinologlar itlarning tashqi tuzilishini mutanosiblik va hajm ko'rsatkichlari, nasldorlik va jins turi hamda it tanasining turli qismlarini alohida bayon etib ifodalash orqali bir butun tavsifiy tizim asosida aniqlashadi.

Kinolog hakamlar singari itlarning egalari ham jonivorlarning qaddi-qomati tavsiflanadigan atamashunoslik ilmini mukammal bilishlari talab etiladi (1-rasm).

Itlar ko'rgazmasida hayvonlarni tekshiruvchi va ko'rikdan o'tkazuvchi mutaxassis (ekspert) asosan qanday ko'rsatkichlarga o'z e'tiborini qaratadi? Bu eng avvalo *hayvon jussasining tuzilishidir*. U nomutanosib, mutanosib, novcha, pakana va o'rtamiyona (standart hisobida) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, itlar yoshi o'tgan (belgilangan standartdan yuqori yoshda) yoki yoshi yetmagan, ya'ni cheklangan minimal standartdan kichik bo'lishi ham e'tiborga molikdir.

Shuningdek, itlarning tashqi qiyofasini baholashda tana shaklining mutanosibligi ham aniqlanadi va unga ko'ra itlar uzun oyoq, mutanosib, kalta oyoq yoki bo'ksasi baland bo'lishi ham mumkin.

Itshunoslikda jonivorning tana tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni ifodalovchi quyidagi indekslar (ko'rsatkichlar) juda ko'p hollarda qo'llaniladi:



1-rasm. Itning tuzilishi:

- 1 — ensa boʻrtmasi; 2 — peshona; 3 — peshonadan tumshuqqa oʻtish joyi;
 4 — burun usti; 5 — burun uchi; 6 — tumshuq; 7 — lablar; 8 — yonoq;
 9 — tomoq; 10 — boʻyin; 11 — koʻkrakning old qismi; 12 — yagʻrin;
 13 — orqa; 14 — bel; 15 — sagʻri; 16 — chot; 17 — qorin; 18 — qovurgʻalar;
 19 — koʻkrak qafasi; 20 — koʻkrak; 21 — yelka; 22 — yelka-kurak birikmasi;
 23 — tirsak; 24 — bilak; 25 — bilaguzuk; 26 — kaft; 27 — oldingi oyoq pan-
 jasi; 28 — barmoqlar; 29 — tirnoqlar; 30 — son; 31 — tizza; 32 — boldir;
 33 — sakrash boʻgʻimi; 34 — kaft; 35 — sirtlon barmoq; 36 — orqa oyoq pan-
 jasi; 37 — barmoqlar; 38 — tirnoqlar; 39 — dum.

— *suyakdorlik indeksi* — it panja oʻzagi aylanasing uzunligi bilan yagʻrin balandligining oʻzaro nisbati. Uning asosida suyaklarning (skelet) rivojlanish koʻrsatkichi aniqlanadi:

Panja aylanasing uzunligi x 100

Yagʻrin balandligi

— *uzun oyoqlilik indeksi* — it oyoqlari uzunligi yagʻrinning umumiy balandligiga nisbati. Itlarning nisbiy uzun oyoqliligini koʻrsatadi:

Oldingi oyoqlarning tirsakkacha boʻlgan uzunligi x 100

Yagʻrin balandligi

— *koʻkrak indeksi* — it koʻkragining kengligi hamda chuqurligining oʻzaro nisbati. Koʻkrakning nisbiy rivojlanishini koʻrsatadi:

Koʻkrak kengligi x 100

Koʻkrak chuqurligi

— *yiriklik indeksi* — it yagʻrinining balandligi bilan koʻkrak aylanasi uzunligining oʻzaro nisbati. Tananing nisbiy rivojlanishini ifodalaydi:

$$\frac{\text{Ko'krak aylanasing uzunligi} \times 100}{\text{Yag'rin balandligi}}$$

— *uzun boshlilik indeksi* — it yagʻrinining balandligi va bosh uzunligining oʻzaro nisbati. Boshning nisbiy uzunligini ifodalaydi:

$$\frac{\text{Bosh uzunligi} \times 100}{\text{Yag'rin balandligi}}$$

— *keng peshonalilik indeksi* — it boshining nisbiy kengligi:

$$\frac{\text{Peshona kengligi} \times 100}{\text{Bosh uzunligi}}$$

Gavda hajmi indeksi — tana balandligi va uzunligining oʻzaro nisbati (koʻkrak-yelka boʻgʻinining old boʻrtmasi va quymuch boʻrtigʻi oʻrtasidagi masofa). Hayvon tana tuzilishining mutanosibligini ifodalaydi:

$$\frac{\text{Tananing qiyalama uzunligi} \times 100}{\text{Yag'rin balandligi}}$$


Agar hajm koʻrsatkichi 100 ga teng boʻlsa it tanasining balandligi va uzunligi mutanosib, yaʼni hajmi toʻrtburchak (kvadrat) boʻladi. Bundan tashqari, itlar tanasining hajmi qisqargan, uzaygan, choʻzilgan shakllarda ham boʻlishi mumkin.

Itlarning tana tuzilishini koʻz orqali chamalab shuningdek, hayvonlarni maxsus oʻlchov asboblari: zoomuhandis sirkuli, oʻlchov tayogʻi va lentasi yordamida oʻlchab xolis ravishda baholash ham mumkin.

Odatda ikki kishi itning oʻlchamlarini oladi, uchinchi kishi esa olingan natijalarni daftarga qayd etib boradi. Ulardan biri itning egasi boʻlishi kerak. Hayvon oʻzini yengil his etishi uchun egasi hamisha itning yonida boʻlishi lozim. Itning dastlabki oʻlchamlarini olishda, ishni santimetrli lenta va sirkuldan boshlash tavsiya etiladi. Chunki, mazkur asboblarni jonivorlarni unchalik ham bezovtalantirmaydi.

Lenta yoki sirkul yordamida it tumshug'ining uzunligi — ko'zlarning ichki burchaklarining chizig'i bo'yicha, ko'z kosasidan burunning oxirgi nuqtasigacha (3-rasm. 9, 10); hayvon peshonasining uzunligi — ko'z kosasidan ensa bo'rtmasigacha (3-rasm. 10, 11); boshining uzunligi — ensa bo'rtmasidan to'g'ri chiziq bo'ylab burunning bo'rtmasigacha (3-rasm. 9, 11) bo'lgan masofa orqali o'lchanadi. It boshining kengligini o'lchashda sirkul yordamida boshning eng kengaygan qismida, peshona markazi bo'ylab, it quloqlarining old yonida, yonoqlaridan boshlab o'lchanadi (3-rasm. 16, 17).

Lenta yordamida ko'krak aylanasi uzunligini — kuraklar ostidan ko'krak qafasi bo'ylab (3-rasm. 14), oldingi oyoqlar uzunligini — it tirsagidan to'g'ri yo'nalish bo'ylab yergacha (3-rasm. 7, 8), panja o'zagi aylanasi bilaguzuk bo'g'inining pastki va beshinchi barmoq asosining yuqori qismidan (3-rasm. 15) o'lchanadi. Yag'rin (3-rasm. 1, 2) va dumg'aza balandligi (3-rasm. 4) o'lchov tayog'i orqali o'lchanadi. Shuningdek, tayoq yordamida tananing qiyalama uzunligini — yelka suyagining old bo'rtmasidan quy-much bo'rtmasigacha bo'lgan masofa orqali (3-rasm. 5, 6), ko'krak kengligini esa old tomondan yelka-kurak bo'g'inlari o'rtasidan (3-rasm. 18, 19) o'lchanadi.



3-rasm. Itning o'lchamlarini olish.

Ko'krak uzunligi ham o'lchov tayog'i yordamida quyidagicha aniqlanadi: asbobning qo'zg'almas qismini ko'krakning pastki qismiga qo'yib siljiydigan qismini esa, ko'krak ortidan yag'rin ustiga tushiriladi (3-rasm. 13, 12).

Itlarning junlari — o'z tuzilmasiga ko'ra qayrilgan, to'fqinsimon, to'g'ri, yoysimon yoki aylanasion, kalta, uzun, qattiq, ipaksiimon, yumshoq bo'lishi mumkin. Ushbu belgilarga muvofiq itlar kalta junli, o'siq junli va dag'al junlilarga bo'linadi. Bundan tashqari, oraliq o'rinli jun tipiga ega itlar ham uchraydi.

Jun qoplami tivit va o'zakli yoki qoplama tuklardan tashkil topgan. Itlar tanasining ayrim joylarida ancha uzun jun tolalari chiroyli va serhasham bo'lib, yag'rin va bo'ynida «yol»ni, orqa oyoqlarida «ishtoncha»ni, oldingi oyoqlarida «taram»ni, qorin chizig'i bo'ylab «ko'ylak»ni, dumning pastki qismida esa «sharshara»ni hosil qiladi.

Qoshlari dag'al junli zotlarda tavsifiy belgilarni o'zida ifoda etib, kuchli yoki kuchsiz rivojlangan, yaqqol yoki kam ifodalgan, sezilarli yoki sezilsiz bo'lishi mumkin.

Soqol faqatgina dag'al junli it zotlarida uchrab, yaxshi, o'ta kuchli yoki kam rivojlangan bo'lishi mumkin.

Rangi bo'yicha itlarning jun qoplami bir, ikki yoki uch xildagi tushlarda bo'lishi mumkin. Teridagi pigmentlar miqdori quyosh nuri, ratsionining to'yimliliigi, shuningdek parvarishlash hamda itlarni yuvintirishda ishlatiladigan ishqoriy modda turiga ham bog'liq bo'ladi.

Oq rangli itlarning juni pigmentlanmagan, ammo burni, qovoqlari, lablarining chetlari pigmentlangan hamda ko'zning qorachig'i ranglangan bo'lishi lozim. Albinos hayvonlarda esa yuqorida qayd etilgan joylar butunlay pigmentsiz bo'ladi.

To'q kulrang (bo'rinikisimon) — to'q sariq rang. Bu tushdagi itlarda belning uzunasi bo'ylab tasmasimon chiziq o'tadi.

Bu tushdagi itlarning jun tolalari pigmentsizlanmagan bog'lam orqali turli bo'laklarga bo'linib, har xil rang-baranglikga ega: ildizi sariq, o'rta qismi och rang, uchlari esa qoramtir. Agar to'q kulrang tusli tuklar malla yoki qoramtir uchli bo'lsa, bunday itlarni qo'ng'ir itlar deb atashadi.

Bulardan tashqari quyidagi turdagi ranglar uchraydi: ko'kimtir rang (sichqonlarnikisimon). U ikki xil tushda — och kulrang va to'q kulrang (deyarli «ho'l asfalt» rangida) bo'ladi.

Malla rang (shokoladsimon) — och yoki to‘q ranglarda bo‘lishi mumkin.

Jabduqsimon ranglanish — asosan malla, kulrang tusdagi bosh, quloqlar, bo‘yin qismidagi dog‘lar va yelkani qoplovchi rang-barangliklardan iborat.


Yo‘lbarssimon (yo‘lbars rangini eslatuvchi) ranglanish. Asosiy rangda (sarg‘ish, kulrang, qo‘ng‘ir, sariq) to‘q ko‘ndalang chiziqlar mavjud. Standart bo‘yicha aksariyat itlar to‘q rangga ega bo‘ladi.

Marmarsimon ranglanish — asosi oq yoki oqish tusda bo‘lib, unda xolga o‘xshamagan noto‘g‘ri shakldagi mayda dog‘lar sochilib joylashgan. Namunada bu itlarning oyoqlari va bo‘ynida dog‘lar uchramaydi.

Xoldor itlar — asosiy rangi oq (yoki oqish) bo‘lib, unda butun tana bo‘ylab xol va dog‘lar mavjud bo‘ladi.

3.4. Tana qismlarida uchraydigan nuqsonlar, ularni bartaraf etish yo‘llari


Harakatlanish mexanikasi itlar uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Ko‘rgazmalarda nafaqat it oyoqlarining shakli va muskullarining rivojlanish darajasi, balki tik turganda hamda harakatlanganda oyoqlarini tutishi ham baholanadi, chunonchi itlar harakatlanganda oyoqlaridagi nuqsonlar yoki ustunliklar yaqqol namoyon bo‘ladi.



4-rasm. Oldingi oyoqlarning tutilishi: old tomondan ko‘rinish: 1 — me‘yorda; 2 — maymoq; 3 — yoyilgan; yon tomondan ko‘rinish: 1 — me‘yorda, bur-chaklari to‘g‘ri shakllangan; 2 — qiya; 3 — to‘g‘ri yelka.

Undan tashqari old oyoqlar qisqa, keng, me'yoriy, orasi ochilgan, maymoq, yoyilgan, to'g'ri yoki noto'g'ri shakllangan burchakli bo'lishi mumkin.

Orqa oyoqlarini tutishi (5-rasm) me'yorda, nuqtasimon, qilichsimon, quymich chiziqlaridan ortda tutilgan, sakrash bo'g'imlarining bir-biriga yaqin tutilishi (sigirlarnikisimon), keng, qisqa, to'g'ri yoki noto'g'ri shakllangan burchakli bo'lishi qayd etiladi.



5-rasm. Orqa oyoqlarning tutilishi:

Yon tomondan ko'rinish: 1 — me'yoriy; 2 — to'g'ri; 3 — qilichsimon.
Orqadan ko'rinish: 4 — keng; 5 — yoyilgan; 6 — me'yorda; 7 — sakrash bo'g'imlarda bir-biriga yaqin tutilgan; 8 — yumaloq; 9 — tor.

Qadam tashlashi mayda, uzun, keng, yengil, prujinasimon, beo'xshov turlarga ajratiladi. Yo'rg'alashi va sakrab chopishi erkin, qimtingan, yengil, mayda, mayin, o'ynoqi, beo'xshov bo'lishi mumkin. Yo'rg'alash deganda itlarning notabiiy harakatlaniishi tushunilib, unda bir tomondagi oldingi va orqa oyoqlar bir vaqtning o'zida ilgariga tashlanadi.

Ko'rgazmalarda e'tiborga olinadigan itlar tavsifi jo'shqin, g'ayratsiz, to'g'ri, ayyor, mehribon, jahldor, tinib-tinchimas, yuvvosh, dadil, qo'rqoq, ishonuvchan va shubhalanuvchi bo'ladi.

3.5. Itlarning konditsiyasi

Konditsiya — itning jismoniy holatini ifodalaydi. Konditsiya turlari yaxshi, o'rta, ozg'in, qoniqarsiz, zavodga taalluqli, ishchi, semiz va ko'rgazmalilarga bo'linadi.

Zavod tipidagi, ya'ni nasldor konditsiya hayvonning suyaklari va muskullari yaxshi rivojlanganligi, yetarlicha semizligi va junining yaxshi holatda ekanligi bilan xarakterlanadi. Nasldor hayvonlar ana shunday konditsiyada bo'lishi kerak.

Ishchi konditsiyasi hayvonning semizligi o'rtacha va unumdorligi yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Xizmat itlari odatda shunday holatda bo'ladi.

Ko'rgazmaga qo'yiladigan konditsiyadagi hayvonlar zavod konditsiyasiga qaraganda ancha semiz bo'lib, tashqi ko'rinishining ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari sinovlar uchun tayyorlanadigan, mashq qildiradigan konditsiyasi ham xosdir. Bunday konditsiya ularning o'rtacha semizlikda, shunchalik qobiliyatida ifodalanadi, bunga esa tegishlicha boqish, har kuni mashq qildirib turish yo'li bilan erishiladi.

Muskullar tarkibida almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan arginin, lizin, metionin, treptofan, sistin va boshqalar mavjud bo'ladi. Bunday aminokislotalar o'simliklar tarkibida bo'lmasligi mumkin. Yog' to'qimalari hayvonning holatiga qarab 2% dan 55% gacha va undan ko'p bo'lishi mumkin. Hayvonning o'sishi davomida yog' ichki organlar, buyrak atrofida, muskullar orasida va teri ostida to'planadi.

3-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat

Itdan o'lchamlarni olish uchun qo'llanadigan o'lchash asboblari va itlarning asosiy o'lchamlari


Mashg'ulot maqsadi: Itlarning o'lchamlarini olishda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, olingan natijalarga asoslanib tananing rivojlanishini aniqlash.

Uslubiy ko'rsatmalar: Mashg'ulot pitomnik sharoitida olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlar ajratib olinadi va tanalarining har xil qismlaridan o'lchovlar olinadi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli zotlarga mansub itlar, o'lchov asboblari: sirkul, chizg'ich (лестничка пс.), o'lchov tayog'i.

Topshiriq: Talabalar 2—3 ta guruhga bo'linib, har xil zotga mansub itlar tanasining qismlarini asboblari yordamida o'lchab chiqadilar.

Itlarning tana tuzilishini ko'z orqali chamalab ham, shuningdek hayvonlarni maxsus o'lchov asboblari: zoomuhandislik sirkuli, o'lchov tayog'i va tasmasi yordamida o'lchab xolis ravishda baholash ham mumkin.



It o'lchamlarini olish uchun qo'llanadigan asboblari:


a — o'lchov tayog'i: 1 — pastki planka, 2 — erkin harakatlanadigan qism, 3 — vintsimon qisqich, 4 — shkala, 5 — yuqori qalpoqcha, 6 — harakatchan kvadrat o'q, 7 — yuqori planka, 8 -dastak; b — o'lchov tasmasi; d — zoomuhandislik sirkuli.

Odatda ikki kishi itning o'lchamlarini oladi, uchinchi kishi esa olingan natijalarni daftarga qayd etib boradi. Ulardan biri

itning egasi bo'lishi kerak. Hayvon o'zini erkin his etishi uchun egasi hamisha itning yonida bo'lishi lozim. Itning dastlabki o'lchamlarini olishda, ishni santimetrli tasma va sirkuldan boshlash tavsiya etiladi. Chunki, mazkur asboblarni jonivorlarni unchalik ham bezovtalantirmaydi.

Tasma yoki sirkul yordamida it tumshug'ining uzunligi — ko'zlarning ichki burchaklarining chizig'i bo'yicha, ko'z kosasidan burunning oxirgi nuqtasigacha (9, 10); hayvon peshonasining uzunligi — ko'z kosasidan ensa bo'rtmasigacha (10, 11); boshining uzunligi — ensa bo'rtmasidan to'g'ri chiziq bo'ylab burunning bo'rtmasigacha (9, 11) bo'lgan masofa orqali o'lchanadi. It boshining kengligini o'lchashda, sirkul yordamida, boshning eng kengaygan qismidan, peshona markazi bo'ylab it quloqlarining old yonida, yonoqlaridan boshlab o'lchanadi (16, 17).

Tasma yordamida ko'krak aylanasi uzunligini — kuraklar ostidan ko'krak qafasi bo'ylab (14), oldingi oyoqlar uzunligini — it tirsagidan to'g'ri yo'nalish bo'ylab yergacha (7, 8), panja o'zagi aylanasi — bilaguzuk bo'g'inining pastki va beshinchi barmoq asosining yuqori qismidan o'lchanadi (15). Yag'rin (1, 2) va dumg'aza balandligi (4) o'lchov tayog'i bilan o'lchanadi. Shuningdek, o'lchov tayog'i yordamida tananing qiya uzunligi — yelka suyagining old bo'rtmasidan quymuch bo'rtmasigacha bo'lgan masofa orqali (5, 6), ko'krak kengligi esa old tomondan yelka-kurak bo'g'imlari o'rtasidan o'lchanadi.



Itning asosiy o'lchamlari: Ko'krak uzunligi ham o'lchov tayog'i yordamida quyidagicha aniqlanadi: asbobning qo'zg'almas qismi ko'krakning pastki qismiga qo'yilib, siljiydigan qismi esa ko'krak ortidan yag'rin ustiga tushiriladi.

Itshunoslikda jonivorning tana tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni ifodalovchi quyidagi indekslar (ko'rsatkichlar) juda ko'p hollarda qo'llaniladi:

— *suyakdorlik indeksi* — it panja o'zagi aylanasing uzunligi bilan yag'rin balandligining o'zaro nisbati. Uning asosida suyaklarning (skelet) rivojlanish ko'rsatkichi aniqlanadi:

Panja aylanasing uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

— *uzun oyoqlilik indeksi* — it oyoqlari uzunligi yag'rinning umumiy balandligiga nisbati. Itlarning nisbiy uzun oyoqliligini ko'rsatadi:

Oldingi oyoqlarning tirsakkacha bo'lgan uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

— *ko'krak indeksi* — it ko'kragining kengligi hamda chuqurligining o'zaro nisbati. Ko'krakning nisbiy rivojlanishini ko'rsatadi:

Ko'krak kengligi x 100

Ko'krak chuqurligi

— *yiriklik indeksi* — it yag'rinining balandligi bilan ko'krak aylanasi uzunligining o'zaro nisbati. Tananing nisbiy rivojlanishini ifodalaydi:

Ko'krak aylanasing uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

— *uzunboshlilik indeksi* — it yag'rinining balandligi va bosh uzunligining o'zaro nisbati. Boshning nisbiy uzunligini ifodalaydi:

Bosh uzunligi x 100

Yag'rin balandligi

— *keng peshonalik indeksi* — it boshining nisbiy kengligi:

Peshona kengligi $\times 100$

Bosh uzunligi

Gavda hajmi indeksi — tana balandligi va uzunligining o'zaro nisbati (ko'krak-yelka bo'g'imining old bo'rtmasi va quymuch bo'rtigi o'rtasidagi masofa). Bu indeks hayvon tana tuzilishining mutanosibligini ifodalaydi:

Tananing qiyalama uzunligi $\times$

Yag'rin balandligi

Agar hajm ko'rsatkichi 100 ga teng bo'lsa it tanasining balandligi va uzunligi mutanosib, ya'ni hajmi to'rtburchak (kvadrat) bo'ladi. Bundan tashqari, itlar tanasining hajmi qisqargan, uzaygan, cho'zilgan shakllarda ham bo'lishi mumkin.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Itlarning o'lchamlari nima uchun olinadi?
2. O'lchamlarni olish uchun qanday asboblarni qo'llanadi?
3. Itning tana tuzilishini qanday usullarda baholash mumkin?
4. O'lchov tayog'i qanday tuzilgan?
5. O'lchovlarni olishda qanday sharoitlar bo'lishi lozim?
6. Sirkul yordamida nimalar o'lchanadi?
7. O'lchov tasmasi bilan nimalar o'lchanadi?
8. O'lchov tayog'ida qaysi tana qismlari o'lchanadi?
9. Suyakdorlik indeksi nimani ifodalaydi?
10. Uzun oyoqlilik indeksi nimani ko'rsatadi?
11. Ko'krak indeksi nimani ifodalaydi?
12. Yiriklik indeksi nimani ifodalaydi?
13. Gavda hajmi indeksi nimani ifodalaydi?
14. Hajm ko'rsatkichi 100 ga tengligi nimani ko'rsatadi?

3.1-AMALIY MASHG'ULOT — 4 soat

Itlarning rasmlari va konturlash asosida konstitutsiya, eksteryer va tana qismlarini o'rganish. Tashqi tuzilishiga qarab yo'nalishini aniqlash

Mashg'ulot maqsadi: Itlarning rasmlari va konturlari asosida ularning tashqi ko'rinishi (сtат pyc.) bilan tanishtirish, turli zotlarga mansub hamda eksteryer va konstitutsiyaga ega itlarning tana tuzilishi xususiyatlarini o'rganish. Bunda o'rganiladigan hayvonlar har xil rivojlangan bo'lishi lozim, shunda har bir hayvonning xizmat yo'nalishi, fiziologik holati, yoshi va jinsi bo'yicha baholash mumkin bo'ladi. Stat — bu hayvon tanasining tashqi qismidir.

Uslubiy ko'rsatmalar: Mashg'ulot o'quv xonada olib boriladi. Bu yerda itlarning konturlari chizilgan rasmlar va to'liq skeleti bo'lishi kerak.


Ishchi daftarlarda avvaldan bosib chiqarilgan itlar konturlarida alohida statlar (tana qismlari)ning chegaralari belgilanadi va o'qituvchi tomonidan tuzilgan ro'yxatda keltirilgan tana qismlarining nomerlari shu konturlarga o'z joyiga mos holda qo'yiladi.

Anatomiya kursini bilish tananing suyak asosini va alohida gavda tuzilishining chegaralarini tasavvur qilishga imkon beradi.

Keyinchalik mashg'ulot it pitomnigi sharoitida davom ettiriladi. Bunda shkala bo'yicha hayvonlar statlari batafsil yoziladi va hayvonlar ballar bo'yicha baholanadi. To'q rangli hayvonlarda konturlar oddiy bo'r bilan, och rangli hayvonlarda esa konturlar rangli bo'r bilan chiziladi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar; turli zotlarga mansub itlarning konturlari chizilgan plakatlar; it skeleti; itlarning har xil zot, xizmat yo'nalishi, yoshi va jinsiga oid videotasvirlar, fotorasmlar va mulyajlar; videoproyektor, kompyuter; tarqatma materiallar.


Topshiriq: Ishchi daftarda turli zotlarga mansub itlarning konturlariga statlar (tana qismlari)ning chegaralarini belgilash va nomlarini keltirish.



6-rasm. Itning tana qismlari:

1 — peshona; 2 — tumshuq; 3 — burun uchi; 4 — yonoq; 5 — peshonadan tumshuqqa o'tish joyi; 6 — ensa; 7 — bo'yin (7a — bo'yin tarog'i, 7b — tomoq); 8 — yag'rin; 9 — orqa; 10 — bel; 11 — sag'ri; 12 — ko'krakning yon qismi; 13 — ko'krak; 14 — ko'krakning pastki qismi; 15 — qorin; 16 — chot; 17 — yelka; 18 — tirsak; 19 — bilak; 20 — bilaguzuk; 21 — kaft; 22 — oldingi oyoq panjasi; 23 — o'tirg'ich do'ngligi; 24 — son; 25 — tizza; 26 — boldir; 27 — sakrash bo'g'imi; 28 — tovon; 29 — orqa oyoq kafti; 30 — orqa oyoq panjasi; 31 — dum; 32 — och biqin; 33 — maklok; 34 — preputsiy.

Itlarning tumshug'i — o'tkir, to'mtoq, ingichka, keng, uzun, kalta va qanqaygan bo'lishi mumkin (7- rasm).



7-rasm. 1 — uzun va o'tkir; 2 — keng; 3 — to'mtoq; 4 — ensiz; 5 — kalta.

Burunning shilliq pardasi turli tushlarda bo'lishini inobatga olib, uning rangini aniq ifodalash lozim. Burun kovaklari tor va kengaygan bo'lishi mumkin.

Itlarning *lablari* — namxush, quruq, shalviragan, jag'larga mustahkam yondashgan, do'mboq, yupqa, kuchsiz rivojlangan, jag'larga jips yopishgan yoki yopishmagan bo'ladi (8-rasm).



8-rasm. 1 — shalviragan;
2 — quruq.

Hayvon og'zining birikish bur-chaklari — kuchli yoki kuchsiz ifodalangan bo'ladi.

Yonoqlar — yassi yoki turtib chiqqan bo'lishi mumkin.


Burun uchi — qanqaygan, pastga engashgan, to'g'ri, ingichka, yo'g'on hamda qirg'iyburun bo'lishi kuzatiladi (9-rasm).



9-rasm. 1 — to'g'ri; 2 — pastga engashgan; 3 — qanqaygan.


Bosh suyagi — ya'ni bosh chanog'i umumiy jihatdan olganda qisqargan, uzun, kalta va keng bo'lishi qayd etiladi.

Peshonadan tumshuqqa o'tish joyi — silliq, yengil ifodalangan, keskin va aniq ifodalangan bo'ladi (10-rasm).



10-rasm. 1 — keskin; 2 — yengil ifodalangan; 3 — aniq ifodalangan.

Peshonasi — do'ng peshona, yassi, tor, keng, yumaloq, ko'zlar yo'nalishi bo'ylab toraygan, uzunasiga burishgan yoki burishmagan bo'ladi (11-rasm).




11-rasm. 1 — tor; 2 — keng; 3 — do'ng peshona; 4 — yassi.

Qosh usti bo'rtig'i — aniq yoki sezilar-sezilmas ifodalangan.

Boshning teppa qismi — keng, tor, yassi, do'ng, ensa bo'rtmasi aniq yoki qisman ifodalangan bo'ladi.

Quloqlar — ensiz, keng, kalta, uzun, katta, kichik, past yoki baland qo'yilgan, go'shtdor, ingichka, asosi ensiz yoki keng, o'tkir, yaxshi yoki kam harakatchan, bir tomonga taxlangan, yarmi tik turgan, yumshoq, og'ir, tik turgan, osilgan, yonoqlarga jips yoki ajralib turgan, standart bo'yicha yoki bir sababga ko'ra kesilgan bo'lishi mumkin (12-rasm).



12-rasm. Quloq turlari: 1 — past o'rnashgan; 2 — baland o'rnashgan; 3 — past o'rnashgan va asosi ensiz; 4 — uzun, enli, asosi enli; 5 — baland o'rnashgan, o'tkir uchli; 6 — kesilgan; 7 — kichik va yengil; 8 — kichik, tik turgan va o'tkir uchli; 9 — qisman tik turgan.

Ensa bo'rtmasi — aniq ifodalangan, bilinar-bilinmas va sezilarli yoki sezilarsiz bo'ladi (13-rasm).



13-rasm. 1 — bilinar-bilinmas; 2 — sezilarli; 3 — aniq ifodalangan.

Ko'zlar — shakliga ko'ra tuxumsimon, uchburchak, yumaloq, bodomsimon, xoshiyali, bo'tako'z, botiq, kipriklari esa ichkariga yoki tashqariga egilgan turlarga farqlanadi.

Rangiga ko'ra ko'zlari tim qora, malla, to'q jigarrang, och jigarrang, havo rang, qahrabosimon va yashilsimon tuslarga ajratiladi.

Ko'z qarashlari (nigohi) — darg'azab, hadiksiragan, sokin, ifodali va ishonchsiz bo'ladi.


Boshi — yengil, salmoqdor, qo'pol, jinsi aniq ifodalangan (erkak yoki urg'ochi).

Bo'yini — ingichka, yo'g'on, kalta, uzun, mushakdor, mutanosib, namxush, quruq, tik yoki quyi o'rnashgan hamda bukri bo'yin va ohunikisimon shakldagi bo'yinlarga bo'linadi (14-rasm).



14-rasm. 1 — tik o'rnashgan; 2 — quyi o'rnashgan; 3 — bukri; 4 — ohunikisimon.

Ko'kraqi — chuqur, kichkina, enli, ingichka, kalta, uzun, egri, bo'qoqsimon bo'ladi (15-rasm).



15-rasm. Ko'krak turlari: 1, 2, 3 — yon tomondan ko'rinish: 1 — chuqur, kalta; 2 — chuqur, uzun; 3 — kichkina; 4, 5 — old tomondan ko'rinish: 4 — yassi; 5 — bo'qoqsimon.

Ko'kraging old qismi — yaxshi rivojlangan, yetarlicha rivojlanmagan, ensiz, enli, yassi, mushakdor va go'shtsiz turlari mavjud (16-rasm).



16-rasm. 1 — enli; 2 — ensiz.

Yag'rin — aniq ifodalangan, sezilarsiz, baland, botiq turlarga bo'linadi (17-rasm).



17-rasm. 1 — aniq ifodalangan (yaxshi rivojlangan);
2 — sezilarsiz (yaxshi rivojlanmagan).

Yelka — toʻgʻri, egilgan, mustahkam, uzun, qisqa, ensiz, enli, yumshoq, yetarli yoki yetarsiz ravishda mushakdor boʻlishi kuza-tiladi (18-rasm).



18-rasm. 1 — egilgan. 2 — toʻgʻri. 3 — turtib chiqqan.

Beli — mustahkam, yumshoq, keng, ensiz, uzun, kalta, toʻgʻri, turtib chiqqan, yetarli yoki yetarsiz darajada mushakdor.

Qorni — tortilgan, osilgan, qappaygan va tarang boʻladi (19-rasm).



19-rasm. 1 — tortilgan; 2 — osilgan.

Maklok — tos yonbosh suyagi qanotining boʻrtib chiqqan joyi boʻlib, sezilarli, sezalarsiz, rivojlangan va turtib chiqqan holatlarda boʻlishi kuzatiladi.

Sagʻri maklokdan quymich boʻrtmasigacha boʻlgan masofa tana qismi hisoblanib, u gorizontal, turtib chiqqan, qiya, qirqilgan, qisqa, uzun, mushakdor, chayir, keng va tor boʻlishi mumkin (20-rasm).



20-rasm. Sagʻri holati va dumning tuzilishi: 1 — toʻgʻri, gorizontal tutilgan; 2 — qiya, quyi tutilgan; 3 — toʻgʻri, yuqoriga koʻtarilgan; 4 — sagʻri va dumini osilgan.

Dum — tik yoki quyi tutilgan, asosi yoʻgʻon yoki ingichka, uzun yoki kalta, yuqoriga koʻtarilgan aylanasimon holatda, gorizontal tutilgan yoki osilgan, bir tarafga egilgan hamda buralgan holatlarda boʻlishi mumkin.

Oldingi oyoqlari — toʻgʻri, birikish burchaklari aniq yoki noaniq shakllangan, mushaklari yaxshi yoki kam rivojlangan, kura-gi toʻgʻri, qiya harakatlanuvchi, uzun va kalta boʻladi.

Yelka-kurak boʻgʻimi — yaqqol yoki kuchiz ifodalangan.

Tirsaklar — harakatchan, tashqariga chiqqan, ichkariga qayrilgan, koʻkraklarga yonlashgan, orqa tomonga kuchli ogʻgan boʻladi.

Bilagi — uzun, kalta, toʻgʻri, mustahkam, qiyshaygan boʻlishi mumkin.

Tarandisi — uzun junli it zotlarida oldingi oyoq bilaklarining orqa tomonida momiqday uzun, pardozbop tuklar.

Bilak boʻgʻimi — yoʻgʻon, yupqa yaxshi yoki kuchsiz rivojlangan.

Barmoqlar — oldingi oyoqlarda ham xuddi orqa oyoqlardagi singari jips, siyraklashgan, mustahkam, yumshoq, jamlangan va yassi boʻlishi kuzatiladi.

Orqa oyoqlari — to‘g‘ri, bo‘g‘imlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri burchakli, yaxshi yoki kam mushakdor bo‘ladi.

Soni — uzun, kalta, mushakdor yoki kam mushakli, kuchli yoki kuchsiz rivojlangan bo‘ladi.

Tarandisi — orqa oyoqlarda sonining ort tomonida uzun, bezak beradigan junlarni vujudga keltiradi.

Tizzalar — me‘yorda, kuchli, turtib chiqqan yoki kam sezilarli bo‘lishi mumkin.

Boldirlari — ingichka yoki yo‘g‘on, kalta yoki uzun bo‘ladi.

Sakrash bo‘g‘imi — aniq ifodalangan, yaxshi ifodalanmagan, enli, ensiz, ingichka, yo‘g‘on, quruq, yerdan ancha yuqorida yoki yerga juda yaqin o‘rnashgan sifatida belgilanadi.

Panjalari — (21-rasm) tuxumsimon, yumaloqlashgan, kichik, katta, jamlangan, toraygan, yumshoq, jips, yumaloq (mushuklarnikisimon), yassi va tarqoq bo‘ladi.



21-rasm. Panja turlari: 1 — yumaloq (mushuklarnikisimon); 2 — yumaloqlashgan; 3 — toraygan; 4 — tarqoq.

Tirnoqlari — oldingi va orqa oyoq barmoqlarida mustahkam, kuchsiz, o‘tkir, o‘siq, standartga muvofiq yoki boshqa tusda bo‘ladi.

Orqa chiqaruv teshigi — to‘liq bayon etilmaydi.

Choti — kuchli yoki kuchsiz ifodalangan teri burmalaridan iborat.

Jinsiy a‘zolari — erkak itlarda jinsiy a‘zo va urug‘donlar joylashgan urug‘don xaltasi, urg‘ochi itlarda esa ilmoq bo‘lib, u mu-kammal ifodalanmaydi.

Rangi va jun tuzilmasi — mazkur zotlar uchun ancha-muncha tavsifga loyiq bo‘lganlarigina standart sifatida ta‘riflanadi.

Nazorat savollari:

1. Itlarning konstitutsiya tiplariga ta'rif bering.
2. Itning konturi deganda nimani tushunasiz?
3. It tanasi qanday asosiy qismlarga bo'linadi?
4. Hayvonning stati deganda nimani tushunasiz?
5. Itlarning tumshug'i qanday bo'lishi mumkin?
6. Itlarning lablari qanday bo'lishi mumkin?
7. Itlarning quloqlari qanday bo'lishi mumkin?
8. Itlarning ko'zlari qanday bo'lishi mumkin?
9. Itlarning boshi qanday bo'lishi mumkin?
10. Itlarning bo'yni qanday bo'lishi mumkin?
11. Itlarning ko'kragi qanday bo'lishi mumkin?
12. Itlarning yag'rini qanday bo'lishi mumkin?
13. Itlarning yelkasi qanday bo'lishi mumkin?
14. Itlarning beli qanday bo'lishi mumkin?
15. Itlarning qorni qanday bo'lishi mumkin?
16. Itlarning sag'risi qanday bo'lishi mumkin?
17. Itlarning dumi qanday bo'lishi mumkin?
18. Itlarning oldingi oyoqlari qanday bo'lishi mumkin?
19. Itlarning barmoqlari qanday bo'lishi mumkin?
20. Itlarning orqa oyoqlari qanday bo'lishi mumkin?
21. Itlarning panjalari qanday bo'lishi mumkin?

4-MAVZU. ITLARNING O'SISHI VA RIVOJLANISHI (2 SOAT)

4.1. Itlarning o'sishi va rivojlanishi haqida tushuncha

Hayvonlarning nasl sifatini yaxshilash uchun ularni o'sish va rivojlanish qonuniyatlariga asoslanib maqsadga muvofiq ravishda tarbiyalash talab etiladi. Organizmlarning shaxsiy taraqqiyotiga ontogenez, tarixiy taraqqiyotiga filogenez deyiladi. Bu terminlar birinchi marta nemis zoologi Y. Gekkel tomonidan 1866-yilda fanga kiritilgan. Ontogenez organizm paydo bo'lishidan, ya'ni zigota holdan to uning o'limigacha bo'lgan davrdagi morfologik, biokimyoviy va funksional o'zgarishlarning ketma-ket zanjiridan iboratdir. Filogenez – hayvonlarning tarixiy taraqqiyotini yoki ajdodlarning o'tgan davrini o'z ichiga oladi.

Ontogenez va filogenez bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ontogenez filogenezni qisqacha takrorlaydi, filogenez esa ketma-ket almashayotgan ontogenezlar zanjiridan iboratdir. Bunga biogenetik qonun ham deyiladi. Ontogenez bilan filogenez o'zaro bog'liqligi tirik tabiatda evolutsion taraqqiyotning asosi bo'lib hisoblanadi.

Hayvonning shaxsiy taraqqiyoti ota-onalaridan jinsiy hujayra yordamida o'tkazilgan irsiy asos genotipi bilan, ular yashayotgan vaqtdagi tashqi muhitning murakkab harakati natijasida amalga oshadi. Tuxum hujayraning spermatozoid bilan urug'lanishi natijasida hosil bo'lgan zigota, bo'lajak organizmning taraqqiyotida ma'lum darajada belgilangan bo'lib, ammo rivojlanish natijasi muayyan tashqi sharoit ta'siriga ham bog'liq bo'ladi.

Tashqi sharoitni o'zgartirib hayvon genotipidagi u yoki bu xususiyatini rivojlantirish yoki pasaytirish mumkin. Bu esa xo'jalikka foydali belgilarga ega bo'lgan hayvonlar guruhini yaratishga yordam beradi.

Ontogenezda ro'y berayotgan miqdor o'zgarishlarga **o'sish** deyiladi. O'sish hujayralar, to'qimalar, organlar massasining, hajmining oshishi va o'lchovlarning ortishida ko'rinadi. Organizm shaxsiy taraqqiyotidagi sifat o'zgarishlarining farqlanishi **rivojlanish** deyiladi.

O'sish va rivojlanish organizm taraqqiyotida bir xil parallel holda bormaydi. Hayotning ba'zi davrlarida o'sish kuchliroq

bo'lib ba'zi davrlarida rivojlanish ya'ni sifat o'zgarishlari kuchliroq bo'ladi. Hayotning boshlang'ich davrlarida o'sish ancha kuchliroq bo'lib, keyin esa rivojlanish tezroq amalga oshadi.

Yosh itlar rivojlanishida ikki davr ajratiladi — jinsiy yetilishgacha va jinsiy yetilishdan so'ng. Hayvonning yoshi kattalashishi bilan, organizmning umumiy rivojlanish intensivligi asta-sekin pasayishi, irsiyat hamda oziqlantirish va saqlash sharoitlari bilan bog'liq yosh it o'sishining jadallashishi va susayishi kuzatiladi. Bunda tana turli qismlarining o'sish intensivligi yosh kattalashishi bilan har xil o'zgaradi, chunki embrional davrda alohida a'zolar va to'qimalar har xil vaqtda paydo bo'ladi va turli tezlikda o'sadi.

Ontogenez jarayonida it organizmida chuqur interyerli o'zgarishlar kechadi. It bolarlarida, ayniqsa boshlang'ich davrda, modda almashinuvi katta hayvonlarga nisbatan tez kechadi. Eng jadal modda almashinuvi jinsiy yetilishgacha kuzatiladi. Oziqlantirish va saqlash sharoitlarini o'zgartirish yo'li bilan jinsiy yetilish muddatlarini tezlashtirib yoki sekinlashtirib, katta itning rivojlanishini o'zgartirish mumkin. Jinsiy yetilishni tezlashtirish oyoqlar o'sishini to'xtatadi.

Erkak it bolalarining rivojlanishi urg'ochilarnikidan farq qiladi. Erkak it bolalari urg'ochilarga nisbatan uzoqroq muddat o'sadilar va ularning rivojlanishi kechroq tugaydi. Erkak individlarning uzoqroq muddatda o'sishga moyilligi ularning kechroq jinsiy yetilishi bilan bog'liq.

4.2. O'sish va rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Notekis, ritmik, tez o'sish, sekin o'sish va bularga ta'sir etuvchi omillar, ularni hisobga olish

Uy hayvonlarining o'sishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida, maqsadga muvofiq tipdagi hayvonlarni yaratish mumkin. Bu qonuniyatlarni bilish har xil tashqi va ichki omillar yordamida hayvonlarning o'sish va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib bu jarayonlarni rejali ravishda boshqarish mumkin.

Shaxsiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlariga to'xtovsiz, notekis, davriy, ritmik, korrelativ va adaptatsion rivojlanishlar kiradi. Organizmning shaxsiy taraqqiyoti to'xtovsiz davom etadi. Zigota hosil bo'lganidan tortib qarilikkacha va tabiiy o'lim yuz bergun-

cha organizmda to'xtovsiz ravishda miqdor va sifat o'zgarishlari davom etadi. Bu o'zgarishlar oddiydan murakkabga qarab harakat qilib, hayotning ba'zi davrlarida miqdor o'zgarishlar (o'sish) tez borsa, boshqa davrlarda sifat o'zgarishlari (rivojlanish) tez boradi.

To'xtovsiz rivojlanish modda almashinishining davom etishida ya'ni hujayrada moddalarning yemirilishi yoki parchalanishi (dissimilatsiya) va ularning tiklanishida (assimilatsiya) ham ko'zga ko'rinadi. Hayotning davom etishida birorta hujayra doimo saqlanmaydi, ya'ni undagi moddalar yemiriladi yoki tiklanadi, yoki hujayra to'liq yemirilib, yangisi hosil bo'ladi.

Korrelatsion rivojlanish qonuni qadimgi grek olimi Aristotel tomonidan sodda ravishda ifoda etilgan edi. Uning fikricha tabiat tananing bir qismiga berilgan narsani boshqa qismidan oladi.

Korrelativ rivojlanish butun organizmning o'zgargan muhitga moslashishi natijasida kelib chiqadi, ya'ni organizmning butunligini ko'rsatadi.

I.I. Shmalgauzen uch xil korelatsiyalar mavjudligini qayd qiladi:

A) genom korrelatsiyasi (irsiyat bilan bog'langan);

B) morfogenetik korrelatsiya — organizm rivojlanishida organlarning shakli va funksiyasi orasidagi bog'lanishlar;

D) funksional yoki ergonik (ergo — mehnat) korrelatsiyalar organlarning har xil faoliyati (gipo va giperfunksiyasi) bilan bog'liq bo'lgan korrelatsiyalar.

Korelatsiyalar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Ijobiy korrelatsiyalarda bir belgining oshishi bilan ikkinchi belgi ham ortib boradi. Masalan, hayvonlarning tirik vazni ortib borgan sari, ulardan tug'ilayotgan avlodlarning vazni ham oshib boradi. Bunday ijobiy korrelatsiyalar seleksiya ishi uchun ancha qulaylik tug'diradi.

Salbiy korrelatsiyada bir belgining oshib borishi bilan ikkinchi belgi kamayib boradi. Masalan, itda badjahllik qancha oshib borsa hid bilish xususiyati shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun hayvonlarni tanlashda salbiy korrelatsiyalarga e'tibor berish kerak.

Notekis rivojlanishda organizmning o'sishi dastlab asta-sekin borib, so'ngra bir guruh a'zolarida (buyrak, jigar, miya, taloq) modda almashinishi yuqori bo'lishi, ikkinchi guruh a'zolarida

(go'sht, ichak, urug'don) ortishi yoki pasayishi bilan va uchinchi xil to'qimalarda (teri, tog'ay) modda almashinishining past darajada bo'lishi aniqlangan.

Notekis rivojlanish ayniqsa embrional va postembrional taraqqiyotini solishtirganda aniq ko'rinadi. Embrional va postembrional davrlarda naysimon va periferik suyaklar boshqa to'qimalarga nisbatan tez o'sadi.

Hayvonlarning yoshi ortishi bilan muskullarda suv va oqsil miqdori kamayadi, yog' miqdori esa oshadi. Teri va muskullar embrional va postembrional davrlarda tez o'sib, miya esa har ikki davrlarda ham sekin o'sadi.

Shaxsiy taraqqiyotida erta paydo bo'lgan a'zolar asta rivojlanib o'zining o'sishini juda kech tamom qiladilar. Kech paydo bo'lgan a'zolar esa juda tez rivojlanib, o'sishdan tez qoladilar.

Embrional davr uchta fazadan iboratdir: 1. Murtak. 2. Homila oldi. 3. Homila.

Postembrional taraqqiyotda quyidagi beshta faza mavjud: 1. Yangi tug'ilganlik fazasi. 2. Sut emish fazasi. 3. Jinsiy voyaga yetish fazasi. 4. To'la yetuklik va funksional qobiliyatining gullab-yashnagan fazasi. 5. Qarilik fazasi.

Ritmik o'sish — organizmda qo'zg'alish va tormozlanish, assimilatsiya va dissimilatsiya jarayonlarining almashib turishi natijasida o'sish va rivojlanishida yuz beradigan o'zgarishlarda ko'rinadi.

Ko'pgina uy hayvonlarida jinsiy siklning o'tishi ham ritmik tarzda amalga oshadi.


Umuman ritmik o'sish hayvonlarning evolutsion taraqqiyotida paydo bo'lib, organizmning tashqi sharoitning o'zgarishlariga moslashganligini ko'rsatadi.

Yosh hayvonning yetarlicha rivojlanmasligi ular hayotining turli davrlarida yetarlicha oziqlantirmaslik davomiyligiga bog'liq. Keyingi davrlarda oziqlantirish sharoitlarini yaxshilash bilan bu kamchiliklarni qisman bartaraf etish mumkin, ammo yo'qotilgan o'sish o'lchamlarini va normal rivojlanishni tiklashni odatda to'liq kompensatsiya qilib bo'lmaydi. Yosh hayvonlarni aniq bir yosh davrlarida saqlashda va oziqlantirishda yo'l qo'yilgan xatolar izsiz yo'qolmaydi. Shuning bilan bir-

galikda jadal oziqlantirish organizmning o'sishini va rivojlanishini jadallashtiradi, itlarning fiziologik va xizmat yetilishiga olib keladi, bu hol ayniqsa yirik jussali itlarni urchitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Hayvonlarning shaxsiy taraqqiyotiga genetik va tashqi muhit omillari ta'sir qiladi. Shaxsiy taraqqiyotning shakllanishini quyidagi tasvirda ko'rsatish mumkin.



4.3. Embrionizm, infantilizm haqida tushuncha

Embrionizm. O'sish va rivojlanish jarayonida hayvon na-faqat vazni va o'lchamlari balki tananing shakli va proporsiyalari o'zgarishi tufayli turli o'zgarishlarga chalinadi. Yangi tug'ilgan it bolasi katta itdan sezilarli farq qiladi: tana va oyoqlari nisba-

tan kalta bo'ladi. Bo'g'ozlik davrida ona it yetarli oziqlantirilmasa homilaning o'sishi (ayniqsa, naysimon suyaklar) sekinlashadi. Bunday hollarda it bolasining oyoqlari bir umrga kalta bo'lib qoladi.

Infantilizm. Tug'ilgandan so'ng it bolalari eng tez uzunlikka, eniga va chuqurlikka o'sadi. Yosh itlar yetarlicha boqilmaganda ularning o'q skeleti yaxshi o'smaydi, natijada katta itlar tanasi kalta va sayoz, sag'risi ensiz bo'lib qoladi. Bunday hayvonlar kichik yoshdagi itlarga o'xshab ketadi.


4-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat


Itlarning absolut va nisbiy o'sishini o'rganish va hisoblash.

O'sish grafigi va tirik og'irlik dinamikasi

Mashg'ulot maqsadi: Itlarning o'sishini hisobga olish usullari va ularning vazn va o'lchamlarini hisoblash texnikasi bilan tanishtirish, tegishli grafiklar tuzish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

Uslubiy ko'rsatmalar: Yosh itlarning tug'ilgandan bir necha oy-gacha tirik vazni o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar ishchi daftarga quyidagi grafik va jadvallar bo'yicha yoziladi.





Toza zotli va duragay it bolalarining vazni oʻsishi dinamikasi.

Yoshi (kunlar)	Zot		
	Nemis ovcharkasi	Sharqiy Evropa ovcharkasi	duragaylar
1			
2			
3			
4			
5			
n			

Oʻqitish manbalari. Ishchi daftarlar; turli zot hayvonlarning oʻsishini koʻrsatadigan raqamli maʼlumotlar keltirilgan jadvallar. Videoproyektor, kompyuter.

Itlarning oʻsishini va rivojlanishini nazorat qilish uchun, ular maʼlum bir vaqtlarda tortilib va oʻlchanib turiladi. Ularni vaqti-vaqti bilan tortib turish, ular vaznining muayyan vaqt ichida qancha oshganligini aniqlashga imkon beradi.

Itlarning oʻsishini nazorat qilib borish uchun, ular tugʻilganidan boshlab 1, 3, 7, 9, 13, 18 oyligida taroziga tortib boriladi. Bir ya-

rim yoshdan oshgandan so'ngra yiliga 2 marta tortiladi. O'sishni aniqlashda mutlaq va nisbiy o'sish aniqlanadi.

$$A = \frac{W_1 - w_0}{t};$$

Bunda: W_0 — boshlang'ich og'irlik yoki o'lchov; W_1 — oxirgi og'irlik yoki o'lchov; t — vaqt, kun hisobida.

Masalan, agar it bolasi oyning boshida 0,4 kg tirik vaznga ega bo'lgan bo'lsa, oyning oxirida esa 5 kg tirik vaznga ega bo'ladi. Bir oylik it bolasining vazni 4,6 kg o'sgan yoki sutkasiga o'sish 153 grammni tashkil qiladi.

$$A = \frac{W_1 - W_0}{t} = \frac{5 - 0,4}{30} = 0,153 \text{ kg}$$

Mutlaq o'sish, o'sishni mutlaq o'lchovlarda ko'rsatadi. Nisbiy o'sish o'sishning quvvati yoki tezligini ko'rsatadi. Nisbiy o'sish quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$B = \frac{W_1 - W_0}{W_0} \cdot 100$$

Yuqoridagi masaladan foydalanib,

$$B = \frac{W_1 - W_0}{W_0} \cdot 100 = \frac{5 - 0,4}{0,4} \cdot 100 = \frac{0,153}{0,4} = 38,25 \%$$

Nisbiy o'sish S. Brodi formulasi bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$B = \frac{W_1 - W_0}{0,5(W_0 + W_1)}$$

O'sish tezligini aniqlash uchun S. Brodi va I.I. Shmalgauzenlar quyidagi formulani taklif qilganlar:

$$C_w = \frac{\log W_2 - \log W_1}{(t_2 - t_1) \cdot 0,4343}$$

Bunda: C_w — o'sish tezligi; W_1 — boshlang'ich vazn; W_2 — oxirgi vazn, og'irlik yoki o'lchov; t — vaqt; 0,4343 — logarifmlarning natural asosi.

O'sish konstantasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K = C_w \cdot t$$

Nazorat savollari:

1. O'sish va rivojlanish haqida tushunchalarga nimalar kiradi?
2. O'sish va rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.
3. O'sish grafigi va tirik og'irlik dinamikasi tushunchalari.
4. O'sish tezligini aniqlaydigan formulalarni keltiring.
5. Itlarning o'sishini hisobga olish usullari.
6. Itlarning vazn va o'lchamlarini hisoblash texnikasi.
7. Itlarning vazn va o'lchamlari grafiklarini tuzing.
8. Toza zotli va duragay it bolalarining vazni o'sishi dinamikasi tushunchasi.
9. Itlarning o'sishini va rivojlanishini nazorat qilish uchun nimalarni bajarish lozim?
10. Itlarning o'sishini nazorat qilib borish uchun ular qachon tortib boriladi.
11. Mutloq o'sish tushunchasi.

5-MAVZU. ITCHILIKDA TANLASH VA SARALASH (4 SOAT)

5.1. Itlarni tanlash haqida tushuncha. Itchilikda geterozisning qo'llanilishi

Ma'lumki, evolutsion nazariyaning asosini uchta manba: o'zgaruvchanlik, irsiyat va tanlash tashkil qiladi. Tanlash uchun belgilarning o'zgaruvchanligi, jinsiy ko'payishidagi ota-ona shaklining irsiy xususiyatlari asosiy material hisoblanadi.

Ma'lum bir tabiiy iqlim sharoitiga moslashgan organizmlarni saqlab qolish, moslasha olmagan nuxsalarini yo'qotish tanlashga xos xususiyat bo'lib hayvonlar evolutsiyasining asosini tashkil qiladi.

Tanlash nima? Tanlash bu ma'lum bir hayotiy sharoitga moslashgan va insonning ma'lum talabini qondiradigan alohida olingan hayvonlarni ajratib olishdan iborat. Tanlashning mohiyatini ko'paytirish (urchitish) uchun eng munosib, maqsadga muvofiq hayvonlarni ajratib olish tashkil qiladi.

Tanlashning yaratuvchi rolini buyuk ingliz olimi Ch. Darvin yuqori baholagan. Bu haqda shunday yozgan edi: «Tanlashning buyuk tamoyili shundaki, uning natijasida organizmda paydo bo'lgan mayda, bazo'r ko'zga ko'rinadigan o'zgaruvchanlik (farq) kelgusida irsiy bo'lib, avloddan avlodga to'plana borib yaqqol ko'zga tashlanadigan bo'ladi».

Tanlash quyidagi masalalarni yechishga yordam beradi:

- ko'zlanayotgan yo'nalishni aniqlash yoki tanlash maqsadini aniqlash;
- belgilarni baholash;
- hayvonlarni fenotipi bo'yicha baholash (mahsuldorligi, eksteriyeri, interiyeri, konstitutsiyasi);
- hayvonlarni genotipi bo'yicha baholash (kelib chiqishi, ajdodlari) hamda nasl sifati bo'yicha baholash;
- hayvonlarni kelib chiqishi, yoshi, klassi, tipi, xo'jalik va nasl sifati bo'yicha guruhlariga ajratish;
- hayvonlar taqdirini belgilash (nasl uchun qoldirish, hisobdan chiqarish).

Tanlash inson tomonidan juda qadim zamonlardan amalga oshirib kelingan. Ibtidoiy jamoa davrida odamlar hayvonlar-

ni tanlab o'ldirganlar. Birinchi navbatda kasal, nimjon, noqulay yoki xavfli hayvonlarni o'ldirib yo'qotganlar. Qadimgi misrliklar, greklar, rimliklar qo'lyozmalarida, o'rta asr kitoblarida qanday hayvonlarni ko'paytirmaslik, qanday hayvonlarni mehnat vositalari sifatida ishlatish, qanday hayvonlardan sut va go'sht olish, naslli erkak hayvonlar qanday bo'lishi kerakligi haqida maslahatlar berilgan.

Tanlash nazariyasini birinchi marta ilmiy asoslagan olim haqli ravishda Ch. Darvin hisoblanadi. U o'zining evolutsion nazariyasini yaratishda tanlashni hayvonot va o'simlik olamini o'zgartiruvchi asosiy kuch deb bilgan. O'zgaruvchanlik va irsiyat tanlashga material beradi va belgilarning avloddan avlodga o'tib mustahkamlanishiga yordam beradi.

Ch. Darvin tanlashni tabiiy va sun'iy tanlashga bo'lib asoslab bergan. Ch. Darvin o'zgaruvchanlik tanlash uchun boy material berishini aniqlab berdi. Ch. Darvinning sun'iy tanlash haqidagi ta'limoti va evolutsion nazariyasi it zotlarini yaxshilashda asos qilib olindi.

Mashhur rus olimi K.A. Temiryazev tanlash haqidagi ta'limotni yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U kishilar tanlash yordamida har xil tasodifiy o'zgarishlarni saqlab qolishi va uni rivojlantirishi mumkin degan edi.

XX asrga kelib genetika fanining jadal rivojlanishi tanlash nazariyasining yanada ilmiy asosda boyishiga olib keldi. Ayniqsa mutatsiya nazariyasi, xromosoma nazariyasi, populatsiya genetikasi, sof liniya nazariyasi, polimeriya nazariyasining kashf qilinishi tanlash nazariyasining boyishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Bunda, ayniqsa, tanlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan «sof liniya» nazariyasining roli benihoya katta. Bu nazariyaning asoschisi daniyalik seleksioner-genetik olim V.A. Iogansen hisoblanadi. U: «Tur bu o'rtacha xususiyat yoki belgining o'rtacha o'lchovi bo'lib, uning atrofida turli o'zgaruvchanlik mavjud bo'ladi», — deb yozgan va uni isbotlagan. Holbuki amaliyotda ham shu holat kuzatiladi. Masalan, ma'lum bir it zoti o'rtacha sifat ko'rsatkichlariga ega, lekin bu o'rtacha sifat ko'rsatkichlaridan chetga chiqadigan (yuqori yoki past) ko'rsatkichlari ko'p kuzatiladi. Aynan ana

shu chetga chiqadigan o'zgaruvchanlik tanlash uchun material hisoblanadi.

Xizmat itlari o'z-o'zidan urchish xususiyatiga ega emas. Agar ular o'z-o'zi bilan urchitilganda hayvonlar ichida gomozigot organizmlar ko'payib, kelgusida letal holatga olib kelar edi. Hayvon zotlari geterozigot organizmlardan iborat va shu holatda yashovchan bo'ladi.

Keyinchalik tanlash nazariyasini genetik olim S.S. Chetverikov rivojlantirgan. Uning fikricha ma'lum bir tashqi muhit sharoitida irsiy o'zgaruvchanlik paydo bo'ladi. Genotipda paydo bo'ladigan yangi o'zgaruvchanlik avlodga berilmasdan tez yo'qoladi. Ammo bu o'zgaruvchanlik soni organizmda nihoyatda ko'p va yana qayta paydo bo'ladi. Bunday o'zgaruvchanlik asosan mutatsion xarakterga ega bo'ladi.

Zararli mutatsion o'zgaruvchanlik, zararsiz va ayniqsa foydali mutatsiyalarga qaraganda organizmda ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo organik olamning rivojlanishida mutatsiyaning paydo bo'lishi evolutsiyaning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mutatsiya tirik mavjudotni bir shakldan ikkinchi shaklga o'zgarishiga olib keladi.

Naslchilik praktikasi shuni ko'rsatadiki, avlodda hayvonning qimmatli xususiyatlarini saqlash juda qiyin bo'ladi.

Itchilikda geterozisning qo'llanilishi

Geterozis tushunchasi sof zotli ota va onani chatishtirishda geterozigotlik ta'siri ostida kelib chiqqan duragaylik quvvatini anglatadi.

Geterozis bu birinchi bo'g'in duragaylarning ota va ona shakllariga nisbatan kuchli o'sishi, rivojlanishi, hayotchanligi, serpushtligi, sifat ko'rsatkichlari, konstitutsiyasining mustahkamligi va kasalliklarga chidamliligidir.

Geterozisni tushuntirish uchun hayotchanlik gipotezasi ilgari suriladi. Bu gipotezaga binoan chatishtirishning foydali va qarindoshlik juftlashning zararli ta'siri asosan zigotada qo'shilgan ota va ona jinsiy gametalarning o'xshashligiga bog'liq. Chatishtirishda har xil sifatli gametalar o'zaro qo'shilganligi tufayli olingan duragaylar kuchli rivojlanib yuqori hayotchanlikka ega bo'ladilar yoki geterozis hodisasi paydo bo'ladi.

Geterozisda asosan yangi belgilar paydo bo'lmagan, mavjud belgilar yanada kuchliroq rivojlanadi. Geterozis sof zotli urchitish, chatishtirish va duragaylashda xilma-xil juftlashlarda olinishi mumkin.

Itchilikda geterozis besh xil shaklda ro'yobga chiqadi:

1. Birinchi bo'g'in duragaylar yoki gibridlar har ikki ota va ona shaklidan tirik vazni va hayotchanligi bo'yicha ustun bo'ladilar.

2. Birinchi bo'g'in duragaylari yoki gibridlari to'liq yoki qisman naslsiz bo'lib, konstitutsiyaning mustahkamligi, uzoq yashash va ish qobiliyati bo'yicha ustun bo'ladilar.

3. Birinchi bo'g'in duragaylar tirik vazni bo'yicha oraliq o'rinda bo'lib, ota-onalaridan serpushtligi va hayotchanligi bo'yicha ustun bo'ladilar.

4. Duragaylar har bir alohida belgi bo'yicha oraliq o'rinni egallab, oxirgi yakuniy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ustun bo'ladilar.

5. Birinchi bo'g'in duragaylar yaxshi ota yoki ona shaklidan ustun bo'lmagan, ikki ota va onaning o'rtacha sifat ko'rsatkichlaridan ustun bo'ladilar.

5.2. Tanlash klassifikatsiyasi va shakllari

Hayvonlarni urchitish uchun tanlash naslchilikning eng eski usuli hisoblanadi. Itlar doimiy ravishda urchitila boshlanishi bilan eng yaxshi hayvonlarni tanlash ishlari boshlangan. Tanlashning ijodiy mohiyati shundaki, bunda ijobiy mutatsiya namoyon bo'ladigan hayvonlar tanlanadi va ko'paytiriladi.

Tanlash yalpi va individual bo'ladi. *Yalpi tanlashda* itlar shaxsiy xususiyatlariga, fenotipiga qarab tanlanadi. Hayvonning qiymatli sifatlari hamma vaqt ham muttasil ravishda nasldan-naslga o'tavermasa-da, yalpi tanlash ularni yaxshilashda juda muhim usul hisoblanadi. Akademik M.F. Ivanov yaxshi genotipni yaxshi fenotip orasidan axtarish kerak, deb aytgan edi.

Itni tanlashda e'tibor beradigan eng muhim belgisi xizmat sifatiligidir. Biroq hayvonni faqat xizmat sifatililigiga qarab bir tomonlama tanlash yaxshi natija bermasligi mumkin. Masalan, itning qandaydir bir sifatiga qarab tanlash uning konstitutsiyasi zaiflanishiga, nerv tizimi funksiyasining buzilishiga, hayot-

chanligining pasayishiga, kasalliklarga chidamliligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, yalpi tanlashda xizmat sifatlaridan tashqari, konstitutsiya tipiga va eksteryeriga ham ko'proq e'tibor berish kerak.

Eksteryer konstitutsiyaning tashqi ifodasidir. Itning xizmat sifatleri bilan tana tuzilishi orasida ma'lum darajada bog'lanish bo'ladi, shuning uchun sifatlerarning ba'zi turlarini, masalan, bir zot ichida iskovuchlik va qo'riqlash xususiyatlarini hayvonning tashqi ko'rinishiga qarab aniq ta'riflash mumkin.

Shunday qilib, itlarni yalpi tanlashda e'tibor beriladigan asosiy belgilar ularning xizmat sifatleri, konstitutsiyasi va eksteryeridir. Bulardan tashqari, hayvonning rivojlanganligi, ko'payish a'zolarining normal holatda ekanligi, ba'zan esa itning xulq-atvori yoki temperamenti ham e'tiborga olinadi, chunki bu xususiyatlar ularni parvarish qilishda zarur bo'ladi.

Itchilikka qarashli naslchilik ishlari bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarida olib boriladigan individual tanlashda fenotip bo'yicha tanlashdan tashqari, hayvonlarning genotip xususiyatlari, ya'ni o'zidagi hamma qimmatli sifatleri avlodga bera olish qobiliyati ham hisobga olinadi.

Hayvonlarning kelib chiqishini (ular ajdodining sifatini) va naslining sifatini bilish ularning genotipik xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Itlarga kattaroq yoshga kirganda avlodining sifatiga qarab baho beriladi, avlodning sifati bo'yicha sinalgan erkak itlar juda yuqori baholanadi va urchitish ishlarida ulardan maksimal foydalaniladi.

5.3. Itning kelib chiqishi, konstitutsiyasi va eksteryeri. Nasli bo'yicha baholash va tanlash, tanlash va saralash (juftlash)ning bir-biriga uzviy bog'liqligi

Urchitishning u yoki bu usulini tanlash har doim ham kutiladigan natijalarga olib kelmaydi, chunki har bir it ham naslchilik ishlariga to'g'ri kelmaydi. Ma'lum zotga oid ko'p sonli itlardan naslga faqat hamma talablarga javob beradigan eng yaxshi naslli hayvonlar tanlab olinishi lozim. To'g'ri kelmaydiganlar esa naslchilik ishlariga qo'yilmaydi. Itni tanlash uchun uning eks-

teryer va konstitutsiyasi xizmat sifatлари bo'yicha baholanadi, shajara kartochkasidan kelib chiqishi aniqlanadi va olingan avlod baholanadi. Bunda itning individual sifatлари tashqi muhitning ma'lum sharoitlarida saqlash, oziqlantirish va dressirovka bilan bog'liq holda rivojlanishini hisobga olish lozim.

Itning eksteryerini va xizmat sifatlarini baholashda uning barcha xususiyatlari irsiy bo'lmasligini e'tiborga olish, hamda irsiy va irsiy bo'lmagan sifatlarni ajrata bilish lozim. Masalan, kichik bo'y (to'liq rivojlanmaslik) irsiy yoki saqlashning yomon saqlanishi natijasida bo'lishi mumkin. Itning qo'rqqoligi qo'pol munosabatda (doimiy kaltaklash) yoki asab tizimining tug'ma xususiyatlarida (oliy asab tizimi faoliyatining kuchsiz tipi) rivojlanadi.

To'g'ri o'stirishda va tarbiyalashda itning barcha irsiy xususiyatlari namoyon bo'ladi, shuning uchun eksteryeri va xizmat sifatлари bo'yicha uning irsiy sifatлари to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish mumkin. Va aksincha, yomon sharoitda saqlangan itning irsiy xususiyatlarini aniqlash mushkul kechadi.

Eksteryer va konstitutsiya bo'yicha zot standartiga javob beradigan, proporsional va mustahkam tuzilgan, chidamli, nuqsonsiz, zich va zich quruq konstitutsiyali itlar tanlanadi. Eksteryer bo'yicha baholashda naslli hayvonlar toifasiga «juda yaxshi»dan past bo'lmagan erkak it va «yaxshi» bahodan past bo'lmagan urg'ochi itlar kiradi. Bu bilan birga urchitish uchun itlar chidamlilik, kuchli va mutanosib asab jarayonlariga ega bo'lish, ustunlik qiluvchi aktiv himoyalaniş reaksiyasini namoyon qilish, sezgi a'zolari yaxshi rivojlanganlik kabi a'lo xizmat sifatlariga ega bo'lishi kerak.

Xizmat sifatлари bo'yicha baholash musobaqalar o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi. Urchitish uchun xizmat sifatlarini kuchaytiradigan ijobiy xususiyatlarga ega asab jarayonlarini hisobga olib, itlarni avloddan avlodga tizimli tanlab kelish kerak.

Itning avlod sifati bo'yicha baholashda uning shajarasiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shajara kartochkasi bo'yicha itning kelib chiqishi, zoti, itning naslli sifatlarining nisbiy tavsifi (avlodidagi musobaqalarda yuqori o'rinni olgan, yaxshi naslli, taniqli itlarning laqablari va sh.o.) qarindoshliklararo juftlashish-

ga yo‘l qo‘ymaydi. Bundan tashqari tanlab olinadigan erkak itlar va urg‘ochi itlarni to‘g‘ri baholash uchun avlodlarining sifatini bilish zarur.

Naslchilik ishlariga faqat dressirovka qilingan itlar saralanaadi. Ko‘p hollarda it bolasining tashqi ko‘rinishi va ayrim ichki xususiyatlari ota-onasidan tashqari uzoq ajdodlariga ham xos bo‘ladi. Erkak itlarning sifatiga ayniqsa katta e‘tibor berish kerak, chunki ulardan qisqa vaqt ichida ko‘p sonli avlodni olish mumkin. Tasodifiy urchitishlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim, chunki ular xizmat itchiligiga katta zarar keltiradi.

Barcha sifatlar bilan bir qatorda it yoshini hisobga olish lozim. To‘liq fiziologik yetilgan itlarni juftlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Juftlashishga yosh, endigina naslchilik ishlariga qo‘yilgan itlarni qo‘yish esa unchalik ma‘qul bo‘lmaydi, qari hayvonlarni juftlashishga qo‘ymaslik kerak, chunki ulardan kuchsiz avlod olinadi. Qarindosh hayvonlar ham juftlantirilmaydi.

Tanlash erkak va urg‘ochi itlar qo‘shilishlarining yillik rejasini tuzish bilan tugallanadi. Muvaffaqiyatli naslchilik ishini maxsus hisobga olish ishlarisiz amalga oshirish mumkin bo‘lmaydi. Zotdor itlar va ulardan olingan avlodning umumiy hisobi olinadi, yosh va katta hayvonlar har tomonlama komission baholanaadi va kerakli hujjatlar tuziladi.

Itlarning konstitutsiya eksteryeri, xizmat sifatлари, olingan avlodning kelib chiqishi va sifati bo‘yicha kompleks baholanishi bonitirovka deb ataladi. Bonitirovka itni urchitishga yaroqliligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bonitirovka sinash va musobaqalar o‘tkazish, eksteryer va konstitutsiya, itning xizmat faoliyati va avlodning sifatini baholash to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganish, shajara kartochkasi bo‘yicha itning kelib chiqishini baholash asosida ta‘minlanadi.

Tanlash va saralash (juftlash)ning bir-biriga uzviy bog‘liqligi

Itlar zotini yaxshilash, ularning irsiyatini maqsadga muvofiq yo‘naltirish tanlash va juftlash natijasida erishiladi. Chunki tanlash va juftlash seleksiyaning, ya‘ni naslchilik ishining asosini tashkil qiladi.

Juftlash bu tanlab olingan hayvonlardan kelgusida maqsadga muvofiq, sifatli avlod olish uchun ota-ona shaklini tuzishdir.

Tanlash va juftlash bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Tanlash va juftlash zot yoki ayrim guruh hayvonlarni sifat jihatidan yaxshilash va yangi qimmatli zotni yaratish jarayonining eng muhim qismi hisoblanadi. Shu sababli tanlash va juftlash itchilikda olib boriladigan naslchilik ishining asosiy mezoni hisoblanadi.

Zotlarni tanlash va juftlash birligi asosida takomillashtirish jarayoniga seleksiya deyiladi. Insonning itlarga har xil usullar yordamida ta'sir ko'rsatishi natijasida tanlash va juftlashning yaratuvchi kuchi yanada yaqqol ko'rinadi. Jumladan, inson itlarni asrashi, sharoitini o'zgartirishi, turli urchitish usullarini qo'llashi, xilma-xil chatishtirishlarni amalga oshirishi oqibatida hayvon organizmida u yoki bu sifat o'zgarishlarni paydo qiladi. Bu o'zgarishlar tanlash va juftlash uchun material hisoblanadi. Masalan, turli urchitish usullarini qo'llash natijasida hayvonning tirik og'irligi, sifat ko'rsatkichlari, tana tuzilishini yaxshilash, ya'ni o'zgartirish mumkin.

Mutaxassis hayvon organizmidagi har bir o'zgarishni ilg'ab olib, uning nasldan naslga mustahkam berilishini ta'minlashi lozim. Buning uchun avvalo ana shunday yangi sifatga ega bo'lgan hayvonlarni tanlay bilish, keyin ularga muvofiq keladigan erkak hayvon bilan juftlash kerak. Bu belgilarning avloddan avlodga mustahkam berilishiga olib keladi.

5.4. Saralashning gomogen va geterogen usullari

Zotdor hayvonni ajratish uchun seleksionerlar juftlash usulidan foydalanadilar. Saralash gomogen, geterogen va tenglashtiruvchi bo'lishi mumkin.

Gomogen saralashda erkak va urg'ochi itlar eksteryer va konstitutsiya bo'yicha bir xil sifatlarga ega bo'ladi.

Ayrim paytlarda genotip (naslli belgilar) va fenotiplarning (tashqi sharoitlar ta'sirida genotipning ifodalanishi) bir xiligi qo'llanadi, ya'ni qarindoshlararo urchitish — imbriding amalga oshiriladi. Bunday saralashning maqsadi — turli qarindoshlik darajasida bo'lgan ota-onaning qiymatli o'xshash

(gomozigotli) naslli sifatlarini saqlash, mustahkamlash va ko'paytirishdir.

Getero-gen saralashda erkak va urg'ochi itlar har xil ekster-yer sifatlarga ega bo'ladi (masalan, erkak it «a'lo», urg'ochi it esa «yaxshi» baholansa). Bunda ko'p sonli naslli hayvonlar qo'llanishi ta'minlanadi, avlodda foydali xususiyatlar mustahkamlanadi, zot ichidagi qiymatli sifatlar tarqalishiga yordam beriladi. Getero-gen usuli to'g'ri qo'llanganda va to'g'ri o'stirishda ikkinchi va uchinchi bo'g'in 1-klassli hayvonlarning avlodlari naslli dara-jaga o'tadilar.

Getero-gen saralashda odatda, erkak it urg'ochiga nisba-tan yuqori sifatlir oq bo'lishi lozim. Buni e'tiborga olish kerak, chunki «teskari» seleksiyani qo'llash, ya'ni erkak itning sifat ko'rsatkichlari urg'ochinikidan pastroq bo'lsa olinadigan avlod-niing sifati pasayadi.

Tenglashtiruvchi saralashda erkak it va urg'ochi it eksteryerlari-da farq uncha katta bo'lmaydi, masalan, «a'lo» baholi erkak it, «juda yaxshi» baholangan urg'ochi it bilan juftlashtiriladi. Ammo bitta nasldor hayvonning kamchiliklarini boshqa nasldor hayvon-niing kamchiliklari bilan qoplab (masalan, erkak itning «nedokus» (noto'g'ri tishlanishini) urg'ochi itning «perekusi» (noto'g'ri tish-lanish) bilan, to'g'ri «prikus» (tishlanish)li avlod dunyoga kelishi-ni kutish noto'g'ri bo'ladi. Tenglashtiruvchi saralashning maqsa-di ota-onasining qiymatli belgilarini o'zida saqlab qolgan va sifat bo'yicha ulardan o'zgan avlodni olishdir.

Naslli barqarorlik avtomatik imbridingda, ya'ni uzoq qarindosh bo'lgan erkak it va urg'ochi itlarni juftlashtirishda hosil bo'ladi.

Imbriding. Yaqin qarindoshlar orasidagi majburiy imbriding-da (tig'iz imbriding) odatda olingan avlodning konstitutsiyasi va asab tizimi kuchsizlanadi, eksteryeri maydalashadi, mahsuldorli-gi pasayadi, it bolalari o'lik va majruh tug'ilishi kuzatiladi. Tig'iz imbriding faqat malakali mutaxassis tomonidan alohida seleksion ishlarni olib borilishini talab qiladi, bunda ona it va bolalari yax-shi sharoitda saqlanishlari kerak.

Imbridingni belgilash uchun rim raqamlaridan foydalaniladi. Bunda avval ona tarafning shajarasi, keyin otaniki boradi: I—I

raqamlar bilan ona va ota belgilanadi, keyin II, II—II, II raqamlar bilan ona va ota tarafdan momo va bobolari, III—III momo va bobolarning ona va otalari belgilanadi va h.k..

Imbridingning quyidagi turlari tafovut qilinadi:

1. *Juda yaqin qarindoshlik urchitish* («qon aralashish») zararli va xavfli boʻlib, istisno sifatida qoʻllanadi, bunda urchitilayotgan hayvonlarning qarindoshlik darajasi birinchi uch boʻgʻin atrofiga boʻladi, yaʼni otasi qizi bilan (II—I), oʻgʻli onasi bilan (I—II), akasi singlisi bilan (II—II), nevarasi bobosi bilan (I—III), momosi nevarasi bilan (III—I) juftlanadi.

2. *Yaqin qarindoshlik urchitishda* olinadigan avlodning hayotiyliги pasaymaydi va ajdodlarning kerakli belgilari mustahkamlanadi va kuchaytiriladi. Qarindoshlik darajasi ikkinchidan toʻrtinchi boʻgʻingacha boʻladi: II—III, III—II, III—III, I—IV, IV—I, II—IV, IV—II (ona bobosi bilan, momo ota bilan, ona tarafdan momo ota tarafdan bobo bilan va h.k.).

3. *Oʻrtacha qarindoshlik urchitish* olinadigan avlodlarga yaxshi taʼsir etadi. U beshinchi boʻgʻingacha boʻladi: I—V, V—I, III—IV, IV—III, II—IV, V—II, I—VI, VI—I.

4. Uzoq qarindoshlik urchitishda (avtomatik imbriding) qarindoshlik darajasi beshinchi boʻgʻindan yuqori boʻladi.

5.5. Itlarning shajarasini tuzish, ularni kelib chiqishi boʻyicha baholash

Itni nasl shajarasi va avlodi boʻyicha baholash katta ahamiyatga ega. Shajara kartochkasi boʻyicha itning kelib chiqishi, zoti, naslli sifatlarining xususiyatlari va boshqalar aniqlanadi. Shajara qarindoshlik juftlashishlarga yoʻl qoʻymaydi.

Hayvonlarning kelib chiqishiga qarab baho berish uchun maʼlum shaklda ularning shajara daftari tuziladi va ichiga ular ajdodining sifatleri toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yoziladi.

Nasl olinadigan hayvonlarni, xususan, erkak itlarni tanlashda avlodining sifatini, yaʼni yuqori xizmat sifat xususiyatlarini avlodga oʻtkazish qobiliyati eng muhim koʻrsatkich hisoblanadi. Shajara hayvonga avlodning sifatiga qarab baho berishga misol boʻladi.

Bunday baho berishda uning avlodining sifati, boshqa erkak itlar sifatleri, guruh bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar, shu yoshdagi onalarining sifatleri bilan solishtiriladi. Har xil belgilarning irsiylanishiga baho berish — irsiylanuvchilik koeffitsientini, seleksion indeksleri hisoblab chiqish usullari mavjud.

5-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat

Zotli itlarning shajarasini tuzish, ularni kelib chiqishi bo'yicha baholash

Mashg'ulot maqsadi: itlarning shajarasini tuzishda e'tibor beriladigan tomonlari, uning ahamiyati va zotli itlarni kelib chiqishi bo'yicha baholash mezonlarini aniqlash.

Uslubiy ko'rsatmalar: mashg'ulot o'quv xonada olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlarning avlod bukletlari, rasmlari va atlaslar bo'lishi kerak. Har xil zotlarga mansub itlarning kelib chiqishi bo'yicha baholash mezonlari aks ettirilgan uslubiy ko'rsatmalar.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli zotlar aks ettirilgan avlod bukletlari, rasmlar, plakatlar, albomlar, mulyajlar, videotasvirlar, videoproyektor, kompyuter, tarqatma materiallar.

Topshiriq: 3—4 ta guruhga bo'lingan talabalar o'qituvchi avvaldan tayyorlagan zotli itlarning shajara kartochkasi namunasida biror-bir zotga mansub bo'lgan it avlodining bukletini (shajara kartochkasi) tuzadilar va ularni kelib chiqishi bo'yicha baholash o'tkaziladi.

Itni nasl shajarasi va avlodi bo'yicha baholash katta ahamiyatga ega. Shajara daftari bo'yicha itning kelib chiqishi, zoti, naslli sifatlarining xususiyatlari va boshqalar aniqlanadi. Shajara qarindoshlik juftlashishlarga yo'l qo'ymaydi.

Hayvonlarning kelib chiqishiga qarab baho berish uchun ma'lum shaklda ularning shajara daftari tuziladi va ichiga ular ajdodining sifatleri to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladi.

Nasl olinadigan hayvonlarni, xususan, erkak itlarni tanlashda avlodining sifatini, ya'ni yuqori xizmat sifat xususiyatlarini avlodga o'tkazish qobiliyati eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Shajara hayvonga avlodning sifatiga qarab baho berishga misol bo'lad.

Bunday baho berishda uning avlodining sifati, boshqa erkak itlar sifatlari, guruh bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar, shu yoshdagi onalarining sifatlari bilan solishtiriladi. Har xil belgilarning irsiylanishiga baho berish — irsiylanuvchilik koeffitsientini, seleksion indeksni hisoblab chiqish usullari mavjud.

Masalan: «Fil» laqabli O'rta Osiyo ovcharkasining avlod bukletini tuzish.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Hayvonning genotipi va fenotipi tushunchalariga izoh bering.
2. Tanlashda hayvonlar nimalar bo'yicha baholanadi?
3. Shajara tushunchasiga izoh bering.
4. Shajara daftariga nimalar kiradi?
5. Avlodga qarab baholashda qanday mezonlar qo'llanadi?

6-MAVZU. ITLARNI URCHITISH USULLARI (2 SOAT)

6.1. Itlarni urchitish haqida tushuncha. Urchitish usullari va klassifikatsiyasi

Barcha zotdor itlar ko'cha itlaridan keskin ifodalangan eksteryer va xizmat sifatлари bilan ajralib turadi. Zotning ijobiy xususiyatlari tizimli ravishda bajariladigan sun'iy tanlash va juftlash yo'llari bilan yaxshilanib turishi kerak. Aks holda zot asta-sekin o'zining ijobiy xususiyatlarini yo'qotadi.

Urchitish usuli deb eng qimmatli xizmat sifatlariga ega bo'lgan nasl olishga yo'naltirilgan bir yoki har xil zotlarga mansub itlarni rejali juftlash tizimiga aytiladi.

Quyidagi urchitish usullari qo'llanadi: toza (sof) zotli urchitish, zotlararo chatishtirish, turlararo duragaylash (gibridizatsiya).

Toza (sof) zotli urchitishda bir zotga kiruvchi erkak va urg'ochi itlar o'zaro juftlanib nasl olinadi. Ulardan tug'ilgan bolalar ham shu zot bo'yicha toza (sof) zotli deb hisoblanadi. Masalan: nemis ovcharkasining zotli urg'ochisi shu zot erkak it bilan juftlanishiga toza zotli urchitish deyiladi. Hayvonlarning toza zotli ekanligi nasl-nasab shajarasidagi yozuvlarga qarab aniqlanadi. Agar hujjatlar mavjud bo'lmasa, unda hayvonlarni maxsus komissiya — ularning konstitutsiyasiga, xizmat yo'nalishi va uning darajasiga qarab aniqlanadi. Sof zotli urchitishda bir xil irsiyatga ega bo'lgan o'xshash hayvonlar olinadi. Ular xizmat sifatleri va tuzilishi bo'yicha ota va onalariga o'xshash bo'ladilar.

Zotlararo chatishtirishda bir turga kiruvchi har xil zotlarning urg'ochi va erkaklari o'zaro chatishtiriladi va bundan olingan avlodlarga duragaylar yoki metislar deyiladi.

Turlararo duragaylash (gibridizatsiya) yoki gibridlashtirishda har xil turlarga mansub bo'lgan urg'ochi va erkak hayvonlar o'zaro qo'shiladi va olingan avlodga duragaylar yoki gibridlar deyiladi. Masalan, itchilikda odatda gibridizatsiyaga it bilan bo'ri yoki shaqalni o'zaro qo'shilishiga aytiladi (xizmat itchiligi-da qo'llanmaydi).

Yuqoridagi usullar o'zaro bog'liq bo'lib, xilma-xil itchilik tarmoqlarida to'xtovsiz qo'llanadi. Yangi it zotlarini yara-

tish ko'pincha chatishtirish usullari yordamida amalga oshirilsa, mavjud zotlarni mustahkamlash va yanada takomillashtirish toza zotli urchitish usuli bilan amalga oshiriladi.

6.2. Sof zotli urchitish

Itchilikda asosan *sof zotli* urchitish usuli, ya'ni bir zotga mansub itlarni juftlash va qo'shish qo'llanadi. Itlarni sof zotli usulda urchitish, zot ichidagi o'zgaruvchanlikni qo'llash yo'li bilan itlarning ishchanlik sifati va eksteryer shakllarini quvvatlash hamda takomillashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Bunda iloji boricha eksteryeri o'xshash va ishchanlik sifati bir xil bo'lgan avlodni olishga intilish lozim. Sof zotli urchitishda zotni har tomonlama yaxshi va chuqur bilish hamda kichik, birinchi ko'rinishda ahamiyatsiz cheklanishlarga ahamiyat berish kerak. Bunday cheklanishlar keyinchalik, zot bilan naslchilik ishida, juda qimmat bo'lishi mumkin. Zot qancha uzoq vaqt davomida toza usulda urchitilsa, u shuncha mustahkam va sifatli bo'ladi.

Sof zotli urchitishda qarindoshligi bo'lmagan hayvonlarni urchitish, har xil qarindoshlik darajasida bo'lgan itlarni qarindoshlararo urchitish va liniyalararo urchitish usullari qo'llanadi. Amaliyotda ko'pincha *qarindoshligi bo'lmagan* hayvonlar urchitiladi. Bunda qo'shish uchun qondosh bo'lmagan erkak it va urg'ochi it tanlanadi. Bunday juftlashda eng mustahkam va hayotga moslashadigan nasl olinadi. Olingan it bolalari, ishchanlik sifati va chidamliligi bo'yicha o'zlarining ota-onalaridan ustun bo'ladilar.

Qarindoshlararo (inbriding) urchitish tizimsida o'zaro qondosh bo'lgan itlar qo'shiladi (aka bilan singil, ota bilan qizi va hokazo). Bunday usulni juda ehtiyot bo'lib va aniq maqsad bilan qo'llash lozim. Chunki olingan avlod, bir tomondan, ajdodlarning ijobiy xislatlarini o'ziga olishi bilan bir qatorda, ularning yomon sifatlariga ham ega bo'ladilar. Undan tashqari bunday hayvonlarning hayotiyiligi va ishchanligi past, skeleti kuchsiz, o'sishi va rivojlanishi sust, konstitutsiyasi kuchsiz, tishlari sifatsiz bo'ladi. Ular kasalliklarga ko'p chalinadi. Ayrim hollarda majruhlarni tug'ilishi mumkin.

Liniyalararo urchitish eng qiyin usul bo'lib hisoblanadi. Liniya deb bir zotga mansub, umumiy ajdodga ega va unga eksteryer, konstitutsiya hamda ishchanlik qobiliyati bo'yicha o'xshash bir guruh itlarga aytiladi. Qondosh va zavod liniyalari bo'lishi mumkin.

Qondosh liniya deb bitta nasldor itdan kelib chiqadigan avlodga aytiladi.

Zavod liniyaga faqat nasldor hayvonga eksteryer xizmat sifat-lari va naslli xususiyatlari bilan aynan o'xshash yoki undan us-tun bo'lgan itlar kiradi. Liniyalar, ularga asos solgan, ya'ni ular-ni boshlagan itlarning laqablari bilan nomlanadi.

6.3. Chatishtirish turlari

Chatirishda har xil zotga mansub erkak va urg'ochi itlar qo'llanadi. Bu usulni qo'llashdan maqsad yangi zotning duragay-larini yaratish. Odatda duragaylar chidamliroq, mahsuldor bo'lib, muhitga yaxshiroq moslashadi, konstitutsiyasi mustahkamroq — ular ko'proq hayotga moslashadigan.

«*Qon singdirib chatishtirish*»ni sifat xususiyatlari yetarlicha bo'lmagan zotlarni yaxshilash usuli sifatida qo'llaydilar. Bu usul-da turli darajadagi zotdor hayvonlar olinadi. Masalan, 2 ta zot-ni chatirishda I bo'g'in duragaylar olinadi; II bo'g'inda duragay-ni toza zotli vakili bilan chatishtirishda avlod qoni to'rtidan uch qismi bitta zotga va to'rtidan bir qismi ikkinchi zotga mansub bo'ladi.

Agar duragayni uchinchi zotga mansub toza zotli it bilan chatishtirilsa avlodi murakkab duragaylar bo'lib chiqadi, bunda qonining yarmi uchinchi zotga, ikkita choraklari esa avvalgi ik-kita zotlarga mansub bo'ladi.

Duragaylarni tanlab olingan toza zotli itlar bilan chatishti-raversa zotdorlik yildan yilga va avloddan avlodga oshib bora-veradi. Odatda 4—5 avloddan so'ng (yaxshilanadigan zotning tipi yaxshi ifodalanishida) olingan individlar toza zotli deb hisobla-nadi.

«*Qon quyish*» deb ataladigan chatishtirish usuli zot yaxlitligini buzmaydi, tip va spetsifik foydali sifatlarini saqlab qoladi. Odat-da faqat «bir tomchi qonni qo'shish» usuli qo'llanib, yaxshilana-

yotgan va yaxshilaydigan zotlar eksteryer va mahsuldorlik bo'yicha o'xshash bo'lishi kerak. Bunda asosiy vazifa qandaydir bitta zot sifatini yaxshilash bo'ladi.

Ishlab chiqarish asosida chatishtirishda (oddiy ikki zot va murakkab uch-to'rt zotlar) ishtirok etadigan barcha zotlarning foydali sifatlarini o'zida mujassam etadigan yangi zot yaratiladi. Deyarli hamma zavod zotlari bu usulda ishlab chiqilgan. Bunga misol doberman-pincher zotining yaratilishi.

Odatda asos sifatida mazkur territoriyada mahalliy, aklimatizatsiya bo'lgan zot va turli yo'nalishlar bo'yicha yuqori mahsuldor, ko'pincha olib kelingan zotlar qo'llanadi. Undan tashqari yosh hayvonlarni saqlash, oziqlantirish va o'stirishning yaxshi sharoitlari, chatishtirishda birlamchi zotlarni to'g'ri tanlash uchun 1-avlodning sifati va olingan avlod bo'yicha katta miqdordagi hayvonlar orasida imbriding va qat'iy saralash ishlarining olib borilishi katta ahamiyat kasb etadi.

6.4. Har xil it zotlarini ma'lum maqsadda o'zaro chatishtirish

Chatishtirish hayvonlarning stixiyali qo'shilishi sifatida juda qadim zamonlardan beri ma'lum. Chatishtirish hayvonlarni ongli ravishda yaxshilovchi usul sifatida o'rta asrlardan boshlab qo'llanilgan.

Ko'pgina urushlar (masalan, mastif it zotining paydo bo'lishi) va savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida chatishtirish yo'li bilan yangi it zotlari paydo bo'ldi.

Shunday qilib, chatishtirishning tarixiy sabablari qadimgi xalqlar va qabilalarning ko'chmanchi hayoti, urushlar va xalqlar o'rtasidagi savdo aloqalari bo'lgan.

Ammo feodalizm davrida xo'jaliklar yarim natural va birbiridan ajratilganligi sababli chatishtirishni qo'llash unchalik rivojlanmagan. Kapitalizm taraqqiyoti ko'pgina madaniy zavod zotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu chatishtirishdan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Hozirgi vaqtda qariyb hamma zavod it zotlari chatishtirish yordamida yaratilgan.

Toza zotli urchitishda maxsus juftlash natijasida hayvonlar irsiyati bir-biriga ancha o'xshash bo'lib, ular qariyb bir xil shaklga ega bo'ladilar.

Duragaylar esa irsiyatning bir xil bo'lmashligi yuqori geterozigotlikning bo'lishini, keyinchalik ularni o'z-o'zi bilan chatishtirganda xillanishga olib kelib, har xil bolalarning tug'ilishiga, ularda katta o'zgaruvchanlik va har xil shakllarning paydo bo'lishiga olib kelishini Ch. Darvin o'z ta'limotida ko'rsatib o'tgan.

Chatishtirish duragaylarda har xil zotli hayvonlar xususiyatlarining qo'shilishiga, ularning hayotchanligi va sifat xususiyatlari oshishiga, ya'ni geterozisning yuz berishiga, har xil tashqi ta'sirlarga tez moslashuviga olib keladi. Duragaylarda tashqi muhit sharoitini tanlash xususiyatlari ancha pasaygan bo'lib, ular yangi sharoitga tez ko'nikadilar va natijada ma'lum yo'nalishda tez o'zgarib boradilar.

Shuning uchun chatishtirishda «mahalliy» yoki boshqacha qilib aytganda kerakli yo'nalishda sifat xususiyatlari uncha yaxshi bo'lmagan it zotini «yaxshilovchi» zot, oziqlantirish, asrash sharoitlariga va iqlimga mos keluvchi zot bo'lishi zarur. Shu bilan birgalikda «yaxshilovchi» zotga o'tkaziladigan belgilarni rivojlantirish uchun yaxshi oziqlantirish va saqlash sharoitini yaratish lozim. Aks holda kerakli bo'lgan belgilar mahalliy zotga o'tmasligi va hatto u o'zining qimmatli xususiyatlarini yo'qotib qo'yishi ham mumkin. Chatishtirish uchun zotlarni tanlashda, chatishtirish maqsadi va shu xizmat turining yo'nalishi hisobga olinishi lozim.

Chatishtirishda «yaxshilovchi» zotning eng yaxshi naslli erkak itini tanlab olish zarur, «yaxshilovchi» zotda ham belgilari yaxshi rivojlangan, mahalliy sharoitga juda yaxshi moslashgan urg'ochi hayvonlar ajratib olinishi zarur.

Har xil hayvonlarning o'zaro chatishishi natijasida olingan duragaylarda belgilarning katta o'zgaruvchanligi yoki geterozigotlik kelib chiqadi. Bu hayvonlarni tanlash va juftlash imkoniyatini oshiradi va yangi yuqori xizmat sifatlariga ega zotlar yaratishga yordam beradi.

Duragaylarda «duragaylik quvvati yoki geterozis» hodisasi ro'yobga chiqib ularning tez o'sishi va rivojlanishiga, yuqori xizmat mahsuldorligiga ega bo'lishiga olib keladi.

Chatishtirish natijasida har xil hayvon zotlarining har xil belgilari xilma-xil ravishda o'zaro qo'shib kombinatsion o'zgaruvchanlik yordamida yangi it zotlari yaratiladi.

Duragaylarda irsiyat bo'shashadi va boyiydi, ular tashqi muhit va tarbiyalash yordamida istalgan tomonga tez o'zgarishga moyil bo'ladilar. Bu yosh duragay hayvonlarni maqsadga muvofiq tarbiyalash yordamida ma'lum xizmat yo'nalishidagi hayvonlarni yetishtirishga olib keladi.

6.5. Itchilikda gibrizatsiya, uni qo'llashning ahamiyati


Urchitishning yana bir usuliga turlararo chatishtirish, ya'ni turlararo gibrizatsiya kiradi. Bunda itlarni shaqal, bo'ri bilan chatishtiradilar.

Itlarning uzoq ajdodlari bo'lib yovvoyi bo'ri va shaqallar hisoblanadi. Buni bir nechta belgilar isbotlaydi: birinchidan — ayrim zotlar sun'iy tanlash ta'sirida kam o'zgarganlar va ko'p xislatlari bilan bo'rilarni eslatadilar (Yenisey, Chukotka, Kolima va Kanada shimolining laykalari hamda nemis ovcharkasi); ikkinchidan — serpushtlik va itni bo'ri yoki shaqal bilan chatirishdan hosil bo'lgan va normal rivojlanadigan duragaylar; uchinchidan — layka va boshqa it zotlarining skeleti shaqalnikiga o'xshashligi; to'rtinchidan — hozir ham bo'ri, pesets yoki tulkini osonlikcha qo'lga o'rgatish mumkin, shu bilan birga it odamning qarovidan qolsa tezda yovvoyillashib ketadi. Ammo itlarga faqat bo'ri va shaqallar yaqin bo'ladi. Giyena, pesets, tulki va brazil itlari uy itlariga o'xshashliklariga qaramasdan, ularning ajdodlari hisoblanmaydi, chunki ular it bilan chatishtirganda avlod bermaydi.

6.6. Turli xil chatishtirish chizmasini tuzish va tahlil qilish. Duragay itlarda qon ulushini hisoblash

Qon singdirib chatishtirishda mahalliy zot yaxshilanuvchi, madaniy zot yaxshilovchi deb ataladi. Bir zotni ikkinchi zot bilan yaxshilash, ikki zot o'rtasida duragaylar olish, so'ngra duragaylarni bir necha bo'g'inda yaxshilovchi zot erkak hayvonlari bilan juftlash asosida amalga oshiriladi (1-chizma).

Duragaylarda qonning o'zgarishini aniqlash uchun har bo'g'inda yaxshilovchi A zotning irsiyati 1 ga va yaxshilanuvchi V zotning irsiyati 0 ga teng deb olinadi.



1-chizma. Qon singdirib chatishtirishning sxemasi.

F1 q $(A-V)/2$ q $(1Q0)/2$ q S A

F2 q $(1/2 \cdot AQA)/2$ q $(1/2Q1)/2$ q $(3/2)/2$ q s A

F3 q $(3/4 \cdot AQA)/2$ q $(3/4Q1)$ q $(7/4)/2$ q $7/8$ A

F4 q $(7/8 \cdot AQA)/2$ q $(7/8Q1)/2$ q $(15/8)/2$ q $15/16$ A


Boshqacha qilib aytganda qon singdirib chatishtirishning 1-bo'g'in duragaylarida yaxshilovchi zot qoni — 50%, 2-bo'g'inda — 75%, 3-bo'g'inda — 87,5% va 4-bo'g'inda — 93%, 75% ni tashkil etadi. Ammo qon bo'lagi nisbiy tushuncha bo'lib, duragaylar orasida har xil genotip va fenotipdagi hayvonlar uchrashi mumkin.

Qon quyib chatishtirishda umuman biror zotning ayrim kamchiligini tuzatish yoki ayrim xususiyatlarini yanada kuchaytirish maqsadida qo'llanadi.

Bu chatishtirishda yaxshilovchi zotning qimmatli xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilinadi. Bu yaxshilovchi zotni to'g'ri tanlash va uning erkak hayvonlaridan bir marta foydalanish yordamida amalga oshiriladi.

Yaxshilovchi zot yaxshilovchi zotga tana tuzilishi va sifat-lari jihatidan yaqin bo'lib, ayrim qimmatli xususiyatlari yaxshilovchi zotdagiga qaraganda kuchli rivojlangan bo'lishi zarur.

Bu usulda birinchi bo'g'in duragay olinadi va u yaxshilanuvchi zot erkak hayvonlari bilan qochirilib, ikkinchi bo'g'in duragaylar olinadi. So'ngra esa ular o'z-o'zi bilan urchitiladi. Ba'zi hollarda ikkinchi bo'g'in duragaylari yana yaxshilanuvchi zot erkak hayvonlari bilan chatishtirib olingan 3-bo'g'in duragaylarini o'z-o'zi bilan urchitiladi (2-chizma).




2-chizma. Qon quyib («O'z-o'zi bilan urchitish») chatishtirish sxemasi.

Almashlab yoki rotatsion chatishtirish sxemasi chatishtirishning bir turi bo'lib, foydalanuvchi guruh hayvonlar olish uchun qo'llaniladi. Almashlab chatishtirishning sanoat chatishtirishdan farqi, birinchi bo'g'in duragaylarga olinmasdan balki bir necha bo'g'in duragaylar olinadi, ularda geterozis xususiyati uzoq saqlanadi. Bu usulda bir zotning urg'ochi hayvonlari boshqa zot erkak hayvonlari bilan juftlanadi.

So'ngra duragaylarning urg'ochilari boshlang'ich zot erkak hayvonlari bilan qochiriladi va keyinchalik har bo'g'inda erkak hayvonlar har xil zotlar bilan almashtirib boriladi. Bu usul bilan

chatishtirishda keyingi bo'g'in duragaylarda genetik farq kamayib ketishi natijasida, geterozis xususiyati pasayadi.



3-chizma. Hayvonlarni almashlab chatishtirishda ikki va uch zotni almashlab chatishtirish sxemalari.

6-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat

Sof zotli urchitish, chatishtirish turlari va ularning ahamiyati

Mashg'ulot maqsadi: Itchilikda sof zotli urchitishning ahamiyati, chatishtirish turlari va uni pitomniklar sharoitida qo'llash.

Uslubiy ko'rsatmalar: Mashg'ulot o'quv xonada olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlarning rasmlari, atlaslar va avlod bukletlari bo'lishi kerak. Keyinchalik mashg'ulot it pitomnigi sharoitida davom ettiriladi. Unda har xil zotga mansub bo'lgan itlar ajratib olinadi va sof zotli urchitish, chatishtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi, sxemalar tuziladi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli zotlar aks ettirilgan avlod bukletlari, urchitish va chatishtirish sxemalari, rasmlar, plakatlari, albomlar, mulyajlar, videotasvirlar, videoprojektor, kompyuter, tarqatma materiallar.

Topshiriq: Talabalar 3—4 ta guruhga bo‘linib, sof zotli urchitish uchun urg‘ochi va erkak itlarni yo‘nalishlariga va xizmat sifatlariga qarab tanlaydi, har xil zotga mansub itlarni chatishtirish natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan sifat belgilarini aniqlaydilar.

Itchilikda asosan *sof zotli* urchitish usuli, ya‘ni bir zotga mansub itlarni juftlash va qo‘shish qo‘llanadi. Itlarni sof zotli usulda urchitish, zot ichidagi o‘zgaruvchanlikni qo‘llash yo‘li bilan itlarning ishchanlik sifati va eksteryer shakllarni quvvatlash hamda takomillashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Bunda iloji boricha eksteryeri o‘xshash va ishchanlik sifati bir xil bo‘lgan avlodni olishga intilish lozim. Sof zotli urchitishda zotni har tomonlama yaxshi va chuqur bilish hamda kichik, birinchi ko‘rinishda ahamiyatsiz cheklanishlarga ahamiyat berish kerak. Bunday cheklanishlar keyinchalik, zot bilan naslchilik ishida, juda qimmatli bo‘lishi mumkin. Zot qancha uzoq vaqt davomida toza usulda urchitilsa, u shuncha mustahkam va sifatli bo‘ladi.

Sof zotli urchitishda qarindoshligi bo‘lmagan hayvonlarni urchitish, har xil qarindoshlik darajasida bo‘lgan itlarni qarindoshlararo urchitish va liniyalararo urchitish usullari qo‘llanadi. Amaliyotda ko‘pincha *qarindoshligi bo‘lmagan* hayvonlar urchitiladi. Bunda qo‘shish uchun qondosh bo‘lmagan erkak it va urg‘ochi it tanlanadi. Bunday juftlashda eng mustahkam va hayotga moslashadigan nasl olinadi. Olingan it bolalari ishchanlik sifati va chidamliligi bo‘yicha o‘zlarining ota-onalaridan ustun bo‘ladilar.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o‘tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. Itchilikda doimiy sun‘iy tanlash va juftlashlar olib borilmaganda qanday o‘zgarishlar yuzaga keladi?
2. Toza (sof) zotli urchitish tushunchasining tavsifi.
3. Toza (sof) zotli urchitish usullarini ayting.
4. Zotlararo chatishtirish nimalardan iborat?
5. Chatishtirish usullarini ayting?
6. Yaxshilovchi zot tushunchasiga izoh bering.
7. Toza zotli urchitishda qanday talablar ahamiyatga ega?

7-MAVZU. ITCHILIKDA SELEKSIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH (2 SOAT)

7.1. Sof (toza) zotli itlarni urchitish, ularni tanlash, saralash

Toza zotli itlarni urchitish oʻrta asrlardayoq roʻyobga kelib, ayrim it zotlarini boshqa itlar bilan chatishib ketishidan saqlash maqsadida qoʻllanilgan. Buning sababi ayrim zotlarda boʻlgan qimmatli xususiyatlarni oʻzgarib ketishidan saqlash va ularni mustahkamlashdan iborat edi.

Haqiqatdan ham toza zotli itlarni urchitishning asosiy maqsadi zotning qimmatli xususiyatlarini saqlash va ularni yanada takomillashtirishdan iboratdir. Mana shu vazifani amalga oshirishda quyidagi talablar ahamiyatga egadir:

- yosh hayvonlarni maqsadga muvofiq tarbiyalash, hayvonlar uchun kerakli boʻlgan oziqlantirish va saqlash sharoitlarini yaratish;

- nasl olish uchun qoldirayotgan har bir hayvonni toʻgʻri tanlash;

- zotning koʻp sonli boʻlishi va keng tarqalishini taʼminlash;

- zot ichida ekologik guruhlar, mintaqaviy xillar, tizim va oilalar yaratish;

- toʻxtovsiz tanlash va juftlashni olib borish va hokazo.

Toza zotli urchitishda progressiv zot ichidagi hayvonlarning irsiy jihatdan bir xil boʻlmasligiga, yaʼni ulardagi oʻzgaruvchanlikning katta boʻlishiga asoslanadi. Madaniy yoki zavod zotlarida oʻzgaruvchanlik primitiv zotlarga nisbatan katta boʻlganligi tufayli, ulardagi progress toza zotli urchitish yordamida amalga oshirilishi mumkin. Demak, zavod zotlarida tanlash uchun imkoniyat katta va shuning uchun ularda tanlash samarasi ancha yuqori boʻladi. Bu usul yordamida chet ellarda «Nemis ovcharkasi», «Sharqiy Yevropa ovcharkasi» zotlari takomillashtirilgan.

Toza zotli urchitish yordamida xizmat sifati koʻrsatkichlari eng yuqori boʻlgan hayvonlar yaratilgan.

Shunday qilib, madaniy zotlar asosan toza zotli urchitish usulida koʻpaytirilishi lozim. Baʼzi hollarda xizmat koʻrsatkichlari yetarlicha boʻlmagan past zotlarni ham toza zotli urchitish yoʻli bilan yaxshilash mumkin.

Toza zotli urchitish har xil tanlash va juftlash usullari yordamida amalga oshiriladi. Toza zotli urchitishda hayvonlarning sifatini baholash uchun zot andazasi bilan taqqoslaydilar. Zot andazasi hayvonlarning yaroqliligi, tana tuzilishi, kelib chiqishi bo'yicha tanlashdagi minimal talabni ko'rsatadi. Bonitirovka paytida hayvonlarning ko'rsatkichlari andaza bilan solishtirilib, unga baho yoki sinf beriladi. Naslchilik kitobiga yozilayotgan hayvonlarning sifat ko'rsatkichlari birinchi sinf talabidan yuqori bo'lishi kerak.

7.2 It bolalarining o'sish va rivojlanishini nazorat qilish, ularni asrash, boqish, tanlab olish, istiqbolini aniqlash, trening uchun tayyorlash yo'llari

It bolalarining o'sish va rivojlanishini nazorat qilish. It bolasining normal o'sishi va rivojlanishi quyidagilarda ifodalanadi: 5–8 kunda eshitish yo'li ochiladi va eshitish qobiliyati rivojlana boshlaydi. 14–15 kunda eshitish qobiliyati normallasadi; 10–15 kunda ko'zlari ochila boshlaydi; 20–25 kunda sut tishlari chiqib boshlaydi (8–10 kunda qoziq va kesuvchi tishlar, 60 kunda asosiy sut tishlari to'liq chiqadi).

It bolalarining normal o'sishini va rivojlanishini ularning vazni ko'rsatadi. Dastlabki 10 kunda it bolalari har kuni o'lchanadi. 10 kundan 1 oygacha kunaro, 1 oydan 2 oygacha har 5 kunda, 2 oydan 6 oygacha har 10 kunda va keyinchalik 1 oyda 1 marta o'lchanadi. Natijalar yozib boriladi. Odatda 9 kunda it bolasining vazni ikki barobar oshadi. 18 kunga borib vazn 3,5–4 marta, 25 kunda 5–6 marta, 30 kunda 6–7 marta, 45 kunda 10–11 marta ko'payadi. Bir oylik «Sharqiy Yevropa ovcharkasi»ning vazni 4 kg, «Kavkaz ovcharkasi»niki 4,5 kg, erdel-teryerniki — 3 kg, doberman-pincherniki — 3,2 kg, boksyorniki — 3,2 kg bo'lishi lozim.

It bolasining oyoqlari 4 haftadan so'ng uzunlikka o'sa boshlaydi, «Sharqiy Yevropa ovcharkasi»ning quloqlari 7 haftadan so'ng ko'tariladi. 2–6 oylik davrda oyoqlar 2,5–3 marotaba o'sadi. Va amalda naysimon suyaklarning o'sishi shu bilan tugaydi. Ko'krakning rivojlanishi ham 6 oyga borib tugaydi. Kaft aylanasi o'sishi (uning yag'rin balandligiga nisbati skeletning mustahkamligini ifodalaydi) 4–6 oyga borib tugaydi. Shunday qilib itning o'sishi asosan 6 oygacha kechadi. Yag'rin balandli-

gi 4 oygacha 87,5–108% ni, 4 dan 6 oygacha 3,5–7% ni, 6 dan 8 oygacha 7,1–8,3% ni tashkil qiladi. 6 oydan 12 oygacha asosiy ko'rsatkichlar (yag'rin balandligi, tananing qiya uzunligi, ko'krak enligi, kaft aylanasi) bo'yicha o'sish to'xtaydi, ammo rivojlanish va eksteryer shakllanishi 2–2,5 yoshgacha davom etadi.

It bolasining rivojlanishida bir nechta davrlar kuzatiladi:

I. Yangi tug'ilish davri (1–15 kunlar). Birinchi kunlarda it bolasi umuman himoyasiz bo'lib tana harorati atrof-muhitga bog'liq, u ko'rmaydi va eshitmaydi, ammo emish va ozuqa reaksiyalari dastlabki daqiqalardan rivojlangan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan termoregulyatsiya ishlay boradi, eshitish yo'llari ochiladi, 15 kunga borib ko'zlari ochiladi va u emaklashni boshlaydi.

Tuqqandan keyin urg'ochi it bolalarini bosib mayib qilishi mumkin bo'lgani sababli maxsus quti yasaladi. Qutining ichki chetlariga, yotgan it balandligida gorizontol holatda taxta qoqib chiqiladi. It bolasi uning tagida yotganda xavfdan holi bo'ladi. Tozalash ishlari oson kechishi uchun qutining tubi plyonka bilan qoplanishi tavsiya etiladi. Qutining to'shamasi quruq va toza bo'lishi kerak, buning uchun quti tubining bir qismi palos bilan qoplangan bo'lib, unda it va bolalari uxlasa, ikkinchi qismiga it bolalari tezaklaydi.

It bolalari tug'ilishining birinchi kunida zavodchik (itlarni ko'paytirish bilan shug'illanadigan odam) ularni tusini, majruhlik bor yoki yo'qligini tekshirishi lozim. Agar it bolasi standartga to'g'ri kelmasa uni keyinchalik qanday qo'llashni o'ylab ko'riladi.

Odatda bu davrda (3 kunlikda) ayrim zotlarga mansub it bolalarining dumi va ziyod barmoqlari kesib tashlanadi.

II. Sut davri (15–60 kunlar). Bu davrning birinchi yarmida it bolasi ona suti bilan oziqlanadi, ammo 10–15 kunlardan ratsionga turli oqsilli va mineral qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

It bolasida tez rivojlanish, turli reflekslar namoyon bo'lishi kuzatiladi. U juda qiziquvchan bo'lib qoladi. Jun qoplamasi o'zgaradi, ovozi chiqadi, it bolalari o'yinqaroq bo'lib, himoya holatini egallaydi.

Ayrim zotlarga mansub it bolalarining quloqlari 2 oylikda kesiladi.

It bolasini asrash

It bolalarini asrash va parvarishlashda unga qaraydigan shaxs-dan katta e'tiborni va mehrni talab qiladi. It bolalarini parvarish-lash va oziqlantirish ishlari qat'iy reja bo'yicha olib boriladi.

It bolasi o'sishi bilan uni o'stirish rejimi katta yoshdagi itlarga yaqinlashishi lozim. Oqshomda va yomon ob-havoda ular toza va quruq xonada, boshqa vaqtda esa volyerda saqlanishi lozim. Bun-da albatta mahalliy iqlim sharoitlari hisobga olinadi. Cho'ponlik xizmati uchun mo'ljallangan it bolalari otarlarda va poda bilan birgalikda bo'lishi kerak.

Pitomniklarda va sharoiti bor havaskor shaxslar uylarida «so-vuq» o'stirish usulini qo'llash tavsiya qilinadi, ya'ni it bolalari faqat yomon ob-havoda xonaga kiritiladi. 3 oydan so'ng bir xil jismoniy holatiga ega it bolalari 2–3 boshdan guruhlarga bo'linib, keng yayrash joylariga o'tkaziladi. 3 oylik it bolasiga alohida ozu-qa idishi ajratib beriladi. 5–6 oydan ular alohida-alohida ajratilib, har qaysisiga tozalash va saqlash buyumlari biriktiriladi. Oshqo-zon-ichak kasalliklarini oldini olish uchun 2 haftadan 3 oygacha antibiotiklar beriladi. O'z vaqtida degelmintizatsiya o'tkaziladi.

It bolalarini saqlash uchun xonalar. Onasidan ajratilgandan keyin va 6 oyligigacha it bolalari guruh-guruh qilib saqlanadi. Ular uchun sim to'r bilan o'ralgan, katta — 6x6 m keladigan volyer quri-ladi. Uning ichida budkalar va o'yin uchun moslamalar qo'yiladi. 6 oylik yosh itlarni katta hayvonlar singari joylashtiradilar.

It bolasini oziqlantirish

It bolalarining rivojlanishi ularning tug'ilishidan to sutdan ajratilgunicha, asosan dastlabki ikki hafta ichida, emizdiradigan urg'ochi itni to'g'ri oziqlantirish bilan bog'liq bo'ladi. It bola-larini qo'shimcha oziqlantirishni sutdan boshlash lozim. Bunda albatta yangi, suyultirilmagan va sal isitilgan (27°–30°) sut beri-ladi. Echki yoki qo'yning suti eng yaxshi hisoblanadi, chunki bu hayvonlar sutining tarkibi it sutining tarkibiga yaqin bo'ladi. Si-gir sutining tarkibini it sutining tarkibiga yaqinlashtirish uchun uning 0,5–1 litriga 1 ta xom tovuq tuxumi qo'shiladi. It bolalari 2 haftalik bo'lgandan so'ng ularga xom go'sht berib turish kerak.

It bolasi va yosh itlarga beriladigan ozuqa mahsulotlarining kunlik taxmini normalari 2-jadvalda keltirilgan:

It bolalarini oziqlantirish normalari

№	Ozuqa nomi	1 oylik- kacha	1–3 oylik	3–6 oylik	6–12 oylikdan katta
1	Go'sht mahsulotlari	50	150	350	350
2	Yorma	50	100	250	250
3	Kartoshka	50	150	400	400
4	Hayvon yog'i yoki margarin	3	4	10	10
5	Tuz	5	5	10	10
6	Non	70	150	300	300
7	Sut	150	400	100	100
8	Tvorog	20	50	150	150
9	Tuxum sarig'i	1	1	1	—

2 oylik it bolasi bir kunda 4–6 marotaba, 4–6 oyligi 4 marotaba, 6–8 oyligi 3–4 marotaba, 8 oydan 1,5 yoshgacha 3 marotaba oziqlantiriladi. Keyin kuniga 2 marotaba va 3 yoshdan so'ng kechqurun 1 marotaba oziqlantiriladi. Doimo ichimlik suvi turishi lozim.

Bo'tqa bir kunda bir marta beriladi.

Mineral ozuqa qo'shimchasi 1-, 2- oylarda bir kunda 1 choy qoshiqdan 2 marta beriladi.

Mineral ozuqa qo'shimchasining tarkibi

Kalsiy glitserofosfati	20 ta xabdari yoki 20 g
Fitin	20 ta xabdari yoki 20 g
Bo'r	3 osh qoshig'i
Aktivlashtirilgan ko'mir	10 ta xabdari
Xamir achitqisi	1 quti
Suyak uni	20 katta osh qoshig'i

Barcha komponentlar yaxshilab maydalanadi va aralashtiriladi. Undan tashqari 1 oyda bir marotaba 3–5 ta xabdari kalsiy glukonati beriladi. It bolasining tishlarini toza tutish uchun unga

molning yirik suyaklari beriladi. 2 oygacha kuniga 2 soat, 2 oydan so'ng 4 soat sayr qildirish kerak.

Man etiladi:

Parranda, baliq va o'tkir mol suyaklarini berish.

Qo'y, cho'chqa go'shti, cho'chqaning kalla go'shti, dudlangan go'sht.

Ozuqaga lavr bargi, garmdori, tomatni qo'shish.

Dukkaklilarni (no'xot, loviya) berish.

Asosan, ya'ni ko'pincha makaronli ozuqa bilan oziqlantirish.

Qaynatib pishirilgan kartoshkani berish, 1–2 bo'lak xom kartoshka berish mumkin.

Shirinliklarni berish.

Achigan ozuqani berish.

It bolasini tanlash

Shaxsiy maqsadlar uchun qanday jinsli it bolasini tanlab olish lozim? Erkagini-mi yoki urg'ochisini? Urg'ochi itlar o'zini toza tutadi, egasiga ko'proq bog'lanadi, tinchroq bo'ladi. Ammo ular tuqqandan so'ng ko'p muammolar paydo bo'ladi.

Erkak itlar samaraliroq, ammo tinch turmaydigan bo'ladi (ayniqsa urg'ochilar kuyga kelganda).

Qanday bo'lmasin, birinchi navbatda itning shajarasini sinchiklab o'rganish kerak. Keyin it bolalarini tusi va eksteryeri bo'yicha ko'rib chiqish lozim. Bunda boshning shakli, prikus, temperamentiga e'tibor beriladi.

It bolasida ortiqcha barmoq borligi, dumi standart bo'yicha kesilgani tekshiriladi.

It bolalarini istiqbolini aniqlash, trening uchun tayyorlash yo'llari

It bolalarini tarbiyalash ishlari uning mustaqil yurishidan, ko'rinadigan va eshitiladigan qo'zg'atgichlarni qabul qilishidan boshlanib, 12–18 oygacha, ya'ni uni o'rgatish (dressirovka) uchun topshirilgungacha davom etadi.

G.A. Obrazsova itlarda oliy asab faoliyati individual rivojlanish qonuniyatlarining quyidagi birin-ketinligini keltiradi:

1-davr. 1–20 kunlar. It bolalarining moslashish reaksiyasi asosan taktil, propriotseptiv, harorat kabi shartsiz — reflektor tabiatli signallarga javoban hosil bo‘ladi. Bu davrda bosh miya ayniqsa tez o‘sadi.

Birinchidan ikkinchi davrga 2 haftalik o‘tish muddatda barcha analiz qiladigan tizimlar bilan shartli — reflektor bog‘lanishlar hosil bo‘ladi.

2-davr. 5–6 dan 8–12 haftagacha bo‘lgan vaqt. Bu davr shartli — reflektor reaksiyalarning hosil bo‘lishi va kuchayishi bilan xarakterlanadi. O‘yin va o‘rganish reflekslari intensiv namoyon bo‘ladi. Bosh miya po‘stlog‘ining faoliyati oshadi.

3-davr. 3–4 oydan 6 oygacha bo‘lgan vaqt. Miyaning nisbiy o‘sishi pasayadi, 6 oydan so‘ng esa uning absolut massasining o‘sishi tugaydi. Bu vaqtda shartli reflekslarning jadaligi va darajasi pasayadi. 3 oylik it bolasining harakatlanish reaksiyasining spetsializatsiyasi murakkablashadi. Bu davrda itning keyinchalik harakatlarini ta‘minlaydigan asab tizimining tipologik xususiyatlari shakllanadi. Passiv himoyalaniş reaksiyasi rivojlanadi.

Bu ilmiy ma‘lumotlardan foydalanib, it bolalarini tarbiyalash tizimini tuzish lozim. Tarbiyalash vaqtida kuchli qo‘zg‘atgichlar qo‘llanmaydi. Ularga og‘riq chaqiruvchi usullar umuman ishlatilmaydi. Munosabatlar ohista va mehrli bo‘lishi lozim.

It bolalarini ularning yoshini va kelajakdagi xizmat yo‘nalishini inobatga olib o‘rgatish kerak. Mashg‘ulotlar oziqlanishiga oz vaqt qolgan paytda o‘tkaziladi. O‘rgatish joyi ularga tanish va kuchli qo‘zg‘atgichlarsiz bo‘lishi kerak. Keyinchalik o‘rgatish joyi almashtiriladi. It bolalarida keraksiz ko‘nikmalar hosil bo‘lishining oldi olinadi. Tarbiyalovchiga 4–6 ta it bolasi biriktiriladi.

Tarbiyaning muvaffaqiyatli sharti it bolalarining katta itlarga taqlid qilishidir, u yoki bu harakatlarni (buyumlarni ushlab turish, o‘yin, ozuqani va «egasini» izlash va boshq.) bajarishga qiziqtirish uchun ularga mazali ozuqa bo‘lakchalari berib turiladi. It bolalarini toliqtirish umuman yaramaydi, chunki ular lanj va befarq bo‘lib, tarbiyachining buyruqlarini bajarmay qo‘yadi, bu esa keyinchalik tarbiyaga sezilarli zarar keltiradi. Ko‘nikmalarni ishlab chiqishda buyruqlar ko‘p marotaba berilmasligi kerak.

7.3. Sof zotli itlar bilan seleksiya ishlarini tashkil etish

Seleksiya — hayvonlarning xo‘jalikka foydali belgilarini genetik yaxshilash tadbirlari tizimidir. Bu tizim asosan tanlash va juftlashga bo‘linadi.

Seleksiya ishlarini jadallashtirish uchun itchilik xo‘jaliklaridagi genetik vaziyatlarni yaxshi o‘rganish lozim. It guruhlarining genetik tuzilishini o‘rganish uchun quyidagi statistik ko‘rsatkichlarni aniqlab borish lozim: o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich (X), o‘rtacha kvadratik og‘ish (P), o‘zgaruvchanlik koeffitsienti (S_v), irsiyat koeffitsienti (h^2), takrorlanish koeffitsienti (rw), belgilar orasidagi korellatsiya koeffitsienti (r), seleksiya differensial (S_d), seleksiya effekti (Se), avlodlar almashish muddati.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar seleksiya ishlarini olib borish va uning natijalarini oldindan faraz qilish uchun qo‘llaniladi.

Itlar eksteryeri va konstitutsional o‘zgaruvchanlik ko‘rsatkichlari xizmat sifatлари darajasiga hamda oziqlantirish va asrash sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Sharoitning yaxshilanishi ko‘p hollarda seleksiya belgilari o‘zgaruvchanligining oshishiga olib keladi.

Zotlar sifatini yaxshilash ikki xil yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: yuqori naslli erkak hayvonlardan foydalangan holda sof zotli urchitish va mavjud zotlarning urg‘ochi hayvonlarini dunyodagi mashhur zotlarning naslli erkak hayvonlari bilan chatishtirish.

Toza (sof) zotli urchitishning oliy shakli tizimli urchitishdir.

Tizim deb, mashhur naslli erkak hayvonlarning mahsuldorlik xususiyatlarini davom ettirayotgan bolalar guruhiga aytiladi. Tizimli urchitishning asosiy maqsadi zotni yanada takomillashtirishdan iborat bo‘lib, bu vazifa mashhur naslli erkak hayvonning xususiyatini bir guruh hayvonlarga o‘tkazish, zotni bir-biridan ajratish va tizimlarni o‘zaro birlashtirib, yangi tizimlarni yaratishdan iboratdir.

Tizimli urchitish XVII asrda boshlangan. Tizimli urchitishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda Y.A. Bogdanov, D.A. Kislovsiy, M.F. Ivanov va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Ularning fikricha tizimli urchitishda mashhur hayvonni ajratib, undan bir necha bo‘g‘in davomida qarindoshlik juftlash va tanlash yordami-

da o'ziga o'xshash avlodlarni olish ko'zda tutilgan. Tizim zot ichidagi eng yaxshi hayvonlarni o'z ichiga oladi va uning uchun uni «mikrozot» deb hisoblash mumkin. D.A. Kislovskiy tizimli urchitishning mohiyati zot ichida o'zgaruvchanlikni cheklab, uni ham sifatli guruhlariga ajratish yordamida zotning tarkibini tuzishdan iborat degan edi.

Shunday qilib tizimdagi belgilar zot belgilariga o'xshash bo'lib, shu bilan birgalikda undan qarindoshlik darajasi, o'ziga xos tipi, yosh hayvonlarni tarbiyalash va juftlash tizimi bilan farq qilib turadi.

Tizimli urchitish boshqa xil urchitish usullari — chatishtirish va duragaylashda ham muhim ahamiyatga egadir. Tizimlar yaratish yangi zotlar yaratishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki faqat tizimlar bo'lgan taqdirdagina yangi tipdagi hayvonlar o'z-o'zi bilan urchitilishi mumkin.

Bundan tashqari tizimli urchitish inbred tizimlar olish va ularni o'zaro chatishtirish natijasida yuqori darajadagi «geterozis» xususiyatdan foydalanish maqsadida ham qo'llaniladi.

Shunday qilib tizimli urchitish seleksiyaning oliy shakli bo'lib, hamma urchitish usullarida qo'llanilishi mumkin. Zootexniyada quyidagi tizimlar ajratiladi: genealogik guruh, genealogik yoki rasmiy tizim, qarindosh guruh, inbred tizim, yolg'on tizim va zavod tizimi.

Genealogik guruh bir necha bo'g'in davomida mashhur naslli erkak hayvondan kelib chiqqan ko'p sonli hayvonlarni o'z ichiga oladi. Bu hayvonlar guruhi kelib chiqishi o'xshash bo'lishiga qaramasdan bir xil tuzilishga ega bo'lmaydilar. Ularni faqat umumiy ajdodi yoki bobosi biriktirib turadi. Genealogik guruh tushunchasi odatda ikki xil vaziyatda qo'llaniladi.

1. Podalarni genealogik tahlil qilishda har xil qarindosh guruhlar, zavod tizimlari orasida qarindoshlik aloqalari borligi va ular qadimgi, mashhur naslli erkak hayvonlardan kelib chiqqanligi aniqlandi.

2. Mashhur naslli erkak hayvon tomonidan bir necha bo'g'in davomida avlodlar olingan. Ammo ular bilan yetarli darajada seleksiya olib borilmagan va hali zavod tizimi sifatida tan olinmagan.

Genealogik yoki rasmiy tizim mashhur naslli erkak hayvonning 3—5 bo'g'inidan olingan avlodlarni o'z ichiga oladi. Lekin

ular maxsus seleksiya rejasi, tanlash va juftlash bo'yicha olinmagani uchun bir xil o'xshashlikda bo'lmaydilar. Ammo genealogik tizimda olingan mashhur naslli erkak hayvonlar kelgusida zavod tizimlariga asos solishlari mumkin.

Tizimli urchitish odatda 3—4 bo'g'in atrofida va ba'zi hollarda bundan uzoqroq davom etishi mumkin. Tizimli urchitishda dastlab bo'lajak tizimning modeli yoki andozasi tuziladi, tizim boshlig'i topiladi va unga mos keluvchi urg'ochi hayvonlar tanlanib, keyin ular juftlanadi. So'ngra avlodlar orasidan tizimni davom ettiruvchi erkak hayvonlar aniqlanib ularga mos keluvchi urg'ochi hayvonlar juftlanadi, tizim ichida tarmoqlar va shahobchalar ajratiladi, hamda bularda qarindoshlik juftlash qo'llaniladi.

Tizimli urchitishda to'xtovsiz tanlash va juftlash yoki hayvonlarni maqsadga muvofiq tarbiyalash amalga oshiriladi.

Tizimli urchitishda qarindoshlik juftlash yoki inbridingdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tizimli urchitishda inbridingdan foydalanishning maqsadi qimmatli naslli hayvonlarning irsiyatini saqlab qolish, mustahkamlash, ularning qimmatli belgilarini biriktirib avlodlarga o'tkazish. Tizimli urchitishda yaqin qarindoshlik kam qo'llanilib, ko'pincha o'rtacha yoki chamali inbriding qo'llaniladi. Tizim ichidagi inbridinglarning uch xili ko'p tarqalgan: tizim boshlig'iga, uni davom ettiruvchi va mustahkamlovchi. Ulardan eng ko'p tarqalgani tizim boshlovchisiga inbridingdir. Tizim ichidagi inbriding ko'pincha uchinchi bo'g'indan boshlab qo'llaniladi.

7.4. Itlarni tanlash, saralash, boqish va treningga tayyorlash yo'llari

Yaxshi itni o'stirish uchun it bolasini to'g'ri tanlash lozim. 1—1,5 oylik it bolasini tanlab olishda uning shajara kartochkasi bilan tanishib, toza zotlilik, ajdodlari qanday ijobiy va qoniqarsiz xizmat sifatlariga ega bo'lgani aniqlanadi. It bolasining shajarasida otasi va onasi ajdodlarining kamida 4—5 bo'g'inlari keltirilishi lozim. It bolasi sog'lom, jismoniy nuqsonlarsiz rivojlanishi va bo'yi normal, aktiv, harakatchan, kesuvchan tishlarining tishlanishi (prikusi) normal bo'lishi kerak. Ajdodlari a'lo eksteryer-

ga ega bo'lgan ammo ular umuman o'rgatilmagan va xizmatda qo'llanmagan yoki xizmat sifatleri yomon bo'lganda it bolasi-ning ham tabiiy xizmat sifatleri bostirilgan holatda bo'ladi. Bunda tanlanadigan it bolasida bu sifatleri boshqatdan rivojlantirish va takomillashtirish kerak bo'ladi. It bolasi-ning xarakterli nasli xususiyatlari tarbiyaviy dressirovkada va keyinchalik ularni xizmatga o'rgatish va qo'llash jarayonida katta ahamiyatga ega.

Yaxshi xizmat itini va ayniqsa, naslchilik ishlari uchun mo'ljallangan itni o'stirish uchun mutaxassislardan katta mehnat, e'tibor, mehnatsevarlik hamda o'stirish va tarbiyalash rejimini bajarishda qat'iy tizimga rioya qilish talab etiladi.

Pitomnikning tarbiyachi instruktori it bolalarini tarbiyalash va trening uchun tayyorlash ishlarini malakali mutaxassislar tuzgan va ilmiy asoslangan mashg'ulotlar jadvali asosida olib boradi.

To'g'ri tanlash va saralash, yaxshi oziqlantirish va asrash sharoitlari, yo'naltirilgan tarbiya va jismoniy rivojlanish turli dressirovkaga oson moslashadigan va xizmat vazifalarini so'zsiz bajaradigan yaxshi itlarni o'stirishga imkon yaratadi.

Bu yerda itlarni saqlash talablariga to'xtalib o'tish lozim.

Itlarni saqlash uchun xonalarni qurishda, itlar u yerda vaqtining ko'p qismini o'tkazishini inobatga olish lozim. Shuning uchun xonalar bir qator talablarga: itlarni yomg'ir, shamol, chang, qishning sovug'i va yozning issig'idan himoya qilish, begona odamlar, daydi va yovvoyi hayvonlar hamda kuchli shovqindan (o'tayotgan avtomobillar va boshq.) himoya qilish kabilarga javob berishi kerak. Xonalar atrofdagi yerlardan balandroq va quruq, odamlar yashaydigan, chorvachilik va xo'jalik qurilmalaridan yiroqroq joylarda qurilishi lozim. Xonalar yetarlicha keng, quruq, yorug', havosi toza bo'lishi kerak. Shamol, chang va quyosh nurlari ta'siridan, haddan ziyod qizib ketishidan himoya qilish maqsadida uning atrofida ko'kalamzorlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

It guruhlarining joylashtirilishi

Bir guruh itlarni saqlash uchun mo'ljallangan joy yuqorida aytib o'tilgan talablarga javob berishi kerak hamda uni balandligi 2 m dan kam bo'lmagan devor bilan o'rash lozim. Agar itlar soni ko'p bo'lmasa va yer maydoni kichik bo'lsa, devorda eshik qoldi-

riladi, aks holda darvoza quriladi. Ularga ishonchli qulf qo'yilib doim yopiq turishi kerak.

Itlarni saqlash uchun maxsus joylar, kabinalarga bo'lingan pavilonlar quriladi. Kabina har bir itga alohida mo'ljallangan bo'lib, unga usti ochiq yayrash maydonchasi (volyer) birikib turadi. Kabinaning uzunligi 2 m, eni 1,5 m, old devorining balandligi 2—2,5 m, orqa devorniki 1,5—2 m; kabina eshigining balandligi 1,7 m, eni 0,7 m bo'lishi lozim. Eshik tashqariga ochiladi. Kabinaga yorug'lik tushishi uchun, uning ustida oynavand rom qo'yiladi. Eshikning pastki qismida, volyerga chiqish uchun 40x50 sm li tuynuk bo'lishi kerak. Yozda tuynuk ochiq turadi, qishda esa brezent bilan yopiladi.

Volyerning uzunligi 3 m, eni 2 m, balandligi 2,2 m bo'ladi. Volyerlar orasi, balandligi 2,2 m keladigan devor bilan yopiladi. Volyerning old qismida eshik yasaladi, uning balandligi 1,8 m eni 0,7 m bo'lishi kerak. Eshik ichkariga ochiladi. Har bir kabina ichida budka quriladi. Budka (it uchun xonacha) tuynugining o'lchamlari 40x50 sm ga teng bo'lish kerak. Uning tomi yassi, silliq bo'lishi lozim, chunki itlar yoz faslida uning ustiga chiqib yotishni yoqtiradilar. Sovuq tushganda budkaning ichiga somon, hashak yoki yog'och qirindisidan to'shama to'shaladi. Pavilonlar g'isht, tosh, taxtalardan quriladi. Volyerlarning yon devorlari taxtadan, old devori va eshigi esa sim to'rdan yoki temir panjaradan yasaladi. Agar it qo'shni volyerga sakrab o'tadigan bo'lsa unda devor ustidan sim to'r tortiladi. Kabina va volyer pollari taxtadan yasalishi kerak. Issiq iqlimda pollar beton yoki pishitilgan loydan qurilishi mumkin. Bunday hollarda itni shamollashdan asrash maqsadida kabinalarga 1x1,6 m kattalikda yog'och shchitlar yotqiziladi. Volyerning old tomonidan, 4—5 m nariroqda, balandligi 35—40 sm keladigan ustunchalar yerga ko'mib qo'yiladi. Ularga itlar tozalanganda bog'lab qo'yiladi. Ustunchaning ustiga diametri 20—25 sm keladigan yog'och maydoncha qoqib o'rnatiladi. Unga it tozalash paytida o'zining old oyoqlarini qo'yib turadi. Ustunchalarning orasi 3 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Itlarning soni ko'p bo'lsa 250—300 m nariroqda izolator quriladi. Itlarni ko'paytirish va it bolalarini o'stirish uchun mo'ljallangan pitomniklarda undan tashqari tug'ish, it bolalarini

saqlash, itlarni yuvish va ovqat pishirish xonalari bo‘ladi. Katta pitomniklarda veterinar ambulatoriya va statsionar quriladi.

Itlarni boqish

Xizmat itlarining normal hayot kechirishi va belgilangan vazifalarni bajarishi uchun qo‘shimcha oziq moddalar talab etilib, buni ozuqa ratsionlarini tuzishda inobatga olish zarur bo‘ladi. It muskullarining ishlashi jarayonida organizmda energiya, oqsil, yog‘, uglevod, mineral moddalar va vitaminlarning sarflanishi oshadi. Mehnat jarayoni qanchalik og‘ir bo‘lsa, oziq moddalarga bo‘lgan talab ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Hamma xizmat itlari bir xil vazifani bajarish vaqtida bir xil miqdordagi energiyani sarf qilmaydi. Bajariladigan ishga sarflanadigan energiya miqdori itni o‘rgatish, shuningdek charchash darajasiga va bundan tashqari hayvonning individual xususiyatlari — zoti va tana tuzilishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Tinch holatda turgan itga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan xizmat itlari ish uchun 30% dan ko‘proq energiya sarf qiladi. Xizmat itlarining 1 kg tana vazniga sarflaydigan energiya miqdori 4-jadvalda keltirilgan:

4-jadval

Tinch holatda bo‘lgan itning 1 kg tana massasiga nisbatan talab etiladigan energiya miqdori.

Tana massasi, kg	kDj.	Tana massasi, kg	kDj.
3–4	575	15–20	375
4–5	530	20–25	340
5–6	495	25–30	320
6–7	475	30–40	305
7–8	460	40–50	285
8–9	440	50–60	265
9–10	425	60–70	250
10–15	410	70 va undan ortiq	235
Ilova: 1 kk = 4,29 kDj. Tinch holatda bo‘lgan itning 1 kg massasiga o‘rtacha 87 kk, ya’ni 365 kDj to‘g‘ri kelishi kerak.			

Qish mavsumida xizmat itlari isitilmaydigan xonalarda saqlanganda energiya ehtiyoji 20% ga oshadi. Xizmat itlarining oqsilga bo'lgan talabi harakat qilmaydigan itlarga nisbatan o'rtacha 30–50% ga, yog'ga 15% ga va yengil hazm bo'ladigan uglevodlarga esa 30% ga oshadi. O'rtacha ish bajaradigan xizmat itlarining ratsionida oqsil miqdori, harakat qilmaydigan itlarga nisbatan, 40% ga yuqori bo'lishi kerak, shunda itlar oqsilga bo'lgan talabini 50% go'sht, baliq va sut mahsulotlari hisobidan qoplashlari lozim.

Xizmat itlarining ratsionida uglevodlarning yetishmasligi ularning ozib ketishiga olib keladi. Itlar ratsionida yog' qanchalik kam bo'lsa, unda uglevodlar shunchalik ko'p bo'lishi kerak. Xizmat itlarining ratsionini tuzish vaqtida to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyoj normasini e'tiborga olib, ratsionning taxminiylar tarkibi tuziladi.

Quyidagi keltirilgan raqamlarda katta yoshdagi xizmat itlarining bir sutkadagi energiyaga bo'lgan talabiga nisbatan tuziladigan taxminiylar ratsion foiz miqdorida ko'rsatilgan:

5-jadval

II (toifa) kategoriyali go'sht	25 % (20–30)
Yorma (krupa)	53 % (45–60)
Non	15 % (10–15)
Kartoshka	5 % (3–7)
Sabzavot	2 % (1–3)

Masalan, tirik vazni 30–40 kg keladigan qo'riqchi itning bir sutkalik ratsioniga 6-jadvalda keltirilgan quyidagi ozuqa mahsulotlarini kiritish mumkin.

Agarda ratsiondagi belgilangan go'sht o'rniga quruq ozuqa mahsulotlari berilsa, to'yimlilikiga qarab ayrim paytlarda ratsion miqdori go'shtga nisbatan ikki barobar ko'paytiriladi.

Shuningdek, bunday itlarga go'sht o'rniga baliq ham bersa bo'ladi.

Itlarga arzon narxdagi yormalardan berish lozim, masalan tariq, arpa, suli yormalari va boshqalar. Kasallangan xizmat itlariga esa guruch, bug'doy yoki grechixa yormasi berilishi yuqori sa-

maraga olib keladi. Go'sht bilan yormaning o'rniga sut yoki sut mahsulotlarini almashtirib berish ham mumkin. Bundan tashqari xizmat itlariga bug'doy unidan tayyorlangan qora non ham beriladi. Agarda ratsion tarkibiga qotgan non kiritilsa, yanada yaxshi bo'ladi. Itlar ovqatiga hayvonlarning eritilgan yog'ini qo'shgan ma'qul.

6-jadval

Xizmat itlarining ratsioni.

№	Ozuqa nomi	Miqdori (1 gr)
1.	Go'sht mahsulotlari	400
2.	Yorma	600
3.	Kartoshka, sabzavotlar	300
4.	Hayvon yog'i yoki margarin	13
5.	Tuz	15
6.	Suyak uni	15

Ratsionga sabzavotlardan karam, sabzi, qizil lavlagi qo'shiladi. Itlar po'stlog'i va tuxumidan tozalanib, pishirilgan qovoqni juda sevib iste'mol qiladilar. Yoz mavsumida itlarga pomidor va baqlajon berish tavsiya qilinadi. Hayvonlarga karamni yangi uzilgan yoki tuzlangan holatda berish ham mumkin. Erta bahor va yoz paytida itlarga yangi chiqqan qichitqi o'ti, qoqi va shovulni maydalab berish foydalidir.

Bir xil ovqat xizmat itlarining badiga tez tegadi va buning oqibatida ratsion tarkibidagi to'yimli moddalarning hazm bo'lishi pasayadi. Shu sababdan ham ratsion tarkibidagi ozuqa moddalarini almashlab turish lozim. Bu asosan go'sht mahsulotlari, yorma va sabzavotlarni almashlab turish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Safar sharoitida ovqat pishirishning iloji bo'lmaganda xizmat itlarini galetalar, konservalar va konsentratlar (quruq ozuqa) bilan boqadilar. Safar bir necha kunga davom etgan taqdirda itlarga non yoki sut bilan non yoxud non bilan suv hamda qoq nonni suvda ivitib berish mumkin. Agarda xizmat itlari shaxsiy tarkibda saqlansa, unda ratsionning asosiy qismini egasidan qolgan qoldiq ovqatlar tashkil qilishi mumkin.

7-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat

Sof zotli it bolalarining rivojlanishini nazorat qilish

Mashg'ulot maqsadi: Sof zotli itlardan olingan bolalarni tanlash, saralash, ularning rivojlanishini nazorat qilish va istiqbolini aniqlash.

Uslubiy ko'rsatmalar: Mashg'ulot o'quv xonasida va pitomnik sharoitida olib boriladi. Bu yerda har xil zotlarga mansub itlarning bolalari bo'lishi kerak va ularning istiqbolini aniqlash mezonlari ishlab chiqiladi.

Jihozlar, asbob-uskunalar va hayvonlar: Ishchi daftarlar, turli zotlarga mansub bo'lgan it bolalari, plakat, albomlar, mulyajlar, videotasvirlar, videoprojektor, kompyuter, tarqatma materiallar.

Topshiriq: Talabalar 2–3 ta guruhga bo'linib, pitomnikda saqlanadigan it bolalarining zotini aniqlab, ularning istiqbol yo'nalishini tavsiya qiladilar.

It bolasini tanlash

Shaxsiy maqsadlar uchun qanday jinsli it bolasini tanlab olish lozim? Erkagini-mi yoki urg'ochisini? Urg'ochi itlar o'zini toza tutadi, egasiga ko'proq bog'lanadi, tinchroq bo'ladi. Ammo ular tuqqandan so'ng ko'p muammolar paydo bo'ladi.

Erkak itlar samaraliroq, ammo tinch turmaydigan bo'ladi (ayniqsa urg'ochilar kuyga kelganda).

Qanday bo'lmasin, birinchi navbatda itning shajarasini sinchiklab o'rganish kerak. Keyin it bolalarini tusi va eksteryeri bo'yicha ko'rib chiqish lozim. Bunda boshning shakli, prikus, temperamentiga e'tibor beriladi.

It bolasida ortiqcha barmoq borligi, dumi standart bo'yicha kesilgani tekshiriladi.

It bolalarini istiqbolini aniqlash, trening uchun tayyorlash yullari

It bolalarini tarbiyalash ishlari uning mustaqil yurishidan, ko'rinadigan va eshitiladigan qo'zg'atgichlarni qabul qilishidan boshlanib, 12–18 oygacha, ya'ni uni o'rgatish (dressirovka) uchun topshirilganigacha davom etadi.

G.A. Obrazsova itlarda oliy asab faoliyati individual rivojlaniishi qonuniyatlarining quyidagi birin — ketinligini keltiradi:

1-davr. 1–20 kunlar. It bolalarining moslashish reaksiyasi asosan taktil, propriotseptiv, harorat kabi shartsiz reflektor tabiatli signallarga javoban hosil bo‘ladi. Bu davrda bosh miya ayniqsa tez o‘sadi.

Birinchidan ikkinchi davrga 2 haftalik o‘tish muddatda barcha analiz qiladigan tizimlar bilan shartli reflektor bog‘lanishlar hosil bo‘ladi.

2-davr. 5–6 dan 8–12 haftagacha bo‘lgan vaqt. Bu davr shartli reflektor reaksiyalarining hosil bo‘lishi va kuchayishi bilan xarakterlanadi. O‘yin va o‘rganish reflekslari intensiv namoyon bo‘ladi. Bosh miya po‘stlog‘ining faoliyati oshadi.

3-davr. 3–4 oydan 6 oygacha bo‘lgan vaqt. Miyaning nisbiy o‘sishi pasayadi, 6 oydan so‘ng esa uning absolut massasining o‘sishi tugaydi. Bu vaqtda shartli reflekslarning jadalligi va darajasi pasayadi. 3 oylik it bolasining harakatlanish reaksiyasining spetsializatsiyasi murakkablashadi. Bu davrda itning keyinchalik harakatlarini ta‘minlaydigan asab tizimining tipologik xususiyatlari shakllanadi. Passiv ximoyalanish reaksiya rivojlanadi.

Bu ilmiy ma‘lumotlardan foydalanib, it bolalarini tarbiyalash tizimini tuzish lozim. Tarbiyalash vaqtida kuchli qo‘zg‘atgichlar qo‘llanmaydi. Ularga og‘riq chaqiruvchi usullar umuman ishlatilmaydi. Munosabatlar ohista va mehrli bo‘lishi lozim.

It bolalarini ularning yoshini va kelajakdagi xizmat yo‘nalishini inobatga olib o‘rgatish kerak. Mashg‘ulotlar oziqlanishga oz vaqt qolgan paytda o‘tkaziladi. O‘rgatish joyi ularga tanish va kuchli qo‘zg‘atgichlarsiz bo‘lishi kerak. Keyinchalik o‘rgatish joyi almashtiriladi. It bolalarida keraksiz ko‘nikmalar hosil bo‘lishining oldi olinadi. Tarbiyalovchiga 4–6 it bolasi biriktiriladi.

Tarbiyaning muvafaqiyatli sharti it bolalarining katta itlarga taqlid qilishidir, u yoki bu harakatlarni (buyumlarni ushlab turish, o‘yin, ozuqani va «egasini» izlash va boshq.) it bolalarini qiziqtirish uchun ularga mazzali ozuqa bo‘lakchalari berib turiladi. It bolalarini toliqtirish umuman yaramaydi, chunki ular lanj va befarq bo‘lib, tarbiyachining buyruqlarini bajarmay

qo'yadi, bu esa keyinchalik tarbiyaga sezilarli zarar keltiradi. Ko'nikmalarni ishlab chiqishda buyruqlar ko'p marotaba berilmasligi kerak.

Darsning yakuniy qismida talabalar bilan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar o'tkaziladi.

Nazorat savollari:

1. It bolasining rivojlanishida nechta va qanday davrlar kuzatiladi?
2. It bolalari tug'ilishining birinchi kunida zavodchik nimalarga ahamiyat berishi lozim?
3. It bolasi rivojlanishining 1-davrida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
4. It bolasi rivojlanishining 2-davrida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
5. It bolasi rivojlanishining 3-davrida qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
6. It bolasining rivojlanishi va o'sishi qanday aniqlanadi?
7. It bolasi qanday tarbiyalanadi?

8-MAVZU. ITCHILIKDA NASLCHILIK ISHLARINI TASHKIL ETISH (2 SOAT)

8.1. Itchilikda urchitish va naslchilik ishining ahamiyati

Xizmat itchiligidagi naslchilik ishining asosiy vazifasi — nasldor itlarning bosh sonini ko'paytirish, it tanasining tashqi shaklini va konstitutsiyasini, oliy nerv faoliyatining tipini, jismoniy chidamlilikni, sezgi a'zolarining o'tkirligini va boshqalarni yaxshilashdir. Itlarning xizmat sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan naslchilik ish tizimsining negizida uchta omil yotadi: asoslangan tanlash, mo'ljallangan juftlash va itlarni urchitishning to'g'ri usuli. Shular bilan birgalikda bo'g'oz urg'ochi it va bolalarini parvarishlash hamda keyinchalik yosh itlarni sifatli o'stirish va tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Naslchilik ishi hayvonlarni to'g'ri oziqlantirish, asrash va ulardan to'g'ri foydalanish bilan birga olib borilganda yuqori xizmat sifatlariga ega naslli zotlar, tizimlar, oilalarni keltirib chiqaradi.

Xizmat itlari uchun eng ko'p sharqiy yevropa ovcharkasidan foydalaniladi. Undan tashqari boshqa it zotlari ham ishlatiladi.

Qorovullik va cho'ponlik xizmati uchun «Sharqiy Yevropa ovcharkasi»dan tashqari «Kavkaz ovcharkasi», «O'rta Osiyo ovcharkasi», janubiy rus ovcharkasi va boshqalar qo'llanadi. Shimol sharoitida chanani tortish uchun shimoliy sharqiy laykalar ishlatiladi.

Xizmat itlarining barcha zotlari naslsiz itlardan va bir-biridan keskin ifodalangan eksteryer xususiyatlari va xizmat sifatleri bilan farq qiladi. Zotning ijobiy xususiyatlari tizimli sun'iy tanlash va juftlash yo'li bilan mustahkamlanishi va takomillashtirilishi lozim. Agar bu ish bajarilmasa va itlarning ko'payishi tizimsiz ravishda kechsa, zotlar o'zlarining ijobiy sifatlarini yo'qotadi va asta-sekin yo'qolib ketadi. Shuning uchun har bir zot bilan alohida doimiy naslchilik ishlarini olib borish zarur. Bu vazifani turli it klublari va tegishli idoralarga qarashli it pitomniklarida bajariladi.

8.2. Naslchilik ishlarini tashkil etish, uning tarkibiy qismi va vazifalari

Naslchilik ishidagi eng muhim vazifalardan biri mavjud zotlarni yaxshilash, yangi zotlar, xillar, tizimlar yaratish dasturini ishlab chiqish va uni bajarish yo'llarini axtarishdir.

Chunki, mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoki islohotlar yangi mulkchilik shakllarini keltirib chiqardi. Davlat va jamoa xo'jaliklari bilan birgalikda nodavlat xo'jaliklar paydo bo'ldi.

Bu xo'jaliklarni naslli hayvonlar bilan ta'minlash uchun zamonaviy talabga javob beradigan it zotlaridan foydalanish, yangi zotlarni yaratish lozim.

Respublikada naslchilik ishlarini boshqarish O'zbekiston Kinologiya Federatsiyasi, Milliy kinologiya markazi, zotlar bo'yicha klublar tomonidan amalga oshirilmoqda. Ularda nemis ovcharkasi, «Sharqiy Yevropa ovcharkasi», «O'rta Osiyo ovcharkasi», rus spaniyeli, labrador, doberman-pincher va boshqa it zotlari bo'yicha naslchilik ishlari olib boriladi.

Bu tashkilotlarda va viloyatlardagi bo'linmalarida reja asosida hayvonlarni yaxshilash bo'yicha tadbiriy choralar o'tkazish topshirilgan. Respublika miqyosida va mintaqalar bo'yicha naslchilik ishining istiqbolli rejaları va tadbirlarni ishlab chiqadi, naslli erkak hayvonlarni bolalari sifatiga qarab sinash va baholash ishlarini tashkil qiladi. Naslchilik xo'jaliklarida hayvonlarni bonitirovka qiladi, erkak hayvonlardan samarali foydalanish rejasini tuzadi. Naslchilik hujjatlarining to'g'ri yuritilishini naslli hayvonlarni naslchilik kitobida ro'yxatga olishni tashkil qiladi. Seleksiya markazlari har bir hayvonlar zoti bo'yicha naslchilik ishlarini yuritish, naslchilik xizmatini olib boruvchi tashkilot va korxonalarga, shaxsiy itchilik klublariga ilmiy uslubiy rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish ishlarini olib borish, tajribalarni va nasldor hayvonlarni keng tadbiq qilish yuklatiladi. Bu markazlar it pitomniklari va xususiy itchilik klublari bilan hamkorlikda ish olib boradilar. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuqori nasldor guruhlar, tizimlar va oilalarni yaratish;
- nasldor erkak hayvonlarni yetishtirish, ularni jinsiy ko'rsatkichlari bo'yicha baholash va tanlash, avlodlarning sifatiga qarab baholash, yaxshilovchi deb baholangan naslli erkak hayvonlardan keng miqyosli seleksiya ishlarida samarali foydalanish, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega, iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan yangi zotlar, xillar va guruhlarni yaratish, naslchilik

xo'jaliklari uchun tanlash, juftlash va urchitishning samarali tizimini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

— zot bo'yicha seleksiya-naslchilik ishining istiqbolli rejasini ishlab chiqish;

— naslchilik zaxiralarini joylashtirish va zotni takomillashtirishda foydalanish;

— nasldor yosh itlarni tarbiyalashning qulay usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish va boshqalar.

O'zbekiston Kinologiya Federatsiyasi va Milliy kinologiya markazi jadal zamonaviy usullardan foydalanib bo'lajak yangi tizimlar, oilalar, zotdor itlarning yangi xillari, zot guruhlari va zotlarni oldindan sinash bo'yicha ish olib boradi. Turli itchilik klublari va pitomniklar bilan hamkorlikda naslli yosh itlarni yetishtirish bo'yicha vazifalarni rejalashtirish va ulardan to'g'ri foydalanishni nazorat qiladi. Naslchilik ishi bo'yicha ilg'or tajribalar va fan yutuqlarini targ'ibot qiladi va ishlab chiqarishga tavsiyalar ishlab chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlardagi seleksiya ishlarining ahvolini o'rganib, umumlashtirib tegishli tashkilotlarga ma'lumot tariqasida yuborib turadi.

Potrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash Bosh boshqarmasi qoshidagi kinolog xodimlar va qidiruv-xizmat itlarini tayyorlash markazi kabi xo'jaliklarda kinolog mutaxassislarni tanlaydi, o'qitadi, ularning malakasini oshirib boradi. Genetika va seleksiya masalalari bo'yicha respublika va viloyatlarda yig'ilishlar, konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlarni tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan bajarilgan seleksiya ishlari natijalarini umumlashtiradi, ilmiy to'plamlar va byulletenlarni nashr qilishga tayyorlaydi.

Naslchilik ishlari rejasini

Naslchilik ishining istiqbolli rejalari har xil it zotlari uchun 5–10 yilga tuziladi. Zotlar bilan yirik miqyosda seleksiya dasturlari seleksiya markazlari tomonidan 10–15 yilga tuziladi. Naslchilik ishi rejalarni tuzish ancha murakkab, qiyin va ijobiy ish bo'lib uni tuzishda naslchilik bo'linmalarining va itchilik klublarining yetakchi mutaxassislari, seleksionerlar va olimlar qatnashadilar. Naslchilik ishi rejasini ikki qismdan iborat bo'lib, ularning har biri

bir necha bo'limlardan tashkil topadi. Birinchi qismida itchilik xo'jaligining ahvoli, hayvonlarni asrash sharoitlari, it bosh sonining to'liq tavsifi beriladi. Shu qismda uni yaxshilash uchun ilgari olib borilgan naslchilik ishi tahlil qilinadi. Birinchi qism ma'lumotlari naslchilik ishi rejasini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rejaning ikkinchi qismida mavjud itlarni takomillash-tirishning kompleks tadbirlari aniq belgilab beriladi.

Naslchilik ishi rejasining birinchi qismi quyidagilardan iborat bo'ladi:

1-bo'lim — naslchilik ishi bilan shug'ullanayotgan itchilik xo'jaligining (pitomnik) tabiiy va xo'jalik sharoiti tavsifi. Xo'jalik qachon va qanday tashkil topgani, uning joylashishi; tuproq-iqlim ko'rsatkichlari, xizmat yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar, har xil zotlarga mansub itlarining soni va ularning pitomnikda joylashishi; asosiy iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari beriladi.

2-bo'lim — naslchilik xo'jligidagi hayvonlarning qisqacha shakllanishi tarixi. Uning qachon va qanday shakllanganligi; hayvonlarning qayerdan, qaysi zotlardan olib kelinaganligi, ularning soni, zotdorligi; naslli erkak itlarning qayerdan, qachon olib kelinganligi, ulardan qanday foydalanilgani; qaysi urchitish usullari qo'llanilgani, it guruhining zot tarkibi qanday o'zgarib borganligi beriladi.

3-bo'lim — yosh hayvonlarda o'stirish sharoitlari, yosh itlarni 2 oylikkacha, 2 oydan 6 oygacha, 6 oydan 12 oygacha, 12 oydan 18 oygacha oziqlantirish ratsionlari sxemasi beriladi. Ularning tirik vaznining o'zgarib borishi ko'rsatiladi. 6 oylikdan boshlab it bolalarining bonitirovka sinflari, zotliligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

4-bo'lim — hayvonlarni oziqlantirish va asrash sharoitlari.

5-bo'lim — urg'ochi hayvonlar tarkibi:

— populatsiya urg'ochilarining zotliligi;

— urg'ochi hayvonlarning tirik vazni;

— urg'ochi hayvonlarning eksteryeri va konstitutsiya xususiyatlari;

— urg'ochi hayvonlarning ko'payish qobiliyati;

— urg'ochi hayvonlarning tug'ish yoshi bo'yicha tarkibi.

6-bo'lim — itchilik xo'jaligidagi nasldor erkak hayvonlarning tavsifi. Laqabi, zoti, shajarasi, qaysi tizimga mansubligi beriladi.

7-bo'lim — nasldor erkak itlarni bolalari sifatiga qarab baholash.

8-bo'lim — itchilik xo'jaligining genealogik tuzilishini tahlil qilish. (tizimlar, oilalar, mashhur naslli erkak va urg'ochi hayvonlarning genealogik tuzilishi, qarindoshlik aloqalari).

9-bo'lim — itchilik xo'jalikdagi erkak hayvonlar tizimlari va urg'ochi hayvonlar oilalarining tavsifi.

10-bo'lim — xo'jalikda qo'llanilgan tanlash, saralash va juftlash usullari tahlili.

Naslchilik ish rejasining II-qismi quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

1-bo'lim. Rejali topshiriqlar. Rejalashtirilgan davrning har bir yiliga miqdoriy o'sish va sifat ko'rsatkichlari.

2-bo'lim. Hayvonlarni oziqlantirish va asrash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tadbirlar.

3-bo'lim. Yosh hayvonlarni o'stirish va tarbiyalashni yaxshilash tadbirlari.

4-bo'lim. Hayvonlarning ko'payish qobiliyatini oshirish tadbirlari.

5-bo'lim. Naslchilik ishining umumiy yo'nalishi va urchitish usullari.

6-bo'lim. Yetakchi tizimlarni tanlash va ular bilan ishlash.

7-bo'lim. Hayvonlar oilalari bilan ishlash.

8-bo'lim. Nasl yadrosini tanlash va u bilan ishlash.

9-bo'lim. Naslli juftlash yoki saralashning umumiy prinsiplari va sxemalari.

10-bo'lim. Nasldor erkak hayvonlarni tanlash va ularni almashtirish. Nasldor erkak hayvonlarni 2–2,5 yilda almashtirish, tizimlarni 9–10 yilda almashtirib borish rejasi tuziladi.

11-bo'lim. Juftlash yoki saralash rejasi. Bu bo'limda har bir tanlangan nasldor erkak it bir guruh urg'ochi hayvonlarga qariyb ikki yil davomida birlashtiriladi.

12-bo'lim. Umumiy tashkiliy tadbirlar.

13-bo'lim. Istiqbolli seleksiya-naslchilik ish rejasini joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi.

Yuqoridagi naslchilik ish rejasi qat'iy emas. Xo'jaliklarning yo'nalishi, maqsadi va sharoitlariga qarab o'zgarib borishi, ya'ni ayrim bo'limlar qisqarishi, boshqalari esa kuchaytirilishi mumkin.

8.3. Urchitish usullaridan to'g'ri foydalanish

Barcha it zotlari bir-biridan va oddiy ko'cha itlaridan yaqqol ifodalangan eksteryer xususiyatlari va xizmat sifatlari bilan ajralib turadi. Zotning ijobiy xususiyatlari tizimli sun'iy tanlash va saralash (juftlash) yo'llari bilan mustahkamlanishi va takomillashtirilishi zarur. Bunday ishlar bajarilmaganda va itlarning ko'payishi nazoratsiz kechganda, zotlar o'zining ijobiy xususiyatlarini yo'qotadi va zotning yo'qolib ketish jarayoni boshlanadi. Shuning uchun har bir hayvon bilan alohida naslchilik ishlarini olib borish zarur. Bu vazifani itchilik klublari va pitomniklar bajaradi.

Urchitish usuli deb eng qimmatli xizmat sifatlariga ega avlodni olishga yo'naltirilgan bir yoki har xil zotlarga (ayrim hollarda turlarga) mansub itlarni rejali ko'paytirish tizimiga aytiladi.

Urchitishning quyidagi usullari qo'llanadi: toza zotli urchitish, chatishtirish, turlararo gibridizatsiya.

Itchilikda urchitishning asosiy usuli bo'lib toza zotli (zot ichidagi) urchitish, ya'ni bir zotga mansub itlarni tanlash va juftlash qo'llanadi. Bunday juftlanishdan hosil bo'lgan hayvonlarni toza zotli deb ataydilar. Toza zotli urchitish madaniy zotlar hamda qimmat sifatlari va belgilarga ega mahalliy (aborigen) zotlar orasida qo'llanadi.

Toza zotli urchitish itlarning zot ichida o'zgaruvchanligini qo'llab, itlarning ishchi sifatlari va eksteryer shakllarini mustahkamlash va takomillashtirish vazifasini bajaradi. Bunda iloji boricha eksteryeri va ishchi sifatlari bo'yicha bir xil, odam talablariga javob beradigan itlarni olishga intilinadi.

Amaliyot ko'rsatishicha bir zotga mansub hayvonlar nafaqat tashqi ko'rinishi balki boshqa naslli belgilari bo'yicha bir-biridan ajralib turadi. Shuning uchun toza zotli urchitishda naslli itlarni tanlash va qo'shish uchun juftlash asosiy ahamiyatga ega. Bunda naslli hayvonlarni va ulardan olinadigan avlodni o'rgatish tizimiga rioya qilish, saqlash va oziqlantirish sharoitlarini doimo yaxshilash lozim. Urchitiladigan zotni chuqur va har tomonlama bilish zarur, kichik, ayrim hollarda ilg'ab bo'lmaydigan ammo zot bilan ishlashda qimmatli bo'lishi mumkin chetlanishlarni ko'ra bilish kerak. Zot toza usulda qanchalik uzoq muddat urchitilsa shunchalik u barqaror, nasli esa konservativ va sifatliroq bo'ladi.

Toza zotli urchitish *amalda qarindoshligi bo'lmagan*, qarindoshlikning turli darajalarida *qarindoshlararo, liniyalar (tizimlar)* yo'li orqali olib boriladi.

Amaliyotda ko'pincha qarindoshligi bo'lmagan urchitish usuli qo'llanadi, bunda juftlanadigan erkak va urg'ochi itlar o'zaro qarindosh bo'lmaydi. Bunday urchitish usulida eng mustahkam va hayotchan avlod olinadi.

Qarindoshligi bo'lmagan usulda urchitishda otalanish jarayonida ko'proq xromosomalari o'xshamaydigan erkak va urg'ochilarning jinsiy hujayralari o'zaro qo'shiladi va natijada naslning boyitilishi kelib chiqadi. Bunday organizmda assimilatsiya va dissimilatsiya jarayonlari, o'sish va rivojlanish jadalroq kechadi. Ishchi sifatlari, chidamliligi, serpushtligi bo'yicha bunday hayvonlar o'z ota-onalaridan ustun keladi. Zamonaviy biologiyaning bunday qonunlari hayvonlarni urchitish ishlarida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislar uchun nazariy baza hisoblanadi.

Qarindoshlararo urchitish deb bir-biri bilan yaqin qarindosh bo'lgan hayvonlarni (aka va singil, ota va qizi, bo'la va singil va boshq.) juftlashga aytiladi. Bunday urchitish bir xillik, juftlashning eng oxirgi shakli hisoblanadi.

Qarindoshlararo urchitishni juda ehtiyotkorlik bilan va faqat aniq maqsadlar uchun qo'llash lozim. Ijobiy sifatlar tez mustahkamlanishi bilan bir vaqtda keraksiz va hatto xavfli xususiyatlar va belgilar ham mustahkamlanadi, avlodning hayotiyligi pasayadi. Itlarning skeleti nimjonlanadi va yomon o'sadi, konstitutsiyasi va asab tizimi kuchsizlanadi, tishlar va tishlanish kuchsiz bo'ladi, ishchanlik va kasalliklarga qarshi chidamlilik pasayadi. Bunday urchitishda majruhlarning tug'ilishi kuzatilgan.

Bir xil sharoitda yashaydigan va juftlanadigan hayvonlar qanchalik yaqin qarindosh bo'lsa bunday urchitishning oqibati shunchalik zararli bo'lishi mumkin. Qarindoshlararo urchitishni tizimsiz ya'ni nazoratsiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun pitomniklarda va itchilik klublarida maxsus hisob olib boriladi (shajara kartochkalari, hisob kartochkalari, qo'shish rejasi va boshq.).

Toza zotli urchitishning eng murakkab shakli liniyalar, ya'ni tizimlar bo'yicha urchitishdir. Liniya deb qandaydir bitta mashhur ajdoddan urchigan, unga konstitutsiya, eksteryer va xizmat

sifatlari bo'yicha o'xshaydigan, bir zotga mansub itlar guruhiga aytiladi. Qon bo'yicha va zavod liniyalar bo'ladi.

Xizmat itchiligida asosiy urchitish usuli bu toza zotli urchitish bo'lib u qarindosh bo'lmagan itlarni juftlashga tayanadi.

Yuqorida keltirilgan usullardan tashqari itchilikda chatishtirish usullari ham qo'llanadi. Bu usulda har xil zotlarga mansub erkak va urg'ochi itlar juftlanadi. Chatishtirish yangi zotni yaratish, bir zot itlarning sifatini boshqa zot itlari bilan yaxshilash va naslli bo'lmagan **foydalanuvchi** itlarni olish uchun qo'llanadi. Bu usul yordamida olingan avlodlar metis ya'ni duragaylar deb ataladi.

Turli maqsadlar uchun turlararo gibridizatsiya usuli, ya'ni har xil turlarga mansub hayvonlar qo'llanadi.

8.4. It zotlarini takomillashtirishda naslchilik ishining o'rni

Itlarning sifat tomonlari ularning xizmat sifatlari va xususiyatlari hamda zot xususiyatlaridan kelib chiqadi. Zotlar odam tomonidan ishlab chiqiladi, shundan ma'lum-ki odamning mehnati, ya'ni naslchilik ishlarini tizimli olib borishi zotlarning hosil bo'lishiga va takomillashtirilishiga katta ta'sir o'tkazadi.

Zotning naslli va xizmat sifatlari qancha yuqori bo'lsa shuncha unga sarflangan odam mehnati (yosh hayvonlarni o'stirish, oziqlantirish, eng yaxshi individlarni tanlash va juftlash) ko'p bo'ladi. Zotlar qandaydir qotib qolgan narsa emas, ular doim rivojlanib turadi, odam tomonidan kerakli tomonga o'zgartirilib turiladi. Bu rivojlanishda birlamchi zotdan farq qiladigan yangi zotlar paydo bo'ladi yoki mavjudlari takomillashadi.

Uy hayvonlari va shu jumladan itlarni ko'paytirish tarixi davomida odam hayvonlarni xonakilashtirgani, chatishtirgani, eng yaxshi avlodlarini tanlagani, juftlagani va natijada o'ziga kerakli hayvonlarni yaratganligi ko'rinadi. Bu hayvon guruhlari keyinchalik ko'payib mustaqil zotlarga aylangan.

Zotni takomillashtirish jarayoni urchitilayotgan hayvonlarning naslli sifatlarini o'rganish, kerakli sifatlarga ega avlodni olish keyinchalik ularni tanlash va juftlash kabilardan tashkil topadi.

Zotni takomillashtirishda naslli urg'ochi itlar bilan naslchilik ishini olib borish katta ahamiyatga ega. Yaxshi rivojlangan, sog'lom, mustahkam va serpusht ona itlarni saralab olish qimmat-

li avlodni olishga zamin yaratadi. Afsuski bu holat hamma vaqtda ham inobatga olinmaydi va saralash ishlari faqat ota yo'nalishida olib boriladi.

Yuqorida keltirilganidek, zot bu kelib chiqishi bir xil, o'ziga xos biologik va xizmat sifatlariga, tana tuzilishiga, nasl ko'rsatkichlariga ega, hayotiy sharoitlarga talablari o'xshash bir guruh hayvonlardir. Zot yetarlicha katta hayvonlar guruhini birlashtirishi lozim. Shundagina uni takomillashtirish muvaffaqiyatli kechadi. Zot ichidagi hayvonlar ma'lum xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Zot chegaralarida, talablardan kelib chiqqan holda va oziqlantirish sharoitlari hamda naslchilik ishining yo'nalishi bo'yicha zot ichidagi ayrim biologik xususiyatlarga ega hayvonlarning tiplari ishlab chiqiladi.

Zot ichidagi tiplarning mavjudligi itchilik talablarini to'liq qoniqtiradi va zotni keyinchalik takomillashtirishga imkon yaratadi. Zot ichida zavod tipidagi hayvonlar ajratilishi mumkin. Zavod tipiga qo'shilgan hayvonlar xizmat sifatlarining xususiyatlari, kelib chiqishi va eksteryerga ega.

8-AMALIY MASHG'ULOT

Zotdor itlarni urchitish uchun tanlash, saralash, itlarni zoti va sifatiga qarab baholash tizimi

Mashg'ulot maqsadi: zotdor itlarni urchitish uchun tanlash va saralashning asosiy parametrlari bilan tanishtirish.

Uslubiy ko'rsatmalar: Naslchilik ishini olib borish va uning yo'nalishini aniqlash uchun doimiy ravishda, har yili it guruhida chuqurlashtirilgan genetik tahlilni o'tkazib turish lozim (tizimlar va sh.o'). Tanlashda har bir belgi bo'yicha quyidagilar aniqlanadi: o'rtacha arifmetik ko'rsatkich (avlodlar bo'yicha belgilar siljishini ko'rsatadi), o'rtacha kvadratik og'ish (σ — sigma), variatsiya koeffitsienti (har xillik ko'rsatkichi), belgilar orasidagi korellatsiya va regressiya koeffitsienti (belgilar orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi), bu ko'rsatkichlarning xatosi (parametrlarning haqiqiyligi ko'rsatkichi) va irsiyat koeffitsiyenti (h^2).

Olingan ma'lumotlar maxsus jurnalga yozib boriladi, chunki ular hayvon guruhi bilan ishlashda kerak bo'ladi.

Masalan, umumiy bosh soni uchun σ va h^2 larni bilib, quyidagilarni aniqlash mumkin:

1. Tanlashning natijalarini, ya'ni urchitish uchun qoldirilgan ota-onalarning ulushi ma'lum bo'lganda avlodlarida aniqlanadigan belgining ifodalanish o'lchamlarini bashorat qilish.

2. Tanlash jarayonida kerakli belgiga ega avlodni olish uchun qanday hayvonlarni tanlash lozim.

Yalpi tanlashda hayvonlar faqat shaxsiy fenotipi bo'yicha tanlanadi. Bunda hayvonlarni belgilari bo'yicha sinflarga bo'lish eng yaxshi usul hisoblanadi. Bu qonuniyat quyida keltiriladigan grafikda ko'rsatilgan.

Abssissalar o'qida sinflarning o'rtacha qiymatlari, ordinata o'qida esa — tegishli sinflardagi variantlarning soni keltiriladi. Viborkalarning yetarlicha katta hajmida sinfdagi variantlar soni o'rtacha arifmetik ko'rsatkichga yaqinlashganda oshadi (X) va aksincha uzoqlashganda kam uchraydi. Variantlarning sinflar bo'yicha bunday taqsimlanishi normal taqsimlanish hisoblanadi va bu amaliy seleksiya uchun qo'llanadi.

Tanlashning eng oddiy ko'rinishida hayvonlarning dastlabki (birlamchi) umumiy bosh soni ikki guruhga bo'linadi:


a) naslli yadro — avlodlari bilan yaxshilanish ishi olib boriladigan eng yaxshi hayvonlar guruhi.

b) naslli brak — bu guruhning avlodlari naslchilik ishiga yaramaydi va faqat xizmat uchun ishlatiladi.

Tanlashni boshlashdan avval birinchi navbatda belgi kattaligining minimal chegarasi tanlanadi. Bu minimal ko'rsatkich seleksion nuqta yoki **tanlash chegarasi** deb ataladi va X_u (1-grafik) simvoli bilan belgilanadi. Bu chegaragacha yetmaydigan hayvonlar brakka chiqariladi.

Naslli yadroga ajratilgan hayvonlar R (1-grafik) harfi bilan belgilanadi. Bunda brakka chiqariladigan hayvonlar ulushi $1r$ ni tashkil qiladi.

Faraz qilaylik, naslli yadroga 70% hayvonlar tanlansa R q 0,7 ni tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda brakka (yaroqsizga) chiqariladigan hayvonlar 30% ni (0,3) tashkil qiladi. R q 1,0 da tanlanish bo'lmaydi, ya'ni populatsiyaning barcha hayvonlari naslchilik ishlariga qo'yiladi. Ajratib olingan hayvonlar guruhi-dagi aniqlanadigan (hisobga olinadigan) belgining X_r o'rtacha qiymati va uning populatsiyadagi o'rtacha qiymati (X) orasidagi farq **seleksion differensial** deb ataladi (S; SD; Sd; yoki d).



$$S = X_p - X.$$

Bundan: $X_p = X + S$ va $X = X_p - S$.

Seleksion differensial qancha katta bo'lsa, ajratilgan guruh hayvonlaridan yuqori sifatli avlodni olish darajasi shuncha katta bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Naslchilik ishida istiqbolli rejalarining vazifasi nimada?
2. Naslchilik ishining rejaları nimalardan iborat?
3. Genetik tahlilning mohiyati.
4. O'rtacha arifmetik ko'rsatkich, o'rtacha kvadratik og'ish (σ — sigma), variatsiya koeffitsienti nima uchun qo'llanadi?
5. Belgilar orasidagi korellatsiya va regressiya koeffitsienti, bu ko'rsatkichlarning xatosi va irsiyat koeffitsienti (h^2) nima uchun qo'llanadi?
6. Olingan ma'lumotlar qayerga yoziladi?
7. Yalpi tanlashning ahamiyati.
8. Naslli yadro tushunchasi.
9. Naslli brak tushunchasi.
10. Seleksion nuqta tushunchasi.
11. Seleksion differensial tushunchasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гавлин И. Разведение домашних животных. — Алма-Ата. 1985.
2. F. Ziyadinov. Kinologiya asoslari. — Toshkent. 2004.
3. Зубко В.Н. Служебное собаководство. — М.: ДОСААФ. 1987.
4. Корнеев Л.А. Слово о собаке. — М.: Мысль. 1989.
5. D.X. Narziyev. Hayvonlar anatomiyasi. — Toshkent: Mehnat. 1986.
6. Чистяков. Воспитание и дрессировка служебной собаки. — Санкт-Петербург. 2005.
8. Хасанова Р.А. Декоративное собаководство: необычное и обычное о собаках. — Т.: Mehnat. 1990.
9. Поярков А.Д. и др. О собаке. Москва — Тошкент: Фирма «Фонд». ИПК «Шарк». 1992.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU. ITLARNING KELIB CHIQISHI VA EVOLUTSIYASI	9
1.1. Itlarning yovvoyi ajdodlari.	9
1.2. Itlarni xonakilashtirish vaqti, joyi, bosqichlari, yuz bergan o'zgarishlar	10
1.3. Itlarning taraqqiyotida tabiiy va sun'iy tanlashning ahamiyati.	12
1-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat Itlar taraqqiyotida tabiiy va sun'iy tanlanishning ahamiyati	13
2-MAVZU. ZOT XAQIDA TA'LIMOT, IT ZOTLARI (2 SOAT)	16
2.1. Zot haqida tushuncha	16
2.2. It zotlarining kelib chiqish omillari, yo'nalishi, tarqalgan joylari, yaratilishi	21
2.3. Zotli itlar, ularning genofonini saqlash masalalari	23
2.4. It zotlarini o'rganish, zotlarning kelib chiqishi, tarqalishi va yo'nalishini aniqlash	27
2-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat It zotlari va ularni yo'nalishi bo'yicha tanlash	30
3-MAVZU. ITLARNING KONSTITUTSIYASI VA EKSTERYERI (2 SOAT)	35
3.1. Itlarning konstitutsiyasi haqida tushuncha	35
3.2. Konstitutsiya tiplarining itlar xarakteri bilan bog'liqligi	37
3.3. Itlarning eksteryeri, har xil zot va yo'nalishdagi itlarda eksteryer tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari . . .	42
3.4. Tana qismlarida uchraydigan nuqsonlar, ularni bartaraf etish yo'llari	47
3.5. Itlarning konditsiyasi	49
3-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat Itdan o'lchamlarni olish uchun qo'llanadigan o'lchash asboblari va itlarning asosiy o'lchamlari.	49
3.1-AMALIY MASHG'ULOT — 4 soat Itlarning rasmlari va konturlash asosida konstitutsiya, eksteryer va tana qismlarini o'rganish. Tashqi tuzilishiga qarab yo'nalishini aniqlash	54

4-MAVZU. ITLARNING O‘SISHI VA RIVOJLANISHI (2 SOAT).	.64
4.1. Itlarning o‘shishi va rivojlanishi haqida tushuncha	64
4.2. O‘shish va rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Notekis, ritmik, tez o‘shish, sekin o‘shish va bularga ta’sir etuvchi omillar, ularni hisobga olish	65
4.3. Embrionizm, infantilizm haqida tushuncha	68
4-AMALIY MASHG‘ULOT — 2 soat Itlarning absolut va nisbiy o‘shishini o‘rganish va hisoblash. O‘shish grafigi va tirik og‘irlik dinamikasi	69
5-MAVZU. ITCHILIKDA TANLASH VA SARALASH (4 SOAT)	.73
5.1. Itlarni tanlash haqida tushuncha. Itchilikda geterozisning qo‘llanilishi.	73
5.2. Tanlash klassifikatsiyasi va shakllari	76
5.3. Itning kelib chiqishi, konstitutsiyasi va eksteryeri. Nasli bo‘yicha baholash va tanlash, tanlash va saralash (juftlash)ning bir-biriga uzviy bog‘liqligi.	77
5.4. Saralashning gomogen va geterogen usullari.	80
5.5. Itlarning shajarasini tuzish, ularni kelib chiqishi bo‘yicha baholash.	82
5-AMALIY MASHG‘ULOT — 2 soat Zotli itlarning shajarasini tuzish, ularni kelib chiqishi bo‘yicha baholash	83
6-MAVZU. ITLARNI URCHITISH USULLARI (2 SOAT).	.85
6.1. Itlarni urchitish haqida tushuncha. Urchitish usullari va klassifikatsiyasi	85
6.2. Sof zotli urchitish	86
6.3. Chatishtirish turlari	87
6.4. Har xil it zotlarini ma’lum maqsadda o‘zaro chatishtirish.	88
6.5. Itchilikda gibridizatsiya, uni qo‘llashning, ahamiyati	90
6.6. Turli xil chatishtirish chizmasini tuzish va tahlil qilish. Duragay itlarda qon ulushini hisoblash.	90
6-AMALIY MASHG‘ULOT — 2 soat Sof zotli urchitish, chatishtirish turlari va ularning ahamiyati	93

7-MAVZU. ITCHILIKDA SELEKSIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH (2 SOAT)	95
7.1. Sof (toza) zotli itlarni urchitish, ularni tanlash, saralash.	95
7.2. It bolalarining o'sish va rivojlanishini nazorat qilish, ularni asrash, boqish, tanlab olish, istiqbolini aniqlash, trening uchun tayyorlash yo'llari	96
7.3. Sof zotli itlar bilan seleksiya ishlarini tashkil etish	102
7.4. Itlarni tanlash, saralash, boqish va treningga tayyorlash yo'llari.	104
7-AMALIY MASHG'ULOT — 2 soat Sof zotli it bolalarining rivojlanishini nazorat qilish.	110
8-MAVZU. ITCHILIKDA NASLCHILIK ISHLARINI TASHKIL ETISH (2 SOAT)	113
8.1. Itchilikda urchitish va naslchilik ishining ahamiyati	113
8.2. Naslchilik ishlarini tashkil etish, uning tarkibiy qismi va vazifalari	113
8.3. Urchitish usullaridan to'g'ri foydalanish.	118
8.4. It zotlarini takomillashtirishda naslchilik ishining o'rni.	120
8-AMALIY MASHG'ULOT Zotdor itlarni urchitish uchun tanlash, saralash, itlarni zoti va sifatiga qarab baholash tizimi	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	124

KINOLOGIYADA NASLCHILIK ISHLARI

O'quv qo'llanma

Muharrir: *M. Tursunova*
Musahhih: *M. Turdiyeva*
Dizayner sahifalovchi: *D. Ermatova*

«Faylasuflar» nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.

Bosishga ruxsat etildi 05.08.2013. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60×90¹/₁₆. Bosma tabog'i 8,0. Nashr hisob tabog'i 8,5. Adadi 93 nusxa. Buyurtma №__.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.